v) elektron tijoratning boshqa ishtirokchilarini o'zi to'g'risida elektron shaklda davlat tilida, zaruriyat bo'lganda esa boshqa tillardagi ishonchli axborotdan tegishli foydalanishni ta'minlashi shart, axborot quyidagi ma'lumotlarni o'z ichiga olishi kerak:

– yuridik shaxs uchun — tadbirkorlik faoliyati sub'ektining tashkiliy-huquqiy shakli ko'rsatilgan holda uning to'liq nomi; yuridik shaxs tashkil etmasdan tadbirkorlik faoliyatini amalga oshiruvchi jismoniy shaxs uchun — familiyasi, ismi, otasining ismi;

– davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi to'g'risidagi ma'lumotlar, tadbirkorlik faoliyati sub'ektining soliq to'lovchining identifikatsiya raqami;

– joylashgan joyi (pochta manzili), elektron pochta manzili, bog'lanish telefoni raqami;

– qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda litsenziya yoki ruxsat etish xususiyatiga ega hujjatning mavjudligi to'g'risidagi ma'lumotlar (litsenziyaning yoki ruxsat etish xususiyatiga ega hujjatning raqami, amal qilish muddati, litsenziyani yoki ruxsat etish xususiyatiga ega hujjatni berishga vakolatli organning nomi).

Sotuvchidan chiquvchi oferta yoxud taklif etilayotgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) to'g'risidagi axborot axborotni buzmasdan qayta tiklash

va sotuvchi to'g'risida, shuningdek u tomondan taklif qilinayotgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar), ularning narxlari va tariflari, shuningdek ularni sotish (ishlarni bajarish, xizmatlar ko'rsatish) shartlari to'g'risida ishonchli tasavvur hosil qilish imkonini beruvchi elektron shaklda taqdim etilishi kerak.

Elektron tijorat sub'ektlari, elektron hujjatlar va elektron xabarlarni ayirboshlash uchun tegishli axborot tizimlarini boshqarishni aniq tashkil etishni ta'minlab shartnoma asosida axborot vositachisi xizmatlaridan foydalanishlari mumkin.

Axborot vositachilari:

Axborot vositachilari jumlasiga quyidagilar kiradi:

– elektron tijorat ishtirokchilarining elektron hujjatlari va elektron xabarlari aylanishi bo'yicha xizmatlar ko'rsatuvchi telekommunikatsiya tarmoqlari operatorlari va provayderlari;

– elektron tijorat ishtirokchilarining to'lov tizimlaridan foydalanilishini va to'lovlar o'tkazilishini ta'minlash bo'yicha xizmatlar ko'rsatuvchi banklar;

– elektron yarmarkalar, kimoshdi savdolari va tanlovlar tashkil etilishini amalga oshiruvchi yuridik shaxslar;

– elektron tijorat ishtirokchilarining elektron hujjatlari va elektron xabarlarini saqlash bo'yicha xizmatlar ko'rsatuvchi yuridik shaxslar.

Axborot vositachilari jumlasiga qonun hujjatlariga muvofiq boshqa yuridik shaxslar ham kiritilishi mumkin.

Axborot vositachilari sotuvchi va xaridor o'rtasida tuziladigan shartnomalarning taraflari hisoblanmaydilar. Axborot vositachisi quyidagi huquqlarga ega:

– o'z vakolati doirasida shartnoma asosida elektron tijoratda elektron hujjatlar va elektron xabarlar aylanishi bilan bog'liq xizmatlar ko'rsatish;

– elektron tijorat ishtirokchilariga ko'rsatiladigan xizmatlar shartlarini belgilash.

Axborot vositachisi:

– elektron tijorat sohasidagi standartlar, normalar va qoidalarga rioya etishi;

– o'zining to'liq nomi, tashkiliy-huquqiy shakli, ko'rsatiladigan xizmatlar, ularni ko'rsatish shartlari va qiymatlari (tariflari) haqidagi axborotni elektron tijorat ishtirokchilariga oshkor qilishi;

– elektron hujjatlarning va elektron xabarlarning mazmunini, ulardan foydalanish tartibini o'zgartirmasligi, elektron tijorat ishtirokchilari bilan tuzilgan shartnomalarda nazarda tutilgan hollar bundan mustasno;

– elektron hujjatlarni, elektron xabarlarni hamda shaxsga doir ma'lumotlarni ruxsatsiz foydalanishdan himoya qilish chora-tadbirlari bilan ta'minlashi;

– elektron hujjatlarni va elektron xabarlarni uchinchi shaxsga yubormasligi shart (qonunda yoki shartnomada nazarda tutilgan hollar bundan mustasno).

– Axborot vositachisi qonun hujjatlariga hamda shartnomaga muvofiq boshqa huquqlarga ega bo'lishi va o'z zimmasiga o'zga majburiyatlar olishi mumkin.

– elektron tijoratni amalga oshirishda foydalaniladigan ma'lumotlarning elektron arxivini tashkil etishi, ular belgilangan tartibda saqlanishini ta'minlashi;

– axborot tizimlaridagi mavjud axborotning yaxlitligi va maxfiyligini ta'minlashi shart.

Axborot vositachisi berilayotgan, olinayotgan, saqlanayotgan elektron hujjatlar va elektron xabarlarni nazorat qilishga yoki ularning ishonchliligini, shuningdek ularning qonun hujjatlariga muvofiqligini nazorat qilishga yoki ishonchliligini tekshirishga majbur emas, agar qonun hujjatlarida yoki shartnomada o'zgacha hol nazarda tutilmagan bo'lsa.

Elektron tijorat sub'ektlarining axborot vositachisi orqali yuborilayotgan elektron hujjatlar va elektron xabarlar mazmuni bilan bog'liq bo'lgan huquqiy oqibatlar uchun axborot vositachisi javobgar bo'lmaydi.

1.4. O'zbekistondagi elektron tijorat

O'zbekistonda elektron tijoratning jadal rivojlanishi tabiatan ob'ektiv tasnifga ega bo'lib, kompyuter va internet-texnologiyalarining rivojlanishi bilan bog'liq bo'ldi. Dastlab, tijorat faoliyati uchun yangi texnik

imkoniyatlar paydo bo'ldi, so'ngra tadbirkorlar sinab ko'rish va xatolar usullari bilan bu imkoniyatlardan foyda *лцэкшыр* imkoniyatlarini o'rganishdi.

Texnologik jihatdan, O'zbekistonda elektron tijorat Internetga bog'lanishning barcha spektrida ishtirok eta oladi: kommutatsiya qilinadigan keng yo'lakli va simli telefondan mobil telefonga qadar. Hozirgi kunda – takomillashib borayotgan yuqori tezlikdagi keng polosali va mobil qurilmalar orqali simsiz ulanish O'zbekistonda jadal rivojlanib bormoqda. Shu bilan birga, mobil Internet foydalanuvchilar soni barqaror o'sib bormoqda va 2018 yil oxiriga kelib qariyb 22 mln. foydalanuvchi mobil telefondan foydalangan. O'zbekistonda mobil trafikning yillik hajmi 70 mln. Gbdan oshib ketdi.

Internetga ajratib berilgan tarmoq orqali ulanish o'rniga simsiz bog'lanish usuli keng rivojlanib ketdi, bu mobil-internet segmentining o'sishini ko'rsatadi (1.1-jadval). Internet barcha ko'rinishlarida dastlabki davrdagidek faqat ko'ngil ochar vosita bo'lib qolmasdan, endilikda asta-sekin virtual muhitga aylanib bormoqda.

1.1-jadval.

O'zbekistonda uydan Internet-ulanish turlari

Kirish usuli	Foydalanuvchilar soni, umumiy aholiga nisbatan %	
	2018 yil, dekabr	2019 yil, dekabr
Ajratilgan liniya	3%	5%
Keng polosali kirish	81%	71%
Simsiz aloqa modemi	10%	18%
Mobil qurilma	67%	89%

O'zbekistonda Internet virtual muhitining ajralmas qismi sifatida bozorning B2B dan C2C gacha bo'lgan barcha sektorlarida elektron tijorat taqdim etilmoqda. O'zbekistonda B2Bva B2G sektorlarini rivojlantirish uchun yetarli chora-tadbirlar ishlab chiqilgan bo'lsada, hozirgacha o'zining rivojlanish bosqichiga o'tgani yo'q.

Kelgusi yillarda O'zbekistonda elektron tijorat bozorining o'sishi quyidagi omillar asosida ta'minlanishi mumkin:

- aholi daromad darajalarini o'sishi;
- Internet auditoriyaning o'sishi;
- Internet foydalanuvchilarni elektron tijoratga jalb qilinish darajasi;
- mahsulot toifalarining ko'payishi;
- mahsulot toifalari ichida xaridlarning o'sishi
- xarid hajmining o'sishi.

O'zbekiston Respublikasida elektron tijorat foydalanuvchilarining demografik tahlili foydalanuvchilarni onlayn xarid qilishga jalb qilinishni belgilab beruvchi uchta asosiy omilni ajratib ko'rsatishga imkon beradi:

1. Daromad darajasi. Yuqori daromad Internetda xarid qilish faolligini rag'batlantiradi. Bu, birinchi navbatda, mahsulotlar assortimentining yanada keng doirasi bilan bog'liq. Vaqtni tejash va qisman mahsulot narxini tushirish ham katta rag'batlantirish hisoblanadi. Masalan, Rossiya elektron tijorat misolida Molotok.ru foydalanuvchilarining 59 foyizi Internetdagi mahsulotlar arzonligi, 58 foyizi qulaylik tufayli Internetda xarid qilishini bildirgan bo'lsa, 42,6 foyizi an'anaviy savdoda ehtiyoj uchun zarur bo'lgan mahsulotlarni o'z vaqtida sotib olib bo'lmaydi deb hisoblaydi.

2. Internetdan foydalanish tajribasi. Internet foydalanuvchilarini onlayn-xaridlarni amalga oshirishga jalb qilinganlik darajasi ularning Internetda ishlash tajribasi bilan bog'liq bo'lish to'g'risidagi qonuniyat mavjud. Internetdan foydalanish tajribasi qanchalik ko'p bo'lsa, elektron tijorat xizmatlaridan shunchalik ko'proq foydalanadi.

3. Yashash joyi. O'zbekistonda internetda mahsulot xarid qiluvchilarning asosiy qismi asosan (76 %) Toshkent shahri, Toshkent viloyati va boshqa viloyat shaharlarida yashaydi. Bundan tashqari, bu munosabat daromad va Internetdan foydalanish tajribasi to'g'risida so'z ketganda ham saqlanib qoladi.

Elektron tijoratda savdoning masofaviyligi (buyurtmani bajarish tezligi, mahsulotlarni tekshirishning iloji yo'qligi va boshqalar) bilan bog'liq aniq kamchiliklari mavjud. Biroq, biron-bir sababga ko'ra kerakli mahsulotni chakana savdoda xarid qilishning iloji bo'lmasa yoki bu

mahsulot xaridorga narxiga ko'ra to'g'ri kelmagan holatda elektron tijoratga nisbatan boshva bir raqobatchi topilmaydi.

Yuqoridagi omillar O'zbekistonda elektron tijoratni rivojlanish istiqbolini ko'rsatib beradi. O'zbekiston elektron tijorat hajmi bo'yicha qo'shni davlatlarga nisbatan qoniqarli bo'lsada, global iqtisodiyotda elektron tijorat hajmini o'sishiga nisbatan ahamiyatli darajada ortda qolmoqda.

O'zbekistonda elektron tijoratning chakana savdo umumiy hajmidagi ulushi 1,4 foyizni, aynan shu ko'rsatkich Rossiyada 4 foyiz, AQShda 8,3 foyiz va G'arbiy Evropaning aksariyat mamlakatlarida 9,9 foyizni tashkil qiladi.

Evropada elektron tijoratning keng tarqalishida Buyuk Britaniya yetakchi hisoblanadi, bu erda Internet foydalanuvchilarning qariyb 86 foyizi onlayn xaridlarni amalga oshiradi.

Nazorat uchun savollar

1. Tijorat va biznes tushunalarini tavsiflab bering.
2. Elektron tijorat va biznes shchrtasidagi asosiy farqlar qanday tavsiflanadi?
3. Elektron tijoratning an'anaviy savdo turlaridan farqi nimada?
4. Biznes va tijorat o'rtasida qanday munosabat mavjud?
5. Tarmoq (elektron, raqamli) iqtisodiyotini qanday tavsiflab berasiz?
6. Elektron tijoratda biznes-operatsiyalarni ta'minlovchi qanday asosiy elementlaravjud?
7. Elektron tijorat qanday masalalarni orqali yechishga yo'naltiriladi?
8. Elektron tijoratni rivojlantirishi Xitoy davlatining iqtisodiyotiga qay darajada ta'sir ko'rsatdi?
9. Elektron tijoratning asosiy sub'ektlarining asosiy ishtirokchilarining faoliyati fanday jarayonlardan iborat?
10. O'zbekistonda elektron tijorat bozorining o'sishi qandayi omillar asosida ta'minlanishi mumkin?

II-BOB. TARMOQ IQTISODIYOTINING ELEKTRON TIJORATDAGI TIZIMLI TABIATI

2.1. Innovatsion rivojlanish manbalari

Iqtisodiyotdagi siklik jarayonlarning tasodifiyligi kelib chiqishi va rivojlanishi institutsional muhitning tashqi sharoitlari va hukmron iqtisodiy munosabatlarning ichki sharoitlarining sabab-oqibat bog'liqligi tufayli kelib chiqadigan iqtisodiy ko'rinishlarning determinilashganligida ifodalanadi. Institutsional va iqtisodiy rivojlanishning iqtisodiy siklikning asosida yotgan va iqtisodiy tizimlarni muvozanatdan chiqaruvchi mutanosiblikni keltirib chiqaradi. Sikllar nazariyasiga ko'ra, tizimli inqirozdan chiqish yo'li navbatdagi iqtisodiy siklning asosida yotuvchi innovatsion texnologiyalarni joriy etish bilan uzviy bog'liqdir.

Hozirgi kunda iqtisodiy boshqaruvning asosiy masalasi yangi siklning iqtisodiy o'sish mexanizmini izlash va faollashtirishdan iboratdir. Siklni aniqlash muammosi, unga ko'ra yangi iqtisodiy siklning innovatsion manbalarini faqat ishlab chiqarish texnologiyalari sohasidan izlash kerak bo'ladigantexnologik determinizmdan iborat bo'ladi. Ko'pgina konsepsiya mualliflari bir narsada kelishib olishadi: navbatdagi sikl tugaydi va "eski bazis innovatsiyalar - axborot texnologiyalari, kompyuter va Internet - ishlab chiqarish omillari mahsuldorligini oshirishni ta'minlaydigan etarli miqdordagi ikkilamchi innovatsiyalarni keltirib chiqarmaydi va yangi bazis innovatsiyalar esa hozircha paydo bo'lmaganligi to'g'risida bir xil to'xtamga kelishgan".

Bu axborot texnologiyalari, kompyuter va Internetning o'zi innovatsion kompaniyalarning texnologik imkoniyatlaridan foydalanishdagi ikkilamchi mahsulot hisoblanishi bilan izohlanadi. Bundan chiqishni oldingi sikl harakat mexanizmlari intensivatsiya qilishdan izlash taklif qilinadi [46]. Biroq, bu yondashuv umumiy iqtisodiy ko'rsatkichlarni yaxshilash yo'llarini aniqlashga qodir, ammo yangi iqtisodiy sikl doirasida yuqori raqobatdoshlikni ta'minlay olmaydi.

Jahon iqtisodiyotida misli ko'rilmagan vaziyat yuzaga keldi: iqtisodiy makon global miqyosga ega bo'ldi, bu esa ekstensiv iqtisodiy o'sish uchun imkoniyatlarning kamayishiga olib keldi. Shu sababli, yalpi talabning pasayishi va iqtisodiy dinamikaning sekinlashuvi sharoitida yangi siklda ishlab chiqarish sohasi emas, balki taxsirlash sohasi

innovatsiyalar harakatlantiruvchi kuch sifatida xizmat qiladi. Qamrab olinmagan bozorlar mavjud bo'lgan joyda ishlab chiqarish yetakchi ahamiyatga ega bo'ladi. Iqtisodiyotda global ortiqcha ishlab chiqarishda innovatsion faollik talab to'plangan joyda - ya'ni taqsimlash sohasiga e'tibor qaratiladi.

Kompyuter inqilobi. Mikrokompyuterlar davrining boshlanishini ko'pincha jahon iqtisodiyotining rivojlanishiga ta'siri darajasi nuqtai nazaridan yangi sanoat inqilobi bilan taqqoslashadi. Masalan R.J.Gordon: "Uchinchi sanoat inqilobi taxminan 1960 yillarda, kompyuterlardan birinchi marta tijorat maqsadlarida foydalanilishi bilan boshlanib, 1990-yillarda Internet, shuningdek elektron tijorat ixtiro qilinishi bilan tugadi" deb ta'kidlaydi.

Agarda birinchi bosqichda dastlab kompyuterlar "keng qo'llanishdagi texnologiyalardan" biri sifatida qabul qilinmagan bo'lsa, XX-asrning oxiriga kelib ularni "yangi iqtisodiyot" tushunchasi bilan bog'lay boshlandi. 1980-yillarda paydo bo'lgan bu tushuncha, dastlab xizmat ko'rsatish sohasiga yo'naltirilgan postindustrial jamiyat iqtisodiyotini ifodalagan. Biroq, 1990-yillarda bu atama bilan iqtisodiy hayotning kompyuter texnologiyalaridan foydalanish bilan bog'liq sohasini belgilay boshlandi.

Institutsional nuqtai nazardan, "yangi iqtisodiyot" bugungi kunda "yuqori texnologiyalarning iqtisodiy makonga ko'rsatadigan shunday ta'siri tushuniladiki, bu ta'sir alohida natijaga makroiqtisodiy parametrlarining o'zgarishiga olib keladi" degan ma'noni anglatadi. Bunda, biotexnologiya, mikroelektronika, Internet texnologiya va rasmiy jihatdan iqtisodiy faoliyatning turli tarmoqlariga tegishli bo'lgan boshqa bir qator yo'nalishlar yangi iqtisodiyotga taalluqli bo'ladi.

Yangi iqtisodiyotning o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, unda ilmiy yo'nalishlar rasmiy mezonlar bo'yicha emas, balki umumlashgan metodologiyalar asosida birlashtiriladi. Iqtisodiy sikl doirasida yangi iqtisodiyot personal kompyuterlarni mahsulotlarning asosiy guruhi sifatida ustuvor ishlab chiqarishdan kompyuter texnologiyalarining ustuvorlikda ishlab chiqarilishigacha rivojlandi. Yangi iqtisodiyotning ajralib turuvchi xususiyati ishlab chiqaruvchilarning uning yutuqlaridan foydalanish natijasida olinadigan katta foydadan tashkil topgan edi.

Ikkita turli mikroprotsessor uchun ham ishlab chiqarish xomashyoni narxi deyarli bir xil. Bundan tashqari, hayot sikli davomida (1-2 yil) eng qimmat mikroprotsessorning narxi asta-sekin eng arzon narxga tushib boradi. Faqat narx chizig'i o'zgarishsiz qoladi, uning yuqori qiymati yuqori narx toifasidagi mijozlarning sotib olish qobiliyatini, quyi qiymati - bozordagi aktsiyalar narxini aks ettiradi.

Bu vaziyat mahsulotning har bir yangi modifikatsiyasi mijozlar uchun muhim afzalliklarga ega bo'lgandagina saqlanib qolishi mumkin. Bu uzoq davom etishi mumkin emas - bozor tez orada (peregreytsya) qizg'in tusga kiradi. Ya'ni muammo shundaki, mahsulot sifatida kompyuter texnologiyalarining mahsulot sifatidagi hayot sikli ularni qo'llash siklidan bir necha marta qisqa. Shunday, Masalan, agar kompyuterlarining assortimenti taxminan 1,5-2 yilda bir marta to'liq yangilanadigan bo'lsa, undan foydalanish muddati o'rtacha 5-6 yilni tashkil etadi. Shu sababli, bozorni egallab olish davrida yangi texnologiyalar savdosining o'sishi xatto monopoliya sharoitida ham yuqori savdo ko'rsatkichlarini uzoq vaqt saqlanib qolishiga kafolat bermaydi.

Bundan kelib chiqadiki, yangi iqtisodiyotda sotuvchining mijozlar muammolarini yecha oladigan raqobatbardosh mahsulot taklif qilish qobiliyati narxlarni shakllantirishning asosiy omili hisoblanadi. Bu holat mahsulotning nominal parametrlari yoki uni ishlab chiqarish bilan bog'liq xarajatlardan ham ancha ahamiyatlidir.

Kompyuter (axborot) texnologiyalarining o'ziga xos xususiyati shundaki, oxirgi mahsulotning texnologiyani o'zlashtirish darajasi va undan foydalanish darajasida shakllanadi. Bu darajalar o'rtasida yakuniy mahsulot deyarli hech qanday qiymatga ega emas. Texnologiyani o'zlashtirish darajasi mahsulotni rivojlantirish xarajat va ishlab chiqarishni o'zlashtirish xarajatlarini nazarda tutadi. Mahsulotdan foydalanish darajasi mahsulotni qo'llashdan kelajakda olinadigan daromadning shunday qismiki, uni xaridor sotib olayotganda baham ko'rishga tayyor. Agar oxirgi iste'molchi yangi modifikatsiyadagi mahsulotni sotib olishga o'ta zaruriyatni ko'rmasa, u holda talab yo'qoladi.

Agar mahsulot virtual yoki unga yaqin bo'lsa, uning bozor qiymati ishlab chiqarish xarajatlari (minimal bo'lgan) va ishlab chiqaruvchi qimmatli qog'ozlarining birja qiymati bilan emas, balki, xaridor uni

ishlatishda olgan foydani taqqoslash bilan belgilanadi. Kompyuter texnologiyalarini daromadlilikini ortib borishi to'g'risidagi barcha g'oyalar afsona ekanligini hayotning o'zi ko'rsatib turibdi.

Mijoz keyinchalik raqobatbardoshligini oshirishi hisobiga xarajatlari qoplanadigan vaziyatidagina innovatsion mahsulot uchun baland narx to'laydi. Ammo, agar, mijoz ko'p sonli raqobatchilarida allaqachon mavjud bo'lgan sharoitda mahsulotni sotib olsa, u holda bu mahsulotning iste'mol qiymati faqat uning mavjudligi bilan aniqlanadi. Agar, bu yoki muqobil mahsulotning litsenziyasiz nusxasini ishlatish imkoniyati bo'lsa, uning iste'mol qiymati odatda nolga intiladi.

Xaridor megagerts va gigabaytli kompyuter uchun emas, balki, u orqali o'zining joriy masalalarini yecha olganligi uchun haq to'laydi. Kompyuterning bozor qiymatining ichidagi elementlari bilan emas (metall va plastmassa arzon turadi) emas, balki kompyuter yordamida olinadigan yechimlar qiymati bilan belgilanadi. Bu mahsulotda, masalan, tilla zargarlik buyumlarida bo'lgani kabi minimal boshlang'ich narx yo'q.

Bu yerda yakuniy mahsulotning narxi alternativ bo'lmagan foydalanish bilan belgilanadi. Boshqa muqobil yo'q bo'lsa - mahsulotga katta talab mavjud. Keyinchalik boshqa jozibador muqobili paydo bo'lishi bilan uning narxi tushib boradi va uni ishlab chiqarishga kiritilgan barcha investitsiyalar qoplanmay qoladi.

Yuqorida aytilganlarning tasdig'i sifatida, amerikalik marketolog M. Lelening fikrini, keltirish mumkin bozorda (ya'ni tizimli) qandaydir muhim parametr bo'yicha monopol mavqega ega bo'lgan kompaniyalargina o'rta darajadan yuqoriroq foyda ko'rishi mumkin. Bozordagi monopol mavqeini yo'qotishi bilan, super yuqori foyda ham o'z-o'zidan yo'qoladi.

Shuning uchun, agar 90-yillarda, yangi iqtisodiyot birinchi navbatda kompyuter texnologiyalari tufayli yuzaga kelgan bo'lsa, asr yakunida "yangi iqtisodiyot"ning rivojlanish sikli dotkomlar inqirozi bilan tugadi.⁸ Qisman, inqiroz iqtisodiy sub'ektlar tomonidan bunday turdagi biznes xususiyatlarini tushunmasliklari bilan bog'liq bo'ldi. Agarda dastlabki bosqichda yangi iqtisodiyot sub'ektlari rentabellik ko'rsatkichlarini namoyish etishgan bo'lsa, keyinchalik vaziyat keskin o'zgardi. Yangi iqtisodiyotning asosiy farqlari orasidan keyinchalik 2000-2001 yillardagi

inqirozga olib kelgan kamida ikkita xususiyatini ajratib ko'rsatish mumkin.

1. Kamayadigan. Yangi texnologiyalardan foydalanishning afzalliklari moddiy mahsulotlarni ishlab chiqarish bilan to'g'ridan to'g'ri bog'liq emas. Ular mahsulotning ichki xususiyatlari bilan emas, balki uni ishlatish shartlari bilan aniqlanadi. Bunday texnologiyalarning hayot sikli juda qisqa. Yaqin istiqbolda o'zini oqlamagan barcha narsa tezda eskiradi va o'z qiymatini yo'qotadi. Axborot texnologiyalaridan foydalanishdagi ustunlik faqat raqobatchilar bunday texnologiyalarga ega emasligida ma'noga ega bo'ladi.

Boshqa tomondan, texnologiya versiyalarini doimiy yangilab turish va funksional imkoniyatlarini kengaytirishga asoslangan ishlab chiqaruvchilarning strategiyalari vaqt o'tishi bilan o'z samarasini bermay qo'yadi, chunki iste'molchilar talabi sotuvchilarning takliflariga ulgurmay qoladi. Bu yerda aniq qonuniyat mavjud: axborot texnologiyasi qanchalik murakkab bo'lsa, uni qo'llash sohasi shunchalik torayib boradi va u bilan bog'liq to'lov qobiliyatli talab shunchalik kamayib boradi.

2. Kamayib boradigan daromadlilik. Axborot texnologiyalari global ochiq bozori sharoitida nafaqat daromadlarni oshirish, hatto, bu daromadlarni fiksirlangan darajada ushlab turishga intilish ham muqarrar inqirozga olib keladi. 1998 yil fevral oyida "Mikrosoft"ning agressiv marketing strategiyasiga javoban ochiq dasturiy ta'minotni ilgari suruvchi "Open Source Initiative (OSI)" tashkiloti tuzilganligini ochiq bozorning qarshilik ko'rsatuvchi reaksiyasiga misol sifatida keltirish mumkin.

Vaziyatning o'ziga xos xususiyati shundaki, ko'p millionli auditoriya va Internetga erkin kirish har qanday bozorga kirishdagi to'siqlarni yo'q qilib yuboradi, bu esa bozorga yangi kirib kelayotgan har qanday tadbirkorning masshtab hisobiga harajatlarini qoplashiga imkon beradi. Bundan tashqari, agar taklif qilingan mahsulot bepul bo'lsa, muvaffaqiyat oldindan kafolatlanadi. Bunga pul to'lanadigan pochta xizmatlarini "siqib chiqargan" ijtimoiy tarmoqlar misol bo'la oladi.

Yuqorida qonuniyatlar natijasida investorlarning kutgan natijalari va kompaniyalarning haqiqiy qiymati o'rtasidagi inqirozga olib kelgan nomutanosiblik chuqurlashdi. Masalan, M.Kastelsning ta'kidlashicha, dot komlarni inqirozidan oldin (2000 yilda) AQShda axborot texnologiyalari

bilan bog'liq investitsiyalar xususiy kapital qo'yilmalar umumiy hajmining 50 foizini tashkil etgan. Kompyuter texnologiyalariga talab tushib ketganida, investorlar o'zlarining taxminlari tuzog'iga tushib qoldi va ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish savdo orqali emas, balki qo'shimcha investitsiyalarni jalb qilish hisobiga sodir bo'ldi.

Bu esa dotkomlar inqirozi ko'rinishidagi olib keldi. Kompyuter texnologiyalari iqtisodiy rivojlanishning harakatlantiruvchi kuchi bo'lishdan to'xtadi. Iqtisodiy taraqqiyotning avangardi hisoblangan kompyuter texnologiyalarini yaratuvchilar o'rniga ularning foydalanuvchilari bilan almashtirildi. Kompyuter texnologiyalari ishlab chiqarishning oddiy umumiy iqtisodiy rentabelligini ta'minlashdan umumiy foydalanishdagi vositaga aylandi.

3. Sanoat migratsiyasi. Yangi iqtisodiyot nafaqat iqtisodiy, balki ishlab chiqarish munosabatlarini ham tubdan transformatsiya qilinishiga olib keldi. 1990-yillarda sanoat ishlab chiqarishini rivojlangan mamlakatlardan Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlariga, birinchi navbatda, Xitoyga ommaviy ravishda o'tkazishning cho'qqisi bo'ldi. Ishchi kuchiga bo'lgan xarajatlarni tejamliyligi ishlab chiquvchilarga tarmoq o'rtaga ko'rsatkichlaridan bir necha marta oshib ketadigan foydani olishiga imkon berdi.

Bundan eng ko'proq foyda ko'rgan davlat Xitoy Xalq Respublikasi hisoblanadi. Xitoy hukumatining g'arb investorlariga taklif etgan formula jahon iqtisodiyoti tuzilishini o'zgartirishda hal qiluvchi rol o'ynadi: Xitoy bozorini (ishchi kuchiga) zamonaviy texnologiyalarga almashish.

Bu Xitoy iqtisodiyotining yuksalishiga va Xitoy iqtisodiy mo'jizasining boshlanishiga katta turtki berdi. Faqat 1981–2000 yillarning o'zidagina Xitoyda qo'shimcha 288 million kishi ishlab chiqarishga kirib keldi. Mamlakatda har yili 8 millionga yaqin yangi ish o'rinlari yaratildi. Yaponiyalik mutaxassislarning hisob-kitobga ko'ra 2001 yilda XXRda ish haqi Yaponiyagacha 30 baravar kam bo'lgan. Natijada, Yaponiya bilan taqqoslaganada Xitoyda xizmatlar narxi 8,44 baravar, sanoat mahsulotlari narxi esa 2,49 baravar kam bo'ldi. Ta'kidlash kerakki, g'arbiy sarmoyadorlar uchun ishlab chiqarish xarajatlarining ahamiyatli darajada pasayishi chakana narxlarning shu darajada pasayishi bilan birga kuzatilmadi. Aksincha, bu jarayon iqtisodiyotda moliya sektori va xizmat

ko'rsatish sohasi ahamiyatining kuchayishi, shuningdek, yirik korporatsiyalarning daromad me'yorlarini nomutanosib ravishda o'sib borishi hisobiga ularning globallashuvi bilan birga kuzatildi.

Natijada Xitoy va Janubi-Sharqiy Osiyoning boshqa mamlakatlarida ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar baho shakillanishi tuzilishining o'zgarishi natijasida yangi postindustrial iqtisodiyotning ustuvorlikda yanada rivojlanishi uchun sharoit yaratildi. Bundan savdo zanjirining barcha ishtirokchilarini kredit bilan taminlagan taqdim etgan bank sektori, shuningdek, bo'sh turgan resurslarning fond bozorlariga ommaviy oqimi hisobiga moliya sektori katta muvaffaqiyatga erishdi.

Eng yirik transmilliy korporatsiyalar (80% yoki 500 tadan deyarli 400 tasi). Xitoy ishlab chiqarish quvvatini yaratishga investitsiya kiritdi. Bunda aytish mumkinki, eng minimal darajaga tushirilgan, ishlab chiqarish xarajatlari, iqtisodiyotga hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lmay qoldi va "boshqa barcha omillar bilan teng ravishda" e'tiborga olina boshlandi.

Buning iqtisodiy izohi bor: 2000-2001 yillarda yangi iqtisodiyot inqirozidan oldin trans milliy kompaniyalari (TMK) oladigan daromadlarining katta qismi ishlab chiqarishda emas, balki moliya sektori va savdoda yaratilgan va doim shunday bo'lib qoladigandek to'langan. Bu holat uzoq davom etadiganga o'xshardi. Xatto g'arbiy iqtisodiy nazariyada "intellektual kompaniya" (moddiy aktivlardan voz kechishga intiladigan) tushunchasi paydo bo'ldi. Bunga, intellektuallashganlik darajasi bozor kapitallashuvi va moddiy aktivlar qiymati o'rtasidagi munosabat bilan aniqlangan.

Masalan, amerikalik iqtisodchi T.Styuart intellektual resurslar foydasiga real aktivlardan voz kechishga chaqirib, Microsoft va IBM kompaniyalarining taqqoslama tavsifini beradi. Ushbu ma'lumotlarga ko'ra, 1996 yilda IBMning bozor kapitallashuvi 70,7 milliard dollardan iborat bo'gan bo'lsa Microsoftning bozor kapitallashuvi 85,5 milliard dollarni tashkil etgan, bu esa Microsoftning amortizatsiyasi olib tashlangan moddiy aktivlari qiymati atigi 930 million dollarni, IBM kompaniyasida aynan shu ko'rsatkich 16,6 milliard dollarni tashkil etgan.

Bu natijada moddiy aktiv va ishlab chiqarish texnologiyalarini Xitoyga oqib-ketishiga sabab bo'lgan g'arbdagi rivojlangan mamlakatlarining iqtisodiy siyosatidagi strategik xatosi bo'ldi. Muammo

shunda ediki, kompaniyalarning “bozor kapitallashuvi” ularning qimmatli qog’ozlarining bozor qiymati va reyting ko’rsatkichlari bilan aniqlandi, bu aslida oddiy moliyaviy pufak edi. Dam urilgan pufakcha sharoitida ishlab chiqarish va sotish ko’rsatkichlariga asoslangan kompaniyalarning haqiqiy qiymatiga esa e’tibor qaratilmadi.

Muammoning teskari tomoni ishlab chiqarish nazoratdan tashqarida qolgan holda mamlakatdagi bozor, texnologiyalar va taqsimlash tizimlari ustidan nazoratni amalga oshirish mumkinligi to’g’risidagi hayol edi. Natijada, “yangi iqtisodiyot” yetakchilari ishlab chiqarish quvvatlari ustidan nazoratni yo’qotdi. Dotkom inqirozi ularning raqobatbardosh imkoniyatlarini sezilarli darajada kamaytirdi va g’arbiy bozorlarga Xitoy kompaniyasi tomonidan juda arzon ishlab chiqarilgan Iphone mahsulotlari uchun yo’l ochib berdi. Bunga misol sifatida Apple va uning Xitoyda ishlab chiqarilgan “analogi”ning narxi o’rtasidagi farq 5-10 baravar bo’lganini misol qilib keltirish mumkin.

2000-2001 yillarda xech qanday tashqi ta’sirsiz yangi iqtisodiyot pufagi maksimal darajada o’sishga erishdi va yorildi, kapitallashuvi keskin tushib ketgan “intellektual kompaniyalar”ga katta zarar yetdi. Xitoy istiqbolli rivojlanishi uchun G’arb texnologiyalari ko’rinishidagi kuchli texnologik resurslar va ishlab chiqarish ob’ektlariga ega bo’ldi, bu 2001 yilda XXRni Jahon savdo tashkilotiga kirishi bilan yanada kuchayib ketdi.

Xitoyning JSTga kirishi natijassida “Eksportni 2001 yildagi 249 milliard dollardan 2007 yilda jadal ravishda 1200 milliard dollarga o’sib ketishiga olib keldi. Natijada mahsulot va xizmatlar savdosining ijobiy saldosini (eksportning importga nisbatan oshib ketishi) 2001-yilda 23 mlrd dollar, 2002-yilda 31 mlrd, 2003- yilda 23 mlrd, 2004- yilda 67 mlrd, 2005- yilda 120 mlrd, 2006- yilda 180 mlrd, 2007- yilda 264 mlrd dollar” va shu kabi.

G’arbiy “postindustrial” iqtisodiyotda ishlab chiqarishning sezilarli tushib ketishi kuzatilgan bo’lsa, Xitoyda teskari jarayon - ishlab chiqarish kuchlarini hajmi va ulardan foydalanishdan keladigan daromadlarning keskin o’sishi sodir bo’ladi. Agar yangi iqtisodiyot davrida xitoyliklar G’arb texnologiyalarini ko’paytirishga harakat qilgan bo’lsa, bu jarayon tugallangandan so’ng bu texnologiyalarni ommaviy ravishda sotib ola boshladi. Bunga 2004 yilda Xitoyning yirik Lenovo kompyuter

korporatsiyasi IBM kompaniyasidan personal kompyuterlar ishlab chiqarish bo'yicha biznesni 1,25 mlrd. dollarga sotib olganligini eng oddiy misol sifatida keltirish mumkin.

Xitoyning iqtisodiy mo'jizasi g'arbning super foyda olishga asoslangan innovatsiyalarni ko'paytirish tizimini buzib yubordi. Endi G'arb texnologik yangilikning paydo bo'lishidan Xitoyda uning yasamasini paydo bo'lishigacha bir necha oy o'tadigan bo'ldi. Bundan tashqari, ko'pincha Xitoy klonlari patent egalarining innovatsion mahsulotlari bozorga kirib kelishidan avvalroq paydo bo'la boshladi, o'rtadagi sifat farqi asta-sekin kamayib bordi, narxlash o'rtasidagi farq esa Xitoy mahsulotlarini yanada jozibador va xaridorgir qiladi.

Bunga xulosa qilish mumkin - kompyuter sanoatida superfoyda olish vaqti o'tib bo'ldi. Bu yangi iqtisodiyotni butunlay qo'mib tashladi va keyingi iqtisodiy siklning innovatsion texnologiyalariga - "tarmoq iqtisodiyotiga" yo'l ochib berdi.

2.2. Tarmoq iqtisodiyotida elektron tijorat

2000-2001 yillardagi dotkomlar inqirozi iqtisodiy taraqqiyotning yangi yo'nalishi - tarmoq iqtisodiyotini shakllanishi jarayonini tezlashtirdi. Tizimlar nazariyasi tilida, aytganda, iqtisodiyot o'z-o'zini tizimli tashkil qilishning yuqori darajasiga ko'tarildi. K. Kelli ta'kidlaganidek: "kompyuter chiplari va kommunikatsiya tarmoqlari iqtisodiyotning boshqa barcha tarmoqlarini transformatsiyaga olib kelgan sektorni yaratdi".

Bu sektorga quyidagicha ta'rif berish mumkin: Tarmoq (elektron, raqamli) iqtisodiyoti - bu Internet tarmog'idagi iqtisodiy faoliyatning kommunikatsiya muhiti, shuningdek, uni amalga oshirish shakllari, usullari, vositalari va natijalari.

Tarmoq iqtisodiyoti o'zida faqat biznes yuritishning yangi shakllari, usullari va texnologiyalarini ifoda qilib qolmoqda. Tarmoq iqtisodiyoti shuningdek tamoyil jihatdan, yangi institutsional muhit hamdir. Jismoniy shaxslar, kichik va yirik kompaniyalarning kommunikatsiya imkoniyatlari, maqsadli auditoriyani qamrab olgan holda sezilarli darajada birlashmoqda. Masofa ahamiyatga ega emas va bozorlarning geografik chegaralari yuqolib boradi. Bozor muvaffaqiyatining asosiy parametri tarmoq

infratuzilmasiga kirish va undan foydalanish darajasi bo'lib boradi. Natijada, tarmoq iqtisodiyotining rivojlanishi ikki asosiy parametr bilan tavsiflanadi:

1) AT sektorining ulushi, ya'ni ishlab chiqaruvchi va infratuzilma kompaniyalari bilan;

2) O'zlarining raqobatbardoshlik strategiyalarini Internet texnologiyalaridan foydalanish orqali tranzaksion xarajatlarni kamaytirishga qaratgan kompaniyalar ulushi.

Mutlaqo ajralib turadigan sifatli institutsional yutuqlari mavjud - iqtisodiy tashabbusning transmilliy korporatsiyalardan ularning texnologik mahsulotlarini istemolchilariga o'tishidir. Bu yerda gap "ikkinchi darajali innovatsiyalar"da emas balki yangi institutsional siklni shakllantirishda bormoqda.

Institutsional tahlil yangi iqtisodiyot va tarmoq iqtisodiyotini aniq ajratib olish imkonini beradi. Yangi iqtisodiyotda (kompyuter inqilobi) texnologik innovatsiyalar firma ichki xarajatlarini tushirish va ishlab chiqarish iqtisodiy samaradorligini oshirish bilan bog'liq edi. Tarmoq iqtisodiyotida kommunikatsiya texnologiyalari ustuvor rivojlantirishi hisobiga tranzaksion xarajatlarni tushirish tomon keskin burilish yuz berdi.

R. Metkalf qonuniga ko'ra, tarmoqning foydalanuvchilar va umuman iqtisodiyot foydaliligi uchun uning ishtirokchilari soni kvadratiga to'g'ri proporsional o'sib boradi, yani ekponentsial Tarmoq iqtisodiyotida tashkilot ko'lami savdo yoki ishlab chiqarish hajmi bilan emas, balki transaksiyalari amalga oshirishda mustaqillik darajasi bilan belgilanadi. Endi, agar "O'zi tomonidan transaksiyalarini amalga oshirish arzon bo'lsa, tashkilot o'sib boradi, agar buning aksi kuzatilsa, qisqarib boradi. Sanoat davri ichki tranzaksiyalarga ta'sir qildi, ammo tarmoqlar markazlashtirilgan boshqaruv qadrini tushirdi va qimmat turuvchi ma'muriy tasnifdagi harakatlar xajini kamaytirdi".

Hozirgacha transaksiyalar iqtisodiy fanlar tomonidan ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning harakatlantiruvchi kuchi sifatida qabul qilinmagan. Biroq, jahon iqtisodiyotidagi tarkibiy o'zgarishlar mahsulotlar taqsimlanishini yetakchi mavqega olib chiqdi. Birinchi navbatda, bu ishlab chiqarishni Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlariga ommaviy ravishda

o'tkazilishi tufayli ishchi kuchi qiymatini pasayishi va moliya-bank sektorining nomutanosib ravishda o'sishi bilan bog'liq.

Dunyo iqtisodiyotida ishlab chiqarish daromadlari ishlab chiqarish faoliyatidan olinadigan daromadlarga nisbatan bir necha baravar yuqori bo'lgan holat yuzaga keldi. Kommunikatsiya sohasidagi kompyuter va Internetdagi inqiloblar bilan bog'liq bo'lgan aynan shu holat institutsional rivojlanishda sifat jihatidan o'zgarishlarga olib keldi.

Tarmoq iqtisodiyotining paydo bo'lishi bilan bog'liq bo'lgan iqtisodiy faoliyatda tranzaksion xarajatlarni sezilarli darajada kamayishiga olib keldi. Va nafaqat moliyaviy va mehnat xarajatlarida. Ammo, bundan ham muhimi, vaqt xarajatlarining kamayishiga olib keldi. Agar ilgari ishlab chiqaruvchidan iste'molchiga bo'lgan mahsulot harakati bir necha oyni band qilgan bo'lsa, endi elektron tijorat yordamida mahsulot deyarli bir laxzada xaridorning mulkiga aylanishi mumkin.

Natijada faqat bozor transformatsiya emas, norasmiy institutlarning ko'p asrlik poydevorlari, birinchi navbatda, biznes yuritish an'analari, qoidalari va stereotiplari ham transformatsiyaga uchradi. R. Kouz firma tushunchasini shakllantirishda, uning institutsional ma'nosi "firma ichki xarajatlari bozor tranzaksiyalari xarajatlaridan kam" sharti bilan bozor tranzaksiyalarini amalga oshirishdan iboratligini ta'kidladi. Tarmoqli iqtisodiyotda, aksincha, bozor tranzaksiya xarajatlari firma ichki xarajatlaridan kam.

Shunday qilib, tarmoq iqtisodiyoti yirik korporatsiyalarni yaratish uchun uning iqtisodiy asosini o'zini buzib yuboradi. Ularning bir o'rniga vaqtning o'zida tashqi mijoz xizmat ko'rsatadigan yangi, yanada mayda tor ixtisoslashgan kompaniyalar keladi. Barcha iqtisodiy funktsiyalarni bitta korporatsiya doyrasida bajarish ma'noga ega emas. Kompaniya barcha qolganlarini amalga oshirishni mustaqil bozor vositachilariga ishonib topshirgan holda, eng rentabelli funktsiyalarni e'tiborini bajarishga yo'naltirishi mumkin.

Institutsional sikl tushunchasiga nisbatan, bugungi kunda tarmoq iqtisodiyoti institutsional o'sish bosqichini yakunlamoqda, deb aytish mumkin. Tarkibiy o'zgarishlar ro'y berdi, rasmiy va norasmiy institutlar shakllandi, aloxida olingan iqtisodiy munosabatlar sohasida jadal o'sish sur'atlari mavjud.

Tarmoq iqtisodiyoti institutsional munosabatlarning tarkibi va tarkibiga katta ta'sir ko'rsatdi. Bu nafaqat ma'lumot almashish va undan foydalanish xarajatlari sezilarli darajada kamayganligi bilan izohlanadi. Ishlab chiqarish sohasining institutsional ustuvorligini asta-sekin taqsimot sohasining ustuvorligiga transformatsiyasi amalga oshib bormoqda.

Dunyo davlatlarining formal institutlari tarmoq iqtisodiyotining paydo bo'lishiga tayyor emasligi yaqqol ko'rinib qoldi. Masalan, O'zbekiston rasmiy statistikasida hozirgi kunga qadar hatto u erda bo'layotgan jarayonlarni baholash usullari ishlab chiqilmagan. Tarmoqli iqtisodiyotning paydo bo'lishi, bu jarayon natijalari iqtisodiy reallikka sezilarli ta'sir ko'rsatadigan, ammo boshqa o'lchamlarda avvalgidek ko'zga ko'rinmaydigan yangi o'lchovni kashf etilganligi eslatadi.

2.3. Bulutli hisoblash va virtual biznes

Tarmoq iqtisodiyotini texnologik jihatdan yanada rivojlantirish istiqbollari bulutli hisoblash (bulutli hisoblash) va tegishli biznes texnologiyalarini joriy etish bilan bog'liq. Bulutli hisoblash bir qancha vaqt oldin paydo bo'lgan. Virtuallashtirish texnologiyasi IBM korporatsiyasi tomonidan 1960 yillarning o'rtalarida taklif qilingan bo'ladi. Keng polosali Internet tarmog'ining rivojlanishi bilan keng qamrovli qo'llashga imkon yaratdi.

Internetda tashqi provayderlar tomonidan taqdim etiladigan hisoblash resurslari (serverlar, xizmatlar va dasturlar) puliga umumiy foydalanishdagi tarmoqdan ommaviy foydalanish hisoblanadi. Bulutli hisoblashning institutsional mohiyati xususiy axborot bulutli hisoblashning iqtisodiy mohiyati infratuzilmasini (serverlar, tizim ma'murlari, dasturchilar va boshqalar) saqlash bilan bog'liq bo'lgan xarajatlarni tejashdir.

AQShning standartlar va texnologiyalar milliy instituti bulutli hisoblashning quyidagi xususiyatlarini ajratib ko'rsatadi:

1. Talab bo'yicha o'z-o'ziga xizmat ko'rsatish - har qanday foydalanuvchi zaruriy xizmatlarni murojat qilgan laxzasida, xizmat ko'rsatuvchi provayder bilan shaxsiy aloqaga chiqmasdan, haftasiga 7 kun, kuniga 24 soat avtomat tarzda oladi.

2. Keng foydalanish - mijoz ommaviy periferik uskunalardan (noutbuk, mobil telefon, shaxsiy kompyuter va hk) foydalangan holda bulutli hisoblashlardan foydalanish imkoniyatiga ega bo'ladi.

3. Resurslarni birlashtirish - foydalanuvchini tegishli qurilmanilarni sotib olish, saqlash va yangilash zaruriyatidan xalos qilgan holda bulutli hisoblash bir vaqtning o'zida saqlash, qayta ishlash, xotira va tarmoqning kengligini o'z ichiga oladi.

4. O'ta elastiklik - bulutli hisoblashdan foydalanuvchi o'zi uchun qulay bo'lgan istalgan miqdorda va istalgan vaqtda har qanday texnologik resurslarga cheklanmagan kirish imkoniyatiga ega bo'ladi.

5. O'lchangan xizmat - olingan so'rovlarning xususiyatlariga moslashtirgan holda (masalan, saqlash, ishlov berish, o'tkazish qobiliyati, foydalanuvchi hisoblari faol yozishmalari va boshqalar) bulut taqdim etilgan resurslardan foydalanishni avtomat ravishda optimallashtiradi.

Bulutli hisoblashdan foydalanish uchta asosiy xizmat modelini va to'rtta taqsimlash modelini nazarda tutadi.

Xizmat ko'rsatish modellari taqdim etilayotgan xizmatlar mezonlari bo'yicha farq qiladi:

1. *SaaS (Software as a service)* - bulutli dasturiy taminotga tarmoqdan kirish imkonini ta'minlaydi. Barcha hisob-kitoblar bulutda amalga oshiriladi, bu foydalanuvchilarning qurilmalariga texnik talablarni kamaytirgan holda apparat resurslarini yuklanishni olib tashlaydi. Bulut turli so'rovlarni uyali teng ravishda telefon va shaxsiy kompyuterdan, veb-brauzer va dastur interfeysi orqali qabul qiladi.

2. *IaaS (Infrastructure as a Service)* - bulutli infratuzilmani xizmat sifatida taqdim etish. Bulut foydalanuvchiga o'zboshimchalik bilan dasturiy ta'minotni mustaqil ravishda o'rnatishi va boshqarishi mumkin bo'lgan ma'lumotni qayta ishlash, saqlash va uzatish imkoniyatini beradi.

3. *PaaS (Platform as a Service)* - tashqi ilovalar, kutubxonalar va instrumentlarni joylashtirish uchun provayder tomonidan qo'llab-quvvatlanadigan bulutli platformani taqdim etish. Foydalanuvchi nafaqat bulutli infratuzilma konfiguratsiyasini boshqarishi, balki, operatsion tizim, ma'lumotlarni saqlash va joylashtirilgan so'rovlarni mustaqil ravishda boshqarishi mumkin.

Endilikda bozor sub'ektlariga dasturchi va tizim ma'murlarni ushlab turishi ichki korporativi, Extranet-intranet tarmoqlarini yaratishi, qimmat kompyuter uskunalarga bog'liq bo'lishi va shu kabilarga zaruriyat qolmaydi. Bu vazifalarning barchasi minimal foydalanish xarajatlari va internet-provayderlariga murojat qilish bilan masofadan hal qilinishi mumkin.

Holbuki taqsimlash modellari maqsad funksiyalari, taqdim etilayotgan xizmatlarga to'lovlari va kirish mumkinligi mezonlariga ko'ra farq qiladi:

1. *Xususiy bulut (Public cloud)* - bitta xo'jalik yurituvchi sub'ekt tomonidan firma ichki maqsadlardida foydalanishga yo'naltirilgan. Bunday bulut ho'jalik sub'ektining o'ziga ham, tashqi provayderlarga ham tegishli bo'lishi mumkin.

2. *Umumiy bulut (Private cloud)* – keng auditoriyadagi foydalanuvchilar ommasi tomonidan erkin foydalanishga yo'naltirilgan. Bunday bulut hisoblashlar xizmatlarni taqdim etish shartlarini belgilab beradigan notijorat tashkilotlari yoki davlat idoralariga tegishli bo'lishi mumkin.

3. *Gibrid bulut (Hybrid bulut)* - bir nechta bulutli infratuzilmalar o'rtasida axborot almashishni muvofiqlashtirish bo'yicha texnik muammolarini yechishga yo'naltirilgan.

4. *Jamoaviy bulut (Community cloud)* - ijtimoiy ahamiyatga ega muammolarni hal qilishga yo'naltirilgan. Bunday bulutni manfaatdor jamoat tashkiloti yoki tashqi provayder boshqarishi mumkin.

Bulutli texnologiyalarni joriy qilish tarmoq bozori yangi ishtirokchilari uchun tranzaksion kirish to'siqlarini sezilarli darajada kamaytiradi. Ular aynan bir xil vazifalarni hal qilishda bulutli ilovalarda protsessor vaqti, disk maydonini va o'tkazish hususiyatini sotib olish orqali kompyuter uskunalarni sotib olish va ularni ishlatish xarajatlaridan ozod bo'ladi. Bu hammasini boshidan mustaqil rivojlantirishga qaraganda ancha samarali hisoblanib, foydalanuvchilar ishlab chiqaruvchilarning tajribasi va bilimlari asosida ishlab chiqilgan tayyor yechimlarga ega bo'ladi.

Virtual tashkilot turli subektlar resurslarini vaqtincha birlashtirish hisobiga mahalliy boshqaruv-texnologik va axborot muhitini

shakllantirishni nazarda tutadi. Bunday tashkilotlar huquqiy rasmiylashtirilmagan doimiy idorasi va doimiy ishchilarga ega bo'lmashligi ham mumkin. Ular Internetda o'z-o'zidan, to'lov qobiliyatiga ega talab mavjudligida biron-bir masalani yechish uchun yaratilgan.

Virtual tashkilotlarni yaratish uchun boshlang'ich muhit odatda Internetdagi ochiq professional hamjamiyatlardan tashkil topadi. Bunday jamoalarning ishtirokchilari o'zlarining professional imkoniyatlari, qiziqishlari va ehtiyojlari to'g'risidagi axborotlarni joylashtiradi, mini-jamoalarni tashkil qiladi, ishchilarni yollaydi va iqtisodiy masalalarni yechish uchun birlashadi.

Bulutli texnologiyalar firmalararo xududlarni qilinishiga olib keladi. Bunday sharoitda kompaniya xodimlarining joylashuvi umuman ahamiyatga ega bo'lmaydi. Ular bir vaqtning o'zida qo'yilgan masalani sinxron echib borib, dunyoning turli burchaklarida bo'lishi mumkin. Xuddi, mijozlar joylashgan joyidan qat'i nazar, an'anaviy bozor tarmoqlaridan tashqarida butun dunyo bo'ylab virtual sotuvchilardan mahsulotlarni sotib olishlari mumkin bo'lganidagina.

Biznesni tashkil etishning bunday sxemasi paradoksal natijaga olib keldi: tarmoqdagi bozor infratuzilmasi o'z faoliyati bilan mashg'ul bo'ladi. Bu tashkilot endi ishlab chiqaruvchi va savdo vositachilariga bog'lanib qolmaydi. Aksincha, tarmoq vositachilari asta-sekin autsorserlarga aylanib boradi va ishlab chiqaruvchilar boshlang'ich sotish narxlaridan tashqari hech qanday jarayonni nazorat qila olmaydi.

Tezkor muloqot va katta axborotlarni jo'natish sharoitida biznes-jarayonlar endi rasmiy doira bilan cheklanib qolmaydi va umuman vertikal tuzilishga ega bo'lmashligi mumkin. Holbuki ishlab chiqarish jarayonlari muayyan ishlab chiqarishga bog'lanib qolmaydi virtual tashkilot xodimlarining soni qo'yilgan masalaga bog'liq holda o'zgarib turadi.

Natijada, bulutli texnologiyalardan foydalanishga asoslangan, virtual tashkilot bozor o'zgarishlariga tezda moslashadi. K. Kelli shunday deb yozadi: "Tarmoq iqtisodiyotida firmaning asosiy maqsadi firmaning qiymatini maksimallashtirish emas, balki korporativ tarmoqni maksimallashtirishdir". Bu yerda - bozor signallariga reaksiya berish tezligi, olingan buyurtmani tezda qabul qilish va samarali bajarish qobiliyati birinchi o'ringa chiqadi

Bulutli texnologiyalar tufayli makroiqtisodiy “to’liq bandlik” va “doimiy bandlik” tushunchalardan yangi miqroiqtisodiy “loyihaviy bandlik” ga o’tish boshlandi. Professional tarmoqlarda internet-yollashdan foydalanish biznesni tashkil etish tamoyillarini tubdan o’zgartirib yuboradi. 2000 yillarning boshlarida paydo bo’lgan professional jamoalar tezda zamonaviy tarmoq iqtisodiyoti uchun global mehnat bozoriga aylandi.

Bunga misol qilib Frantsiyada 2004 yilda 20 ta ishqibozlar tomonidan yaratilgan ViaDeo ijtimoiy tarmog’ini keltirish mumkin. Bugungi kunda Viadeo Group 400 ta xodimdan iborat 12 ta global ofisga ega, tarmoqning foydalanuvchilar bazasi esa 226 mamlakatdagi 45 million kishini o’z ichiga oladi. Rossiyada (Professional.ru), AQSh (Elance), Xitoy (Tianji), Hindistonda (ApnaCircle), Janubiy Amerikada (UNYK) va boshqa ko’plab mamlakatlarda shunga o’xshash tarmoqlar mavjud.

Virtual tashkilotlarda tajribadan o’tgan masofadan bandlik mehnat unumdorligini sezilarli darajada oshiradi ish beruvchiga ham, ishchilarga ham turli xarajatlarni kamaytirishga imkon beradi. Ko’rsatib o’tilgan jarayon allaqachon amalga oshirilmoqda va bu na yirik korporatsiyaga va na yetakchi iqtisodiyotga bog’liq emas. Masalan, 2005 yilda Avstraliyada yirik kompaniyalarning 29 foizdan ortiq xodimi ish joyidan o’zoqda ishlagan, AQShda esa bu ko’rsatkich 34 foizni tashkil etgan. O’zbekistonda bunday statistika hozircha rasmiy ravishda yuritilmaydi. Biroq, masofaviy bandlikning tez sur’atlar bilan rivojlanib borayotgan infratuzilmasiga ko’ra bu sohaning rivojlanishi butun jahon tendentsiyalaridan orqada qolib ketmaydi.

Bulutli texnologiyalarga tayanib, tarmoq iqtisodiyoti xodimlar va xodimlarni boshqarish jarayonlarini soddalashtirgan holda ish beruvchi talablarini birlashtirib unifikatsiya qilishga imkon beradi. Aslida, bulutli texnologiyalar ishchi va ish beruvchi ierarxik munosabatlarini ixtiyorlikka asoslangan teng huquqli sub’ektlarning virtual hamkorligiga aylantirdi.

Virtual muhitning institutsional ahamiyatini baholash qiyin. Bulutli texnologiyalar nafaqat korporativ boshqaruv vositalaridan biriga aylanibgina qolmaydi. Ular iqtisodiy faoliyat uchun mutlaqo yangi muhitni yaratdi, turli axborot taqsimlashning boshqa harakat qiladigan qonunlari va kommunikatsiyalarni mutlaqo, yuqori samaradorligi mavjud.

Institutsional transformatsiya istiqbollari. Tarmoq iqtisodiyoti iqtisodiy munosabatlarning yangi shakli sifatida institutsional jarayonlarning chuqur o'zgarishiga olib keldi. axborot oqimlarini optimallashtirilishi va tranzaksion xarajatlarni keskin kamaytirilishini bu hodisaning sabab bo'ldi. Tarmoq iqtisodiyoti hali yakuniy ko'rinishda shakllantirilmagan bo'lsa ham, iqtisodiy tendentsiyalarga katta ta'sir ko'rsatmoqda.

Bularning barchasi tarmoq iqtisodiyotini yangi iqtisodiy siklning nafaqat asosiy omili, balki, jahon iqtisodiyotining institutsional tuzilishini tubdan isloh qilish uchun sabab bo'ladi. Ko'pgina mualliflar tarmoq texnologiyalarining rivojlanishini "tarixdan sanoat inqilobidan kam bo'lmagan ahamiyattga ega burilish davri" deb ta'riflashlari bejiz emas.

Tarmoq iqtisodiyoti, undan oldingi "yangi iqtisodiyot"dan farqli o'laroq, yangi ishtirokchilar, o'ziga xos (tizimli) institutsional muhitni faol ravishda shakllantirib mavjud institutlar doirasidan chiqib ketdi. Bu yerda tarmoqdan tashqari bozor ishtirokchilarini mustasno qilganda hozircha yutquzuvchilar yo'q. Har bir inson yangi faoliyat sohasini rivojlantirishdan yutadi.

O'zbekiston tarmoq iqtisodiyotini institutsional rivojlantirish ustuvorliklarining noaniqligi asosiy muammolardan biri bo'lib qolmoqda. "Global AT-ekotizimni" shakllantirish uchun metodologiya va strategiyani ishlab chiqish, uning rivojlanish yo'nalishlari va mexanizmlarini aniqlash zarur bo'ladi. Bu etib olishiga yo'naltirilgan rivojlantirish to'g'risida emas, balki barcha ishtirokchilar hali ham teng sharoitda bo'lgan sohada yangi muvaffaqiyatga erishish to'g'risida fikr yuritilishi zarur.

iqtisodiy sharoit yuzaga kelganda bozor sub'ektlari hech qanday kelishuvsiz, qonuniy majburlashsiz va hatto jamoat manfaatlarini hisobga olmasdan o'z-o'zini tashkil qildi.

Joriy etish bosqichida elektron tijorat tadbirkorlik darajasida jadal rivojlanadi. Elektron tijoratda hukmronlik qilayotgan kichik biznes sub'ektlari tartibga solish doirasidan tashqarida faoliyat olib boradi, davlat arbitraj xizmatiga murojaat qilmaydi, o'z faoliyatini rasman ro'yxatdan o'tkazmaydi va soliq to'lamaydi.

2-bosqich: O'sish. Iqtisodiy faoliyatning yangi usullari muntazam foydalaniladi. Ya'ni, tijorat faoliyatini yukori samaradorligini ta'minlovchi umum kabul kilingan xatti-harakatlar algoritmlariga transformatsiya kilinadi. Elektron tijoratga nisbatan faqat unga xos bo'lgan hatti-harakat, huquq va me'yorlarga ega virtual bozorni shakllantirishni anglatadi. Elektron tijoratni instituellashning ikkinchi bosqichida iqtisodiy munosabatlarning yangi shakli eski institutlarni sezilarli ravishda siqib chiqaradi. Davlat o'zgarayotgan institusional reallikka e'tibor bera olmay qoladi va asta-sekin uni me'yoriy tartibga solishga bo'layotgan talabdan ogoh bo'lib bora boshlaydi. Bugungi kunda O'zbekitonda elektron tijorat institusional sikl rivojlanishning ikkinchi bosqichida rivojlanmoqda. O'zbekiston Respublikasida elektron tijorat to'g'risida" gi qonun 2004-yilda qabul qilingan.

3-bosqich: Yetuklik. Elektron tijorat bozorida iqtisodiy sub'ektlarining asta-sekin bozorni egallab oladigan va monopollashtiradigan yiriklashuvi hamda ixtisoslashuvi kuzatiladi. Tashabbuskor entuziastlar vaqti tugaydi va o'z o'rnini professionallarga bo'shatib beradi. Shu bilan bir vaqtda, iqtisodiy faoliyat eskirgan shakllarining ahamiyati tushib ketadi: raqobatbardosh sohalar ularni yutib yuboradi, transformatsiya qilinadi yoki shunchaki bozorni tark etadi.

Iqtisodiy munosabatlar yangi shaklining institusional ahamiyati va ularni xuquqiy institusionallashtirish davlat darajasida tan olinadi. Davlat yangi sohadagi faoliyatida asosan xuquqiy me'yorlarni ishlab chiqadi va ularga rioya etilmasligida sanksiyalar kiritadi. Institutsionallashtirish jarayonlari xuquqiy asoslashga o'tadi.

Hozirgi kunda O'zbekitonda to'laqonli elektron tijorat davlat statistikasi yuritilmaydi. Vaziyatni o'zgartirish uchun nafaqat davlat hisoboti

shakllari (soliq, statistik va boshqalar), balki makroiqtisodiy ma'lumotlarni qayta ishlash usullarini ham tubdan o'zgartirish zarur bo'ladi.

4-bosqich: Pasayish. Bozorda keyingi iqtisodiy siklida iqtisodiy munosabatlarning an'anaviy institusional doiraga to'g'ri kelmaydigan yangi ko'rinishlari shakllanadi. An'anaviy iqtisodiyot sub'ektlarining samaradorligi pasayadi va mahsulotlarni harakatlantirish usullari eskiradi. Eskirib qolgan iqtisodiy munosabatlar o'rniga yangi munosabatlar shakllanadi.

Elektron tijorat ta'siri ostida yuzaga keladigan iqtisodiyotdagi tarkibiy o'zgarishlarni o'z vaqtida aniqlash, tahlil qilish va tasniflash juda muhim hisoblanadi. Bu istiqbolda alohida iqtisodiy sub'ektlar darajasida, ham davlat boshqaruv darajasida ham muhim bo'lgan iqtisodiy o'sishning strategiyalarini ishlab chiqish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Tarmoq iqtisodiyoti davrida bunday turdagi axborotlar nafaqat institusional rivojlanish yo'nalishini, balki uning raqobat bardoshligini ham belgilab beradi.

Nazorat uchun savollar:

1. O'zbekiston Respublikasida elektron tijoratni rivojlantirish uchun qanday asosiy qaysi qonunlar qabul qilingan?
2. O'zbekiston Respublikasida elektron tijoratdagi munosabatlar qaysi qonun asosida boshqariladi?
3. O'zbekistonda elektron tijoratning to'laqonli bozorini yaratishda qandaymuammo va kamchiliklar mavjud?
4. O'zbekistonda elektron tijoratni amalga oshirish qoidalariga qanday asosiy tushunchalar kiritilgan?
5. O'zbekistonda elektron tijorat sohasining yangi rivojlanish bosqichiga o'tilishida qaysi huquqiy hujjatga asoslanadi?
6. 2015- yilgacha amalda bo'lgan "Elektron tijorat to'g'risida"gi qonunni tahrirlangan qonun bilan solishtirma tahlil qilib qanday holatlarni ajratib ko'rsatish mumkin?
7. O'zbekistonda elektron tijoratning qanday asosiy tamoyillari belgilab berilgan?
8. O'zbekistonda elektron tijorat sohasida davlat siyosatining qanday asosiy yo'nalishlari ko'rsatib berilgan?

9. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Loyiha boshqaruvi milliy agentligi elektron tijorat sohasida anday vakolatlarga ega?

10. O'zbekiston Respublikasida elektron tijoratda shartnoma tuzish tartibi qanday amalga oshiriladi?

11. O'zbekiston Respublikasida elektron tijorat tizimlaridan foydalanish darajasining pastligiga qanday sabablar ta'sir etadi?

12. O'zbekiston Respublikasida elektron tijoratni rivojlantirish va uning imkoniyatlaridan yetarlicha samarali foydalanish uchun qanday tavsiyalar berish mumkin?

O'zbekiston Respublikasi elektron tijorat sub'ektlari milliy reestri qachon va nima uchun tashkil etildi?

13. Elektron tijorat milliy reestrining asosiy vazifasi nimalardan iborat?

14. Reestrga a'zo bo'lish bir nechta bosqichdan iborat?

15. Mazkur yo'nalishda ba'zi bir davlatlarda qanday ishlar amalga oshirilgan ishlar?

Elektron tijoratni huquqiy jihatdan rivojlanib borishini nechta bosqichga ajratish mumkin?

7-BOB. ELEKTRON TIJORATDA KRAUDSORSING VA KRAUDFANDING PLATFORMALARI

7.1. Elektron tijorat platformalari

Elektron tranzaksiyalar kompaniyaga nafaqat iste'molchi va yetkazib beruvchilar bilan samarali munosabatlarni o'rnatish, balki xarajatlarni kamaytirish imkonini ham beradi".

E-commerce turli ko'lam va hajmdagi firmalarga savdo bilan shug'ullanish imkonini beradi va elektron peshtaxta har qanday tadbirkorga dunyoning istalgan burchagidan xaridorlarni jalb qilish imkonini taqdim etadi. Onlayn-biznes amaliy jihatdan ahamiyatli moddiy xarajatlarni talab qilmaydigan yangi "virtual" savdo kanali tarmog'ini yaratadi.

Elektron tijorat turli mamlakatlarda (rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarda) chakana sektordagi an'anaviy biznes sxemalarini tubdan o'zgartirgan holda istiqbolda savdo o'sishining asosiy harakatlantiruvchi omillardan biri bo'lib qoladi.

Marketer tadqiqotlar kompaniyasi ma'lumotlariga ko'ra, elektron tijoratning global yillik o'sish sur'ati 17 foiz dan ortiq bo'lib, elektron tijorat umumiy chakana savdoning tahminan 6 foizini tashkil qiladi. Elektron tijorat bozorining rivojlanish darajasi bo'yicha yetakchi mamlakatlar orasida buyuk Britaniya va AQSh 10-12 foizli e-tijorat ulush bilan ajralib turadi. So'nggi ikki yil ichida elektron tijorat bozori AQShda 25 foizga va evro hududda 30 foizga oshgan.

Elektron tijoratning Mobil tijorat, kraudsorsing, kraudfanding, virtuallashtirish, "nozik mijoz", bulutli texnologiya va shu kabi boshqa texnologiyalar (jadvalga qarang) bugungi kunda faol rivojlanmoqda.

Mobil tijorat

Texnologik taraqqiyot asrida ko'pchilik onlayn-tranzaksiyalarning afzalliklaridan foydalaniladi. Elektron tijorat Internet orqali xizmat va mahsulotlarni buyurtma qilish, sotish va ayirboshlash imkonini beradi. Mobil tijorat ham smartfon va planshetlar kabi mobil qurilmalardan foydalangan holda aynan shunga o'xshash jarayonlarni amalga oshirish imkonini beradi.

7.1-jadval.
Elektron tijorat texnologiyalarining asosiy xususiyatlari

Elektron tijorat texnologiyasi	Yangi xizmatlarni paydo bo'lishi va yangi bozorlarni shakllanishi	Biznes-modellar transformatsiyasi	
		Biznes uchun imkoniyatlar	Infratuzilma xarajatlari
Mobilnaya tijorat (m-commerce)	Messenjer, mobil ilovalar, mobil reklama uchun yangi bozorlarni shakllanishi	Mobil qurilma orqali iste'molchi bilan tezkor aloqa o'rnatish xususiyati. Mobil qurilmalar bozorining o'sishi: smartfonlar, planshetlar va boshqalar.	Internetni-vakolatxonaning mobil versiyasini yaratish uchun xarajatlar.
Kraudsing (Crowdsourcing)	Kraudsorsing platformalarini ijaraga berish bo'yicha xizmatlar va kraudsoorsing loyihalari qo'llab-quvvatlash xizmatlari uchun yangi bozorni shakllantirish.	Jamoa intellektidan foydalanish orqali sinergetik effekt olish. Innovatsion g'oyalarni samarali yaratish. Xarajatlarni kamaytirish. Innovatsion loyihalarga jamoatchilik e'tiborini jalb qilish. Bozorga mahsulot va xizmatlarni targ'ib qilish.	Kraudsorsing platformasi uchun xarajatlar (xususiy infratuzilmani yaratishda). Tashqi manbalarni ijaraga olish xarajatlari.
Kraudfanding (Crowdfunding)	Formirovanie novogo rinka uslug po predostavleniyu kraudfandingovix platform v arendu i uslug po sprovojdenu kraudfandingovix proektov. Kraudfanding platformalarni ijara berish va kraudfanding loyihalari qo'llab-quvvatlash uchun xizmatlarni taqdim etish bo'yicha yangi bozorni shakllantirilishi.	Investitsiya loyihalariga pul mablag'larini jalb qilish. Ixtiyoriy xayriya mablag'larini yig'ish. Innovatsion loyihalarga jamoatchilik e'tiborini jalb qilish.	Kraudfanding platformasi uchun xarajatlar (xususiy infratuzilmani yaratishda) Tashqi resurslarni ijaraga olish uchun xarajatlar.

Mobil tijorat mobil qurilmalar uchun moslashtirilgan elektron tijorat bo'lib, mobil qurilmalar ilovalar yoki ular uchun optimallashtirilgan saytlardan foydalanishi mumkin. Mobil tijoratning yanada keng ta'rifi ham mavjud bo'lib, mobil Internet va ilovalar orqali mobil to'lovlar, pul o'tkazmalari, mobil banking, moliyaviy servislar olish va xarid qilishlarni o'z ichiga oladi.

Ko'pgina internet-do'konlar elektron tijorat va mobil tijoratni farqiga bormaydi va ularga bir hil jarayon deb qaraydi. Aksincha bu ikki turli yo'nalish ekanligini farqlay olish ahamiyatiga ega hisoblanadi va ularning har biri maxsus strategiyani talab qiladi. Agar mobil to'lov yechimlari barcha turdagi mobil qurilmalarga xizmat ko'rsatish uchun moslashtirilsa, internet-savdodagi konversiya ahamiyatli darajada o'sishi mumkin. Elektron tijoratdagi faoliyat tranzaksiya bosqichida juda bo'lmaganda eng kamida bir marta web-dan foydalanadi. Elektron tijorat saytlari internet-shopping uchun foydalaniladi, onlayn-market, B2B sotish va sotib olish uchun platformalar taklif qiladi.

Mobil tijoratda xaridlar mobil qurilmalar orqali amalga oshiriladi. Bugungi kunda tranzaksiyalar uchun mobilni tijorat dasturiy ta'minot, elektron kitoblar, dorixona va banklarda, oziq-ovqat va ichimliklar, sayohat va shu kabilarda to'lovni amalga oshirish uchun fodalaniadi.

M-commerce yoki mobil tijorat internetda smartfon, kompyuterli, planshet yoki global web-saytga ulanish imkoniyati mavjud bo'lgan elektron kitob kabi mobil qurilmalar yordamida mahsulot va xizmatlar uchun to'lovni amalga oshirish jarayonidir. M-tijorat internet-do'kondagi oddiy mahsulot sotib olishdan farq qiladi. Mutlaqo alohida tushunchalar bo'lgani uchun ularga o'rganishdagi yondashuvlar ham farqli bo'lishi kerak.

Mobil tijorat (mobile commerce, M-commerce) ustuvor holda simsiz aloqa o'rnatish orqali noutbuklar, mobil telefonlar, PDAs kabi mobil qurilmalardan foydalangan holda elektron tranzaksiyalarni (moliyaviy, axborot) amalga oshirishdir.

Elektron va mobil tijorat o'rtasidagi asosiy farqlar

1. Elektron tijorat - Internetdagi biznes-faollik. Agar har qanday tijorat tranzaksiyalari mobil qurilmalar orqali amalga oshirilsa, bu endi mobil tijorat hisoblanadi.

2. Mobil tijorat dastlab elektron tijorat modeli asosida ishlab chiqilganligi sababli, mobil tijoratni elektron tijoratning bir qismi deb aytish mumkin.

3. Elektron tijorat tushunchasini mobil tijorat tushunchasiga nisbatan boshlang'ich tushuncha hisoblanadi.

4. Mobil tijorat ichidagi o'zaro bog'liqlik elektron tijoratga qaraganda ancha yuqori.

5. Elektron tijoratda faoliyat noutbuk va kompyuterlar yordamida amalga oshiriladi. Mobil tijoratda smartfon, planshet, aypod va boshqa shu kabilardan foydalaniladi.

6. Mobil tijoratda foydalaniladigan qurilmalar engil va ularni ko'tarib yurish qulay, elektron tijorat uchun esa bu mumkin emas.

7. Elektron tijorat holatida Internetdan foydalanish majburiy mobil tijorat uchun esa shart emas.

Mobil tijoratning asosiy xususiyatlari

Mobil savdoni samaradorligini oshirish yo'llari. Tez yuklab olinadigan web-sahifalar orqali ko'proq savdo qilishi mumkin, chunki iste'molchilar sabrsiz bo'lishi va darhol qoniqish talab qilishi mumkin. Mobil kassalar xaridorlarga qo'lda kiritishni istisno qiladigan mobil hamyonlar yordamida to'lov ma'lumotlarini osongina kiritish imkonini berishi zarur, bu holat inson tomonidan kiritilishi mumkin bo'lgan xatoliklar sonini qisqartiradi va buyurtma berish jarayonini osonlashtiradi.

Mobil savdo uchun video va marketing. Mahsulotning asosiy xususiyatlarini namoyish qilish uchun videolardan foydalanadigan mobil ilovalar ko'proq daromad keltirishi mumkin. Misol uchun, valyuta ayirboshlash onlayn-broker yangi mobil savdo uchun ilovalarni namoyish qiluvchi videolarga havolalar yuborish orqali ko'proq mijozlarni jalb qilishi mumkin.

Mobil Internet va mobil ilovalar. Iste'molchilar odatda internet maxsulotni izlash uchun Google aksiyalari va yoki ijtimoiy tarmoqlardan keng foydalanadi. Bundan, brauzerlar mobil ilovalarga nisbatan ko'proq tranzaksiyalarni amalga oshirishi kelib chiqadi. Shu sabali iste'molchilar xarid qilishni yanada qulayroq qilish uchun ko'pincha mobil web-sayti mobil ilovalardan foydalanishni afzal ko'radi.

M-commerce mahsulot toifalari

Mobil qurilma ishlab chiqaruvchilari raqamli transformatsiyani rivojlanish munosabatlariga katta ahamiyat bermoqda. Mobil qurilmalar kompyuterlar (743 million) va noutbuklarni (789 million) birgalikda olganda ham ulardan besh barobar ko'p. 2014 yil may oyida dunyoda 7 milliard mobil qurilma ishlab chiqarildi, bulardan 5,2 milliard mobil telefon; 1,6 milliard smartfon; 439 milliontasi planshet.

Foydalanuvchilar asosan telefon, smartfon, ko'chma planshet va shu kabi mobil qurilmalar orqali internetga kiradi.

Messenjer, mobil ilova, mobil reklama kabi yangi bozorlar faol shakllanib bormoqda. Kompaniyalar istiqbol raqobatdoshligi uchun web-saytining mobil versiyasini ishlab chiqish va hatto o'z mobil ilovalarini yaratish zarurligini tushunib yetdi. Zamonaviy kompaniyalar har doim qo'l ostida bo'lgan mobil qurilma orqali iste'molchi bilan tezkor aloqa qilish imkoniyatini to'g'ri baholay oldi. Bugungi kunga kelib, web-saytining mobil versiyasi bo'lmagan kompaniyalarda o'z iste'molchilarni yo'qotish xavfi o'sib bormoqda.

Mobil tijoratda moddiy bo'lmagan mahsulot va xizmatlar segmentida quyidagi toifalar ajratib ko'rsatiladi:

1. Uyali aloqa xizmatlari;
2. Avia va temir yo'l chiptalari, shuningdek, ko'ngilochar tadbirlar uchun chiptalar;
3. Telekommunikatsiya xizmatlari (uyali aloqadan tashqari), shu jumladan internet-provayderlar va turg'un aloqa operatorlari, pullik tele ko'rsatuvlar xizmati
4. Uy-joy kommunal xizmatlari, yo'l harakati qoida buzarlilari uchun tayinlangan jarimalarni to'lash, sug'urta mahsulotlarini sotib olish hisob-kitoblar va turli jarimalar to'lovini amalga oshiradi;
5. Mobil audio kontent, mobil video kontent, mobil o'yinlar hamda ilovalar va shu kabi boshqa mobil kontentni o'z ichiga olgan raqamli mobil kontenti;
6. Mehmonxona xizmatlari;
7. Elektron kitoblar, video kontent, audio kontent, dasturiy ta'minotni o'z ichiga olgan raqamli kontent (mobil kontentdan tashqari).

7.2. Mobil tijoratning afzallik va kamchiliklari

Mobil tijorat quyidagi afzalliklarni o'z ichiga oladi:

1. Oson kirish orqali mijozlarni ushlab turish.
2. Narxlarni taqqoslash, izohlarni o'qish va kompyuter ish stolidan foydalanmasdan xarid qilishda xaridorlar uchun katta qulayliklar.
3. Tovar va xizmatlarning keng tanlovi;
4. Mijozlar bilan aloqa va savdo nuqtalarini avtomatlashtiradi.

Mobil tijorat quyidagi kamchiliklarni o'z ichiga oladi:

1. Qoniqarsiz rasmiylashtirilgan mobil interfeys mijozlarni xarid qilishdan ikkilantiradi;
2. Mobil to'lov imkoniyatlari barcha hududlarda mavjud emas va raqamli hamyonlarning barcha turlarini qo'llab-quvvatlamasligi mumkin.
3. Kompaniyalar mahsulotlar jo'natiladigan barcha mamlakatlarning soliq qonuni va qoidalarini bilishlari ularga rioya qilishlari kerak (ba'zi kompaniyalar faqat o'z mamlakatidagina savdo qilish va yetkazib berishga ruxsat beradi).

Mobil tijoratdan foydalanish statistikasi


Ko'plab mobil qurilmalar orqali elektron tijorat platformalaridan foydalanadigan insonlar soni kun sayin ortib bormoqda. Mobil tijoratning ahamiyati ham mos ravishda oshib bormoqda. Misol uchun, mobil tijorat uchun 2015-yilda 11 million dollardan ortiq mablag' sarflangan. Hozir bu AQShdagi barcha elektron savdoning deyarli 30 foizini tashkil qiladi. Mobil tijoratning rivojlantirilish bilan elektron tijorat o'zining eng yuqori cho'qqisiga chiqdi, chunki u mobillik, qulaylik va o'zaro bog'liqlik darajasini oshirdi. Endi ulanish uchun joy izlashga hojat yo'q, mobil tijoratning muvaffaqiyatga erishish simsiz tarmoqlar, SMS, Blyutuz va shu kabilardan foydalanishga asoslanadi. Chiptalarni mobil bron qilish, pul o'tkazmalari, mobil banking va shu kabilar uchun foydalanishadi. Bundan tashqari, savdo uchun mobil ilovalardan foydalanish keng rivojlanib bormoqda.

Ko'proq mijozlarga erishish va foyda olish uchun biznesni mobil platformaga ko'chirish mantiqan to'g'ri bo'ladi.

Bugungi kunda mobil tijorat juda tez sur'atlar bilan rivojlanmoqda, jamiyat allaqachon 8 messenjerda spam muammosiga duch kelmoqda va bu tabiiydir, chunki mesmenjerlar tezlashib bormoqda va mobil reklamanig tobora ommalashuv ko'lami kengaymoqda. Xitoyning

mashhur QQ messenjeri oyiga 843 million foydalanuvchiga, WhatsApp 800 million foydalanuvchiga, Wechat — 600 million foydalanuvchiga, Yaponiya LINE messenjeri— 340 million foydalanuvchiga ega. Ijtimoiy tarmoqlar mobil tijoratning barcha imkoniyatlariga e'tibor qaratadi va Internet-savdoning 3 biznes-modeli texnologiyasini yaratishga kirishdi.

AQShda mobil tijorat bilan bog'liq onlayn xarajatlar so'nggi bir necha yil davomida barqaror ravishda o'sib bormoqda. 2022 yilda mobil qurilmalar orqali tranzaksiyalarning umumiy daromadi 423,24 million dollar bo'lishi kutilmoqda(10.1-rasm). Ko'proq chakana sotuvchilarni mobil telefonlardan joy olish uchun kurash olib borilishini ijobiy tendentsiya sifatida qarash mumkin.



Details: United States; eMarketer; 2018

Vaqt o'tishi bilan kontentni simsiz qurilmalar orqali yetkazib berish tezroq, xavfsiz va ko'lamlanuvchan bo'lib boradi. 2017 yil holatiga ko'ra, mobil tijoratdan foydalanish elektron tijorat savdosining 34,5 foizini tashkil etdi. Mobil tijoratga jalb qilinishi mumkin bo'lgan sohalarga quyidagilarni kiritish mumkin:

1. Moliyaviy xizmatlar, shu jumladan mobil banking (mijozlar o'z hisoblariga kirish va hisob-kitoblarni to'lash uchun ko'chma qurilmalaridan foydalanganlarida), shuningdek, qimmatli qog'ozlar kotirovkasini aks ettirishi mumkin bo'lgan brokerlik xizmatlari, savdo esa aynan bitta ko'chma qurilmadan amalga oshiriladi.

2. Xizmatlar o'zgaradigan telekommunikatsiya, to'lovlarni amalga oshirish va barcha hisob kitob ro'yxati tekshiruvlari aynan bitta ko'chma qurilmadan amalga oshirilishi mumkin.

3. Xizmat va chakana savdo, iste'molchilarga tezda buyurtma berish va to'lovni yo'l-yo'lakay amalga oshirish imkoniyati beriladi.

4. Bitta mobil qurilma orqali moliyaviy yangiliklar, sport ma'lumotlarni yetkazib berish va trafikni yangilashni o'z ichiga olgan axborot xizmatlari.

7.3. Kraudsorsingning mohiyati va asosiy tushunchalari

“Kraudsorsing” atamasi birinchi marta 2006 yilda paydo bo'ldi va Weir jurnalining sahifalarida Djeff Xau tomonidan ishlatilgan. Kraudsorsing iste'molchilar bilan hamkorlik qilishning bir shakli bo'lib, individual va jamoaviy iste'mol salohiyati kompaniya tomonidan strategik marketing maqsadlarga erishish uchun foydalaniladi. Bundan tashqari, biznesda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan muammolarni hal qilish uchun ko'plab insonlardan foydalanish.

Kraudsorsingning asosiy g'oyasi - kompaniya xarajatlarini kamaytirish va yangi g'oyalarni olishdan iborat. Bunday holda, muloqot deyarli tarmoq orqali amalga oshiriladi.

Internet bugungi kunda tobora ommalashib borayotgan axborot manbai va kommunikatsiya tarmog'iga aylanmoqda. An'anaviy ommaviy axborot vositalarining maqsadli auditoriyasining bir qismi asta-sekin Internet makoniga o'tayotganligi bois OAV ham o'zlarining Internet versiyalarini yarata boshladi. Bundan tashqari, virtual makon turli siyosiy va jamoat tashkilotlari tomonidan faol ravishda qo'llanila boshlandi. Internetda yangi makon virtual makon paydo bo'ldi. Bu makonda foydalanuvchilar manfaatlarining umumiyliги asosida ijtimoiy tarmoqlar, bloglar va Internet hamjamiyatlar turli shakldagi birlashmalari yaratiladi.


Hozirgi kunda muayyan sinf vazifalarini bajarish uchun kraudsorsing imkoniyatini taminlovchi o'nlab saytlar, dasturiy kompleks va mexanizmlar yaratilgan. Kraudsorsing platformalaridan ba'zilari mustaqil, boshqalari esa taniqli brendlar tomonidan homiylik qilingan yoki yaratilgan.

7.3. Kraudsorsing

Kraudsorsing kompaniyasining asosiy g'oyasi shundaki, biron-bir loyihani amalga oshirishda ko'proq bilim va g'oyalarni insonlarning jamoaviy intellekti kiritishi mumkin. 2004 yilda jurnalist Jeyms

Shuroveskining “Olomonning donoligi” nomli kitobi chop etildi, unda to’g’ri belgilangan sharoitlarda biron bir muammo echishni izlashda ko’plab insonlarning umumiy bilimlaridan foydalanish bir nechta bilim va tajribani qo’llashdan ko’ra samaraliroq usul bo’lishi mumkinligi ta’kidlanadi. Ya’ni, hatto katta malakaga ega ekspert mutaxassisning imkoniyati ham minglab muhlislar imkoniyatiga qaraganda cheklangan bo’ladi.

Kraudsorsing sifatida belgilanishi mumkin bo’lgan uchta asosiy holat mavjud (10.1-rasm).



Kraudsorsing ishtirok etish usuliga bog’liq holda bir-biridan farq qiluvchi yondashuvlar guruhini ifoda etadi. Djeff Xau to’rtta asosiy kraudsorsing turini ajratib ko’rsatadi (10.2-rasm).


Kraudfanding kabi kraudsorsingni ham turli ko’rinishga ega ekanligi tufayli ko’plab kichik korxonalar shuningdek startaplar ham ko’ngillilar tomonidan moliyalashtirilishi mumkin. Begona insonlar yoki tashkilotlarning sa’yi-harakatlarini qo’llab-quvvatlashni istagan va bunday imkoniyatga ega foydalanuvchilarning jamoaviy hamkorligi natijasida pul mablag’i birlashadi.

Kraudsorsing bosqichlar

Kraudsorsingni mavjud bo’lishi uch bosqichdan iborat:

- birinchi bosqich bu masalani qo’yib olish va virtual foydalanuvchilarni yaratish yoki aniqlab olishni o’z ichiga olgan tizimga kirish.
- ikkinchi bosqich - g’oyalar ishlab chiqadigan va so’ngra bu g’oyalar ichidan eng yaxshi g’oyalarni tanlab olish uchun ishlov beriladigan bosqich.

uchinchi bosqichda - tizimdan chiqish hisoblanadi, keyinchalik foydalaniladigan yoki amalga oshiriladigan aniq bir yechim tanlanadi.



7.3-rasm. Kraudsorsingning asosiy turlari

7.4. Kraudsorsing faoliyati tamoyillari

Tadqiqotlarda kraudsorsing faoliyati davomida amalga oshirilishi zarur bo'lgan quyidagi tamoyillar ajratib ko'rsatiladi:

1. Bosqichma-bosqich rivojlanish tamoyili.
2. Sa'yi-harakatlarni asosiy vazifalarga jamlash tamoyili.
3. Ochiqlik va oshkoralik tamoyili.
4. Kirish mumkinlik tamoyili: individual sozlangan kommunikatsiyalardan foydalanish.
5. Interfaollik tamoyili: tashkilotchilar tomonidan tezda e'tibor qaratilishi.
6. Qiymatlarni yaratish jarayonida ishtirok etish va jalb qilinganlik tamoyili.
7. Iste'molchilarning xarajat va sa'yi-harakatlarini minimallashtirish tamoyili.
8. Kraudsorsing faoliyatida iste'molchiga tanlovli yordam tamoyili.
9. Qulay muhit tamoyili: iste'molchilarni bepul yoki kam mablag' evaziga ishlashni istab qolishi uchun uchun sharoitlar yaratish tamoyili.

10. Ishonch tamoyili: ishonchli munosabatlarining asosiy afzalligi izchil strategik hamkorlikni osonlashtirish, ochiq muloqot va axborot almashish orqali moddiy va moliyaviy daromadni oshirish.

11. Do'stona muloqot tamoyili.

12. Samaradorlik tamoyili.

O'z-o'zini ijodiy namayon qilish kraudsorsing loyihalari ishtirokchilari uchun asosiy afzalliklardan biri hisoblanadi. Odatda, bu turdagi loyihalar bilan shug'ullanadigan muhlislar masalalar yechimini taklif etish orqali faqat pul topish emas, balki uni amalga oshirish jarayonida ma'naviy qoniqish olishini o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi. Ehtimol, aynan shu tufayli notijorat loyihalar kraudsorsinga keng ko'lamli misol sifatida keltiriladi.

Raqobatli g'oyalarni himoya qilish, kraudsorsingni ishlash mexanizmining talqin qilishda tajribaning yetishmasligi, yechim va g'oyalar sifati ko'p hollarda motivatsiyaga bog'liqligi, kraudsorsing texnologiyasidan foydalanish har doim ham natija olish kafolatini bermasligi va shunga o'xshashlarni kraudsorsing texnologiyasidan foydalanishdagi asosiy kamchiliklar sifatida ajratib ko'rsatish mumkin

Kraudsorsing loyihalarini tashkil etishning asosiy muammolari oqilona takliflarni saralab olish jarayonidir. Bir necha o'n minglab foydalanuvchilar sirtqi miya hujumi jarayonida ishtirok etayotgan, axborot shovqini hisoblanadigan katta sondagi takliflar ichidan oqilona takliflarni ajratib olish murakkab jarayon hisoblanadi.

Ammo, barcha kamchiliklariga qaramay kraudsorsing texnologiyasi jahon amaliyotida turli sohalarda muvaffaqiyatli joriy etib kelinmoqda. Va kraudsorsing loyihalarida ishtirok etgan foydalanuvchilar tomonidan ishlab chiqariladigan "g'ala-g'ovur"ni masalalarni to'g'ri qo'yib olish va ularning bajarilishini to'g'ri tashkil qilish orqali to'g'ri yo'lga solib yuborish mumkin.

Kamchiliklarni bartaraf etish uchun yangi texnologiya va kraudslrning avlodlari ishlab chiqilmoqda. Bunga intellektual kraudsorsing texnologiyasi yaqqol misol bo'la oladi. Uning vazifasi ko'plab eng yaxshi g'oyalarni (va insonlarni) topishdir, oddiy kraudsorsing esa ko'plab g'oyalardan birini tanlashga intiladi. Bu, xususan, bunday turdagi loyihalardan foydalanuvchilar reytingi tizimini qo'llash shuningdek,


g'oyalar ko'rinishini o'zgartirish va tanlashning bir qator evolyutsion bosqichlardan o'tishiga imkon beruvchi maxsus usullar (g'oya tarafdorlari, raqiblari, ishtirokchilarning raqobatchi guruhlari va ekspertlar tomonidan bu g'oyani baholash) orqali amalga oshirilishi mumkin. Ijrochilar bilan ishlashning bunday usuli jamoalarning oshirishga imkon beradi va ayni damda esa munosib g'oyalarni tanlab olishda maqsadsiz takliflar bilan to'ldirilgan ortiqcha axborotlar hajmiga ishlov berish zaruriyatini bartaraf etadi

Dono olomon fenomeni

Dono olomon hodisasi kompaniyalar uchun o'rni kelganda qiyinchiliksiz rad etish mumkin bo'lgan o'ta jozibali istiqbollarni ochib beradi. Katta mablag' talab qiluvchi mutaxassislarni jalb qilish yoki marketing tadqiqotlarini amalga oshirish va yangiliklarni joriy etishdan ko'ra tarmoq foydalanuvchilariga yordam so'rab murojat etish yuqori darajada, kam xarajat hisoblanadi. Bundan tashqari, reklama uchun eng samarali va arzon vosita hisoblanib, taklif etilayotgan g'oya va yechimlarda xilma-xillik mavjud bo'ladi. Bundan tashqari, kraudsorsingdan foydalanadigan kompaniyalar o'z faoliyatida mijozlar istaklariga katta e'tibor qaratayotganligini asoslangan holda ta'kidlash mumkin. Shuni unutmash kerakki, kraudsorsing kontseptsiya sifatida rivojlanish bosqichida, shuning uchun uning barcha afzalliklaridan samarali foydalana oladigan kompaniya, shubhasiz, kelajakda yanada yuqori mavqega ega bo'lishi mumkin (10.3-rasm).

Iqtisodiy faoliyatda an'anaviy ishga yollashga nisbatan kraudsorsingning qanday afzalliklarga ega?

Axborot texnologiyalarini faol rivojlantirilishi va ko'plab turli kommunikatsiya vositalarining yaratilishi odatiy holga aylangan 21-asrda turli sohalarda g'oyalar taklif etadigan va ommaviy axborotlarni ishlab chiqaradigan insonlar doirasini doimiy ravishda kengaytirib borilishiga keng imkoniyatlar yaratiladi. Ya'ni, hozirgi rivojlanish bosqichida "olomon"ning donoligi deb nomlanadigan foydalanuvchilar va insonlar jamoasi, shuningdek, ommaviy global kommunikatsiya tarmog'i yangi va doimiy tarzda yangilanib boradigan axborotlar manbaasi bo'lib bormoqda.



7.4-rasm. Biznesda kraudsorsingni afzalliklari

“Olomon” resurslari natijasida paydo bo’lgan barcha zamonaviy texnologiya va imkoniyatlar tufayli kraudsorsing yangi usullari uzluksiz rivojlanib bormoqda. Dastlabki bosqichda iqtisodiyot sohalariga joriy etib borilgan bu texnologiyahozirgi kunda ijtimoiy hayotning barcha sohalarini qamrab olmoqda. Har qanday aloqa qilish tarmoqlari (Internet, mobil aloqa) orqali o’z xabarlarini yetkazib beradigan cheksiz sondagi insonlardan axborotlarni to’plash va ularni tizimlashtirish kraudsorsingning asosiy funksiyasi hisoblanadi. Kraudsorsingni qo’llanishi doirasi turlicha va uning markaziy funksiyasi muhtojlarga yordam berish va turli muammolarni hal etish uchun axborotdan to’g’ri foydalanish va tarqatishdan iborat.

Innovatsion kraudsorsing ekotizimining vazifalari

Har qanday inson ham kraudsorsingdan samarali foydalana olmasligi mumkin. Birinchi navbatda, bu texnologiyadan o’z muhlislariga ega va imkoniyat rusurslari yetarli darajada bo’lgan yirik brend va markalar foydalana oladi.

Mijozlarni jalb qilish va, albatta, halqaro mahsulot va xizmatlar bozorida raqobatdosh ustunliklarni oshirish va mijozlarni jalb qilish uchun kraudsorsing aktsiyalaridan foydalanadigan yirik tashkilot va startaplarning jahon tajribasini o’rganish dolzarb masala hisoblanadi. Misol sifatida, qaysidir manoda bu sohada birinchilardan hisoblanadigan

Chikagoning futbolka ishlab chiqaruvchi “Threadless” kompaniyasini keltirish mumkin.. Bugungi kunda mijozlar mahsulot ishlab chiqarishda faol ishtirok etishi mumkin bo’lgan holatlar yo’lga qo’yilgan. “Threadless” kompaniyasining o’ziga xos jihatlari shundaki, barcha futbolkalarning dizayni kampaniya ichida emas, balki saytga tashrif buyuruvchilarning takliflari orasidan konkurs asosida tanlab olinadi. Barcha yuborilgan dizaynlar saytning o’zida namoyish etib boriladi. Tashrif buyuruvchilar o’z tanlovi bo’yicha ovoz beradi, shundan so’ng, dastlab etarli darajadagi buyurtmalar portfeli shakllantirib olinadi va oying eng ommaviy futbolka-mahsulotni ishlab chiqarishga kirishiladi. Bu bo’lishi mumkin bo’lgan turli yo’qotish risklarini bartaraf etilishiga imkon beradi. G’olib pul mukofotini oladi va uning ismi ishlab chiqarilayotgan mahsulot yorlig’ida namoyish qilinadi.

Zamonaviy shaklga ega bo’lgan kraudsorsing korxonalar tomonidan nafaqat biznes muammolarini hal qilish yoki raqamli dizaynini ishlab chiqish, balki ilmiy-tadqiqot ishlari uchun ham qo’llaniladi. Inovatsiyalar uchun kraudsorsingdan foydalanish qisqa muddatda va tez unitiladigan jarayon emas. Ko’payib borayotgan kichik biznes vakillari o’z loyihalarini ishlab chiqishda va keyinchalik amalga oshirishda bu model xizmatlaridan keng ko’lamda foydalanishi mumkin. Kraudsorsing resurslarining mijozlari eksperimentlar olib borishda yangi imkoniyatlarga ega bo’ladi.

Mavjud innovatsion kraudsorsing ekotizimi odatiy bo’lmagan masalalarni echishda shakllanadi:

❖ InnoCentive - biznes, ijtimoiy, ilmiy va texnik sohalarda har kuni echilishi lozim bo’lgan eng murakkab masalalarning yechim va g’oyalari tanlovini amalga oshiradigan platforma hisoblanadi.

InnoCentivening noyob metodologiyasi yordamida har bir masala mutaxassislar hamkorligida kichik-kichik quyi masalalarga ajratib olinadi va har bir masala 300 mingta insondan tashkil topgan ijrochilar qo’shiniga baholash va yechimini topish uchun jo’natiladi. Bu masalaga qiziqayotgan va mukofotdan manfaatdor bo’lgan insonlar masalani echish uchun qabul qilib oladi va o’z yechimlarini baholash uchun buyurtmachiga taqdim etadi. Buyurtmachi o’z mukofotini oladigan va o’z navbatida intellektual mulkdan foydalanish huquqini o’ziga topshiradigan g’olibni aniqlaydi.

InnoCentive o'z mahsulotlarini targ'ib qiluvchi marketologlar uchun biznes g'oyalar tanlovidan tortib murakkab texnik yoki ilmiy masalalarga qadar bo'lgan keng ko'lamli masalalar doirasini qo'llab-quvvatlaydi.

❖ Kaggle statistik va tahliliy kraudsorsing doirasida innovatsion yechimdir. Bu biron-bir fakt yoki hodisalarni avvaldan bashorat qilish modellarini yaratish uchun musobaqalarni tashkil etish bo'yicha yetakchi platforma hisoblanadi. Xususi kompaniyalar, davlat muassalari, olimlar o'zlarining muammolarni shakllantiradi va ma'lumotlarini taqdim etgandan so'ng bir guruh ishqibozlar bu muammolarni yechishda eng yaxshi natijaga erishish uchun musobaqalashadi. Musobaqalashish natijasida g'olib aniqlanadi va yaratilgan modelning asosiga qo'yilgan intellektual mulk huquqi mukofot puli evaziga buyurtmachiga topshiriladi.

Kaggle dan foydalanish sabablari juda oddiy: aksariyat kompaniyalar o'z ma'lumotlaridan maksimal darajadagi foydali axborotlarni ajratib olishga yordam beradigan ilg'or statistik model va texnikadan foydalanish imkoniyati ega emas. Kaggle bu muammoni eng yaxshi tahlilchi va olimlarni mehnat resurslari sifatida taklif qilish orqali yechib beradi beradi. Kaggle kraudsorsing platformasining afzalligi shundaki, aslida har qanday muammoni hal qilish uchun son-sanoqsiz variantlar mavjud bo'ladi. Va hech kim bu variantlarni barchasini bir vaqtda sinab ko'rish qobiliyatiga ega emas. Bunday platforma birlashtirilgan katta sondagi mutaxassislar yordamida katta to'plamdagi muammolarni hal qilishning ko'plab usullarini taklif qila oladi. Buyurtmachi faqat o'zi ma'qul topgan yechimni tanlashi mumkin.

❖ TopCoder 460 mingdan ortiq dasturiy ta'minot ishlab chiquvchilar, tahlilchilar, dizaynerlar va shu kabilardan tashkil topgan jamiyat hisoblanadi. Jamiyat bilan ishlash konkurs asosida TopCoder platformasi orqali amalga oshiriladi, buning natijasida yuqori tezlikka erishiladi va ishlab chiqarish muddatlari qisqaradi. Loyihaning hajmi va o'ziga xos xususiyatlaridan (mobil ilovadan korporativ tizimga qadar) qat'iy nazar muayyan xodimlarni ishga yollash zaruriyatisiz va shartnoma tuzmasdan har qanday masalani echish mumkin.

Loyiha bilan ishlash mazmuni quyidagilardan iborat: TopCoder jamoasi tomonidan boshlang'ich masala alohida bajarilishi umumiy maqsadga erishish kafolatini beradigan juda ko'p sonli kichik quyi

masalalarga ajratiladi. Har bir kichik masalani echish uchun faqat eng optimal va samarali yechimlarni tanlab olishga yordam beradigan konkurs tashkil etiladi. Natijada, har bir tarkibiy element ustida tor yo'naltirishdagi mutaxassislar ishlaydi.

Mijozning faoliyatini soddalashtirish uchun TopCoder musobaqani boshlash va boshqarish texnik yo'nalishlari bilan shug'ullanadigan ikkinchi-menejer bilan ta'minlaydi, bu esa mijozni paydo bo'lishi mumkin bo'lgan ortiqcha tashvish va turli nosozliklardan halos qiladi. Buyurtmachi esa faqat harakat yo'nalishini to'g'ri belgilab olishi zarur bo'ladi Aynan shu harakatlanishdagi innovatsiya hisoblanadi.

7.5. Kraudsorsingni rivojlanish tendentsiyalari

Mavjud vaziyatni bir yil ichida sezilarli darajada o'pgartirib bo'lmaydi, ammo yangi mahsulot va xizmatlarning paydo bo'lishi tufayli kraudsorsing bozorida quyidagi rivojlanish tendentsiyalarini kuzatish mumkin:

1. Yuqori darajadagi modullashtirish tufayli ishlab chiqaruvchilari sonining ortishi.

Mahsulot, xizmat va biznes-jarayonlarni uzluksiz modullashtirish jarayoni bilan bog'liq holda bugungi kunda murakkab innovatsiya yoki dizaynerlik loyihalarini turli kraudsorsing ijrochilariga topshirilishi mumkin bo'lgan quyi masalalarga ajratish imkoniyati mavjud. Biroq, turli platformalardagi ijrochilar jamoasi o'z manfaat va qobiliyatlari bilan bir-biridan farq qilishi mumkin. Mavjud jamoalardagi zarur bo'lgan qobiliyati va bilimlari o'rtasidagi bo'shliqni to'ldirish uchun yaqin kelajakda muayyan muammolarga ixtisoslashgan yangi platformalar paydo bo'lish zaruriyati yuzaga kelmoqda.

2. Bandling g'oyasi bilan bog'liq yangi biznes modellarining paydo bo'lishi.

Kraudsorsing platforma operatorlari loyihalarni amalga oshirgandan so'ng olinadigan reklama yoki komissiyaga asoslangan holda turli monetizatsiya strategiyalarini kiritishlari mumkin. Biroq, vaqt o'tgan sayin ko'pgina kompaniyalar, an'anaviy B2B yoki B2C mahsulot va xizmatlar bilan bandling-kraudsorsing servisga aylanib bormoqda. Masalan, o'z dizayn g'oyalarini almashish yoki 3D modellar ishlanmalariga bag'ishlangan kraudsorsing konkurslarda ishtirok etishga

tayyor mahsulot ishlab chiquvchilar uchun kraudsorsing platformasi taqdim etilishi mumkin. Bandling servisi mijozlarga bu esa qo'shimcha daromad oqimini taminlash orqali. g'olbi chiqqan mahsulotlarning 3D versiyasini sotib olish imkonini beradi.

3. Asta-sekin "Kraudsorsing integratorlari"ning paydo bo'lishi. Muammo ustida ishlash yakuniga yetgach, ko'pchilik kraudsosing ijrochilar uchun mikrotopshiriqlarga ajratilgan masalalarni yaxlit holga keltirish zaruriyati paydo bo'ladi. Natijada loyiha integratori funksiyalarini amalga oshiradigan yangi kompaniyalarni paydo bo'la boshladi. Loyihani nomlanishi, logotipi, web-sayti, dizayn kontseptsiyasi va umuman yangi mahsulotlarni ishlab chiqarish bo'yicha quyi tizimlarga ajratuvchi bunday integrator-resursga yangi mahsulot haqidagi g'oyalarni yuborish mumkin bo'ladi. Har bir quyi masalalarni yig'ish va yechimlar kraudsorsingidan so'ng, integrator mijozga to'liq variantdagi maxsulotni taqdim etadi.

4. Provyayderlar tomonidan mobil ilovalarni asoslangan holda moslashtirilish. Ba'zi innovatsion kraudsorsing platformalari allaqachon homiylarga o'z tizimlarining mobil versiyalarini taklif qilmoqda. Biroq mobil va planshet ilovalaridan foydalanish asosiy kraudsorsing servislari bilan cheklanganicha qolmoqda. Ammo, bugungi kunda Internet foydalanuvchilarining katta qismi internet-navigatsiya va ishlash o'z uchun mobil telefonlaridan foydalanmoqda. Bu holat kraudsorsing servislari yetkazib beruvchilarga mobil makonni tezda egallab olinishiga undagan holda tasir ko'rsatadi

7.6. Kraudfanding

Globalashuvning hozirgi vaziyatdagi muammolarni echish uchun pul, axborot va bilim kabi jamoat resurslaridan foydalanish imkoniyatlarini, kengaytirish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Avvalgi mavzularda elektron (tarmoq, raqamli) iqtisodiyot va elektron biznes kabi tushunchalarini batafsil yoritdik. Tarmoq, boshqaruvning tarmoqli shakli (muvofiqlashtirish) tushunchalarini mohiyatini ko'rib chiqdik.

Insonlar uchun foydali bo'lgan axborotlarni saqlash va tarqatish boshqa insonlar erishgan yutuqlarini targ'ib qilish san'ati; mutaxassislarga birlashtiradigan va munosib rag'batlantirish tamoyiliga tayanadigan

jamiyat; o'zaro manfaatli munosabatlarni shakllantirish; insonlar bilan aloqa o'rnatish, networking, yani g'oyalarni resurslar bilan birlashtirish jarayonlarini ko'rib chiqdik.

Agar ijrochilarni tarmoq foydalanuvchilari orqali topilsa, unda asosiy shakllaridan biri kraudfanding bo'lgan kraud-texnologiyalardan foydalanish haqida gapirish qabul qilingan.

Kraud texnologiyalar hamkorlikdagi faoliyat uchun ko'plab insonlarni birlashtirish, kelishib olingan masalalarini bajarish uchun ularning resurslarini (moliyaviy vositalari, intellekti, bilimi, ko'nikmalari) maxsus platformada birlashtirishga asoslangan.

Mavzuni o'zlashtirish uchun ishlatilgan quyidagi tushunchalar ta'riflarini keltiramiz.

Kraud-texnologiyalar bu biron-bir masalani echish uchun ochiq tarmoq jamoasining sa'y-harakatlarini jalb qilishga asoslangan turli yo'nalishlar to'plami.

Kraudfanding (halq tomonidan moliyalashtirilishi, ingliz tilida. crowd funding, crowd - "funding", moliyalashtirish - "moliyalashtirish") - boshqa insonlar yoki tashkilotlarning (retsipietlar) sa'y-harakatlarini qo'llab-quvvatlash uchun odatda Internet orqali o'z pul yoki boshqa resurslarini ixtiyoriy ravishda birlashtirgan insonlarning (donorlarning) jamoaviy hamkorligi.

Kraudfanding bu halq tomonidan moliyalashtirish, insonlar pul to'laydigan va o'rniga boshqa biron narsa olishlari kerak bo'lgan jarayon. Insonlar qiziqarli fikrga ega bo'lgan muallifga pul beradi. Shuningdek muallif, insonlarga biror narsa taklif qiladi: mahsulot yoki xizmat. Insonlar aslida hali mavjud bo'lmagan narsalarni sotib oladi.

Kraudfanding biron-bir loyihani yaratish uchun ishtirok etish, birgalikda moliyalashtirish. Homiy o'zini qiziqtirayotgan loyihada faol ishtirok etadi, unga o'z mablag'larini kiritadi va bundan biron-bir foyda oladi.

Kraudfanding bu fandrayingni (jamoaviy moliyalashtirish) xususiy ko'rinish. Frandrayingdan asosiy farq shundaki, kraudfundingda homiy o'z qo'yilmalariga javoban mahsulot, xizmat yoki mukofotga o'xshash biron narsa oladi. Moliyalashtirish kraudfandingdagi katta jarayonning

faqat kichik bir qismi hisoblanadi. Eng asosiysi, mahsulotni bozorga olib chiqish hisoblanadi.

Kraudfanding biror g'oyani amalga oshirish uchun moliyalashtirishni jalb qilish tizimi. Muallif, loyihaga moliyaviy hissa qo'shgan homiyga biron-bir usulda minnatdorchiligini bildiradi. Kraudfanding moliyalashtirishni olishga va fikr yoki loyihaga auditoriya e'tiborini jalb qilish imkonini beradi.

Kraudfanding-muallif maxsus sayt orqali o'zining g'oyasi, nima qilishni istayotgani va bu g'oyani amalga oshirish uchun qancha pul kerakligini gapirib berishidir. Har bir istovchi muallifga kerakli deb hisoblagan pulni berishi mumkin. Har bir homiy muallifdan ma'lum bir mukofotni oladi. Belgilangan vaqt ichida ma'lum bir miqdordagi mablag' to'plansa muallif uni oladi, agarda belgilangan muddatda to'planmasa, pul barcha homiylarga qaytarib beriladi.

Kraudfanding aniq loyihani amalga oshirish uchun halq tomonidan mablag' to'planishi.

Kraudfanding shunchaki moliyalashtirish emas, balki insonlarning loyihaga aloqadorligidir. Bu tilanchilik emas, balki bu loyihani amalga oshirishga insonlarni jalb qilishdir.

Kraudfanding orqali pul yig'ish belgilangan maqsadga ega, unga erishish narxi aniqlangan, barcha xarajatlari hisoblab chiqilgan bo'lishi kerak va barcha xarajatlar tuzilishi hamda mablag'ni to'plash jarayoni jamoatchilik uchun shaffof bo'lishi kerak.

Kraudfanding ijtimoiy va jamoatchilik tashabbuslari loyihalarini, ko'p holda Internet orqali, loyihani ko'p sondagi insonlar qo'llab-quvvatlagan holda guruxli sarmoyalash g'oyasiga asoslangan moliyalashtirish modeli.

Kraudfanding – asosan Internet orqali, aniq maqsadga erishish bo'yicha tashabbusni qo'llab-quvvatlash uchun kelajakda mahsulotiga almashishga ehson shaklida yoki biron bir ko'rinishdagi mukofot evaziga moliyaviy resurslarni jalb qilish uchun ochiqdan-ochiq undovni ifoda etadi. Aksiyadorlik kraudfanding (kraudinestigni bir ko'rinishi turi) – investor kompaniya-tashkilotchining aktsiyalari yoki mulkchilik xuquqining bir qismini mukofot sifatida oladi

Kraudkasting - mavjud innovatsion muammolarni hal qilaish xususiyatiga ega insonlar va tashkilotlarni izlashdir.

Kraudinvesting – (biznesdagi ulushni berish) - kraudfandingni bu ko'rinishi biznesning bir qismi loyihani rivojlantirishga investitsiya kiritgan insonlar yoki tashkilotlarga rasmiylashtirilishini ifoda etadi.

Kraudstorming - iste'molchilari orasidan, mahsulotning sifatini yaxshilash mumkin bo'lgan takliflar izlashni amalga oshiradi.

Shunday qilib, kraudfanding bu shaxs yoki tashkilot startap uchun investorlarni jalb qilish doyrasidagi platformadir. Mexanizmni amalga oshirish uchun platforma sifatida ijtimoiy tarmoqlar yoki tematik saytlar qo'llaniladi. Kerakli mablag' belgilangan muddat uchun to'planadi. Loyiha foydalanuvchilari ba'zan ba'zi imtiyozlar yoki mukofotlarga ega bo'lgan to'lovlarini amalga oshiradi. To'lov hajmi tartibga solinmaydi. Jamg'arma kiritayotgan qancha mablag' kiritishini o'zi hal qiladi.

7.7. Kraudfandingni amalga oshirish tartibi

Kraudfandingni amalga oshirish tartibi quyidagi ketma-ketlikka ega bo'ladi.

1. Manfaatdor jamoatchilikni moliyalashtirishga jalb qilish. Buyurmachining maqsadi maksimal sondagi ishtirokchilarni jalb qilish sharti bilan tezroq sur'atlarda amalga oshirish.

2. Ishtirokchilarni jalb qilishning maxsus vositalari, mukofotlash yo'li bilan jarayonini rag'batlantirish tartiblarini ishlab chiqish.

3. Jarayon ishtirokchilari kuchi bilan eng samarali va istiqbolli loyihalarni tanlash. Loyihaning ommaviyligi moliyalashtirish hajmi va tezligi bilan belgilanadi.

Quyidagi kraudfanding turlari mavjud:

Investor mukofot olmaydi. Bunday holda, platformalar ijtimoiy. Xayriya ko'rinishiga ega bo'ladi. Investorlar uchun mukofot mavjud bo'lmasa, xayriya qilish sxemasi haqida gapirish mumkin. Xayr-ehsonlar ko'pincha ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan va medditsina loyihalarida qo'llaniladi. Misol uchun, bolalarni davolash uchun mablag' to'plash – bu xayr-ehsonlar sxemasiga muvofiq kraudfanding hisoblanadi. Davolanish uchun xayriya qilgan shaxslarga ko'p hollarda ijtimoiy sahifa yoki kompaniya saytida ularning nomlarini eslatib turish bilan minnatdorchilik bildiriladi

Moliyaviy bo'lmagan mukofotlar odatda Kikstarter modeli deb ataladi. Kikstarter modeli bugungi kunda eng keng tarqalgan kraudfanding ko'rinishi hisoblanadi. To'lov sifatida investor maruza qilishi uchun taklifnoma oladi, alohida tanlangan insonlar xos bo'lgan saytda nomini eslatib o'tish va shu kabi imtiyozlarga ega bo'ladi.

Kraudinvesting turlari

Kraudinvesting investorlarni kichik biznes yoki internet loyihalarga jalb qilishda eng keng tarqalishi xususiyatiga ega bo'ladi.

Jahon miqyosidagi kraudinvestingdagi mablag'lar aylanmasi taxminan 500 million dollarni tashkil etadi. Bu ba'zi rivojlangan mamlakatlar qonunchiligi va investorlar tomonidan ishonchsizlik mavjudligi bilan bog'liq. Kichik hajmdagi investitsiyalarni kiritish mumkinligi, shuningdek, startapni istalgan mezonlarga muvofiq tanlash huquqni bunday platformaning afzalliklarini o'z ichiga oladi.

Investor bir nechta loyihalarga sarmoya kiritishi mumkin. Ba'zan, startaplardan biri o'zini oqlaydi va boshqa barcha kiritilgan investitsiyalar xarajatlarini qoplab beradi.

Firibgarlik riski, loyixaga kerakli miqdordagi mablag'larni to'play olmaslik va amalga oshira olmaslik, platformani rentabelli emasligi va ba'zi mamlakat qonunlariga muvofiq kelmasligini kamchiliklari sifatida ko'rsatish mumkin

2017 yilning boshiga kelib, kraudinvesting uchun taxminan 300 sayt ochildi. Amerika qo'shma Shtatlari va Buyuk Britaniyada sxema keng tarqalish xususiyatiga ega bo'ldi

O'zbekistonda kraudinvesting sekin rivojlanmoqda. Fuqarolarda istiqbol g'oyalarga investitsiya kiritish istagi mavjud bo'lsada, O'zbekiston bozorida ishonchdan o'tgan va o'zini tavsiya eta oladigan saytlar hali etarli emas, investorlar esa qonun bilan ximoyalannaganligi uchun zarar ko'rishi mumkin.

Quyidagi kraudinvesting turlari mavjud.

1. **Royalti.** Royalti amalga oshirilgan loyihani qandaydir foizini investorga qaytarilishini nazarda tutadi. Bu asosan kino, video o'yinlar va musiqa loyihalarida qo'llaniladi.

2. **Halq tomonidan kreditlash.** Kraudinvestingni bu turda tashkilotchi vositachilarni chetlab o'tgan holda, jismoniy shaxslardan

ssuda oladi. Jamg'arma emas jismoniy shaxsga ham yuridik shaxsga ham kredit taqdim etadi. Investor uchun foyda aniq-foyda bank depozitiga nisbatan ko'proq bo'ladi. Tashkilotchi uchun qulay, chunki halq kreditidagi foiz bank foizidan ahamiyatli darajada kam

3. Aksiyadorlik kraudfanding. Investor mukofot sifatida tashkilotchi kompaniyaning aktsiyalarini yoki mulkning bir qismini mukofot sifatida oladi. Bu tur Evropa Ittifoqida eng keng tarqalgan va qonun bilan mustaxkamlangan. Loyihalarni moliyalashtirish uchun mablag'ni Internet orqali to'plash, yaqin vaqtlardan buyon mashhurlikka erisha boshladi. Bugungi kunda kraudfandingni platformalari yordamida startaplar va biznesning ayrim istiqbolli shakllari moliyalashtirilmoqda.

Kraudfandingni paydo bo'lishi zaruriyati

Xech qanday boshlang'ich kapitalga ega bo'lmagan insonlar uchun o'z g'oyalarini amalga oshirish murakkabligi sababini. kraudfanding zaruriyati yuzaga keldi

Hozirgi iqtisodiy vaziyatda banklar yaqindagina o'z faoliyatini boshlagan va hali ma'lum bir muddat biron joyda ishlashga ulgurmagani tadbirkorlarni yoki yuridik shaxslarga kredit berishni istamaydi. Kreditni rasmiylashtirish uchun qisqa vaqt ichida potentsial qarz oluvchilar bankning to'lov qobiliyatiga qo'fdigan talablariga to'liq mos keladigan moliyaviy ko'rsatkichlarga erishishi zarur bo'ladi.

Kraudfanding startaplarga ularni g'oyalarini moliyaviy qo'llab-quvvatlashi mumkin bo'lgan, hamfikir insonlarni topish imkonini beradi. Biznesdan tashqari qo'shimcha ravishda, madaniy tadbirlarni qo'llab-quvvatlash yoki o'zi yoqtirsa guruh albomini chiqarish muhtojlarga oziq-ovqat yoki kiyim-kechak sotib olish maqsadida mablag' to'planishi mumkin. Ammo o'zining ishtirokchilariga, xususan, mablag' yig'uvchi tashkilotchilariga foyda keltiradigan tijorat loyihalarini amalga oshirishga asosiy urg'u beriladi. O'z loyihalarini amalga oshirish uchun investorlarni jalb qilishni istagan insonlar o'zining mazmun va maqsadini internetdagi maxsus platformalarga to'liq joylashtiradi, bu erda ular to'planishi zarur bo'lgan mablag'ning minimal miqdorni ko'rsatadi. Shundan so'ng, bu g'oya kimlarni jalb qilganligi kutiladi. Mablag' to'plash aniq bir maddat uchun amalga oshiriladi. Xayriya loyihalari uchun muddat cheklov qo'yilmagan bo'lishi mumkin.

7.8. Biznes modellar transformatsiyasi

O'n yildan ortiq vaqt mobaynida dunyodagi eng yirik bitimlar elektron tijoratning evolyutsiyasi natijasida paydo bo'ladi va faol rivojlanayotgan yangi bozorda amalga oshirilmoqda. Masalan, 2005 yilda eVau kompaniyasi Skypeni 2,1 milliard dollarga sotib oldi, 2006 yil 9 oktyabrda Google kompaniyasi 1 650 million dollarga video xizmati uchun faqat to'qqiz oy davomida mavjud bo'lib hozirgi kunda mashhur bo'lgan YouTube'ni sotib oldi, Facebook mashhur WhatsApp messengerini rekord darajada 19 milliard dollarga sotib oldi.

So'nggi yillarda yuqori texnologiyali kompaniyalar sohasida yuqori darajadagi kapital aylanmasini va global reytinglarda yetakchi mavqega ega bo'lgan kompaniyalar nomlardagi doimiy o'zgarishlarni kuzatish mumkin. Elektron tijorat texnologiyalari Internet tarmog'ida biznes yuritayotgan kompaniyalar kapitallashuvining o'sishiga ta'sir ko'rsatdi.

Bularning barchasi yangi bilimlarni talab qiladi. Elektron biznesni qurishda samarali monetizatsiya sxemasini tanlash, ilg'or qo'shilgan qiymat zanjirini yaratish, axborot texnologiyalari imkoniyatlaridan foydalangan holda biznes hamkorlar, iste'molchilar va barcha manfaatdor tomonlarning o'zaro hamkorligini ta'minlash zarur. Amaliyotchilar o'zlarining xatolaridan unumli xulosa chiqaradi va boshqaruv to'g'risidagi fanlar tarixiy jihatdan haqiqiy loyihalar va amaliy tajribalar asosida yaratadi.

Ayni paytda, e-tijorat kanallarida ishtrok etish darajasiga ko'ra, Amazon, OZON kabi internet-do'konlari, ijtimoiy tarmoqlar, messengerlar, eVau, AULTO va S2S bozorini ochgan boshqa kompaniyalardan iborat to'liq onlayn kompaniyalar paydo bo'ldi; va onlayn-do'konlarda yaratgan savdo tarmoqlari kabi elektron tijorat kanallariga qurilgan an'anaviy oflayn biznesga ajratib chiqdi.

2018 yil uchun jahon Internet auditoriyasi 3 milliard kishini tashkil etdi. O'zbekistonda 2018-yilda oyiga 14 milliondan ortiq Internet foydalanuvchisi qayd etildi. O'zbekistonda Internetga kirish dinamikasi, kelajak trendini ko'rsataib boradi. Elektron auditoriya faqat o'sib boradi, va demak elektron tijorat rivojlantirish va elektron biznes yuritish uchun imkoniyatlarni kengaytirib boradi, bu esa elektron tijoratda yangi texnologiyalarni paydo bo'lishiga olib keladi.

Elektron tijorat texnologiyalarining barcha imkoniyatlaridan foydalanish uchun iste'molchilarning fel-atvori va O'zbekiston sharoitida biznes yuritish o'ziga xos xususiyatlarini tadqiq etish zarur hisoblanadi. Amaliyot shuni ko'rsatadiki, hatto ideal holatdagi istiqbolli xorij biznes-modellari ham transformatsiyalar amalga oshirilmasa O'zbekistonda tegishli samara bermaydi.

Olib borilgan tadqiqotlar natijalarini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki elektron tijoratning zamonaviy texnologiyalari yangi imkoniyatlarga ega bo'lib jamiyat, biznes, iqtisodiyotni rivojlantirish istiqbollari ochib beradi. Elektron tijoratda biron-bir yangi texnologiyalarning paydo bo'lishi jamiyatning evolyutsiyasiga va axborot kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirishga yordam beradi.

Raqamli transformatsiya; yangi biznes modellari; virtuallashtirish, bulut texnologiyalarning keyingi evolyutsiyasi asosida infratuzilma yechimlarini rivojlantirish jahon trendlari hisoblanadi. Bularning barchasi yangi bozorlarning paydo bo'lishiga, an'anaviy biznes modellari o'zgarishiga olib keladi va oqibatda elektron tijoratning yangi texnologiyalari yaratiladi.

Internet-reklamani rivojlantirishi elektron biznesga reklama orqali pul topish imkonini berdi, ya'ni, "reklama xarajatlari" modelini "reklama daromadi" modeliga aylantirildi. Bugungi kunda o'z biznesini internetda qurib olgan kompaniyalar, aslida, reklamadan sarflanganidan ko'ra ko'proq foyda oladi. An'anaviy, reklamadan faqat reklama agentliklari foyda oladi. Biznesmenlar nafaqat moddiy mahsulotlar, balki elektron va raqamli mahsulotlarni ham sotish imkoniyatiga ega bo'ldi.

Elektron iqtisodiyot biznes uchun biznes-analitika tezkor tahlil qilish asosida yangi g'oyalarni izlash imkoniyatlarini ochib berdi va mijozlar bilan tezkor teskari aloqa o'rnatish imkonini berdi, bu esa kompaniyalarga potentsial mijozlarning innovatsion talablariga javoban reaktiv ravishda e'tibor qaratishga imkon beradi. Messenjerlar, internet-qidiruv, internet-reklama, internet-savdo, elektron kouching (murabbiylik), elektron ta'lim va shunga o'xshash yangi bozorlar paydo bo'ldi

Elektron tijorat texnologiyalari biznes va yangi bozorlarni rivojlantirish imkoniyatlarini ochib berishi bilan bir vaqtda yuqori tezlikda va shu bilan birga yangi texnologiyalarning paydo bo'lishi bilan bog'liq

tahdidlarni ham keltirib chiqaradi, bu esa bir tomondan biznesni tezkor rivojlantirishga yordam beradi, boshqa tomondan, texnologiya har doim nusxa olish va ko'chirish osonligidan yasama-kompaniyalar (klon) paydo bo'lishi uchun sharoit yaratadi.

Internet va axborot texnologiyalarining imkoniyatlari tufayli innovatsion mahsulotlarning hayotiy sikli qisqarib boradi, bu mashhur ishlab chiqaruvchi va ishlab chiquvchilar o'rtasida yangi smartfon modellar, iqtisodiy manfaatlar (elektron biznes, kompaniyalarning kapitallashuvi, kraudfunding) kompyuter texnologiyalari (mobil tijorat, Internet, bilan qamrab olish, medogeneratsiya texnologiyalari kraudsorsing) kompyuterlar, yangi mobil ilovalar kompyuter o'yinlarining yangi versiyalarini bozorga kiritishda raqobatlashishi musobaqalarini ko'chaytirib yuboradi. Bunga shuningdek, yangi elektron tijorat texnologiyalarining paydo bo'lishini "hisoblab chiqish" qiyinchiliklari ham kiritilishi mumkin, ya'ni aniq bir sharoitlarda ular mavjud biznes tizimlarini buzib tashlash xususiyatiga ega bo'lgan buzg'inchi "innovatsion" texnologiyalar sifatida ham harakat qilishi mumkin. Va bu jarayonlarning tezligi qanchalik yuqori bo'lsa, murakkab va dinamik bozor muhitining tarixiy jihatdan xavfli deb hisoblanadigan, shu bilan bir vaqtda, iqtisodiyotni rivojlantirish uchun yangi istiqbollarni ochib beradigan texnologik tarkib tomonidan yaratilayotgan o'zgarishlarga e'tiborni tezkor jalb qilish zarur bo'ladi.

Nazorat uchun savollar

1. E-commerce qanday imkoniyatlarni taqdim etadi?
2. Elektron tijorat texnologiyalari qanday asosiy xususiyatlarga ega?
3. Mobil tijorat nima va qanday xususiyatlarga ega?
4. Mobil tijoratda tranzaksiyalar qanday qurilmalar orqali amalga oshiriladi?
5. E-commerce va M-commerce o'rtasida qanday asosiy farqlar mavjud?
6. Mobil tijorat elektron tijoratda qanday asosiy xususiyatlarga ega?
7. M-commerce qanday mahsulot toifalari mavjud?
8. Mobil tijoratning asosiy afzalligi nimada?
9. Mobil tijorat qanday asosiy kamchiliklarga ega?

10. Mobil tijoratni qanday sohalarga jalb qilish mumkin?
11. Kraudsorsing mohiyatini qanday izohlash mumkin?
12. Kraudsorsingning qanday asosiy tushunchalari mavjud?
13. Kraudsorsingga qanday asosiy g'oya qo'yilgan?
14. Kraudsorsing qanday asosiy turlarsha ajratilgan?
15. Kraudsorsingni mavjud bo'lishi nechta bosqichdan iborat?
16. Kraudsorsing faoliyati qanday tamoyillarga ega?
17. "Dono olomon" fenomenini qanday izohlash mumkin?
18. Biznesda kraudsorsing qanday afzalliklarga ega?
19. Kraudsorsing qanday rivojlanish tendentsiyalariga ega?
20. Kaggle kraudsorsing platformasini qanday izohlab tushuntirish mumkin?
21. "Kraudsorsing integratorlari" qanday jarayonlar natijasida paydo bo'ldi?
22. Kraudfanding tabiati va mohiyatini qanday tushuncha va vazifalar asosida tasniflash mumkin?
23. Kraudfanding qanday tartibda amalga oshiriladi?
24. Qanday kraudfanding turlari mavjud?
25. Kraudinvesting qanday jarayon va qanday turlari mavjud?

8-BOB. MARKETING VA ELEKTRON TIJORAT TRANSFARMATSIYASI

8.1. Internet-marketingning mohiyati va xususiyatlari

Jahon amaliyotida elektron tijoratning shiddat bilan rivojlantirilishi nafaqat shakli, balki, muqarrar ravishda mazmunini ham o'zgartirgan holda marketing nazariyasi va amaliyotiga katta ta'sir ko'rsatdi. Biroq, aynan marketing korxonaning iqtisodiy faoliyatida tashqi bozor muhiti bilan shug'ullanganligi sababli marketing nazariyasi uchun bu alohida dolzarblik kasb etadi.

Shu bilan birga, internet-marketing amaliyoti o'zining institutsional asoslari endigina shakllanib kelayotgan nazariyasidan ancha ilgarilab ketdi. Bu sharoit qisman elektron tijorat o'zida iqtisodiy faoliyatning an'anaviy muhiti bilan hozircha juda kam birlashayotgan mutlaqo yangi institutsional muhitni ifoda etayotganligi bilan bog'liq. Umumiy holda internet-marketing ilmiy tadqiqotning na ishonchli xarita va na bironta yagona metodologiyasi bo'lmagan o'ziga hos "Terra incognita" (noma'lum er)ni eslatadi.

Eskirib qolgan marketing nazariyasi bu yo'nalishning istiqbolini tan olish bilan cheklanib qolgan holda, internet-marketingga fragmentar ko'rinishdagi tavsifni beradi. Asosiy darsliklarda uni ta'riflash uchun juda kam ahamiyat berilgan yoki qisqacha tavsif berib ketilgan. Bundan tashqari, internet-marketingning bevosita usullari faqat to'g'ridan-to'g'ri savdolarning xususiy holi sifatida eslab o'tiladi [101, 777-804 b.].

Taniqli rus olimlari, odatda, internet-marketingni marketingning alohida funktsiyalarining xususiy ilovasi deb hisoblaydi. A.E. Kalinina internet-marketingni Internet tarmog'ida elektron nashrlarni joylashtirish va tahlil qilish bo'yicha faoliyat bilan belgilaydi. I.A. Krimskiy va K.V. Pavlov esa internet-marketing va internet-reklamani bir xil tarzda ko'radi va F.Yu. Virin internet-marketing deganda qat'iy ravishda "marketing kommunikatsiyalarini Internet orqali qurish" deb tushuntiradi. Internet-marketingning to'liqroq talqini F.Yu. Virin tomonidan beriladi "... *internet-marketing o'z-o'zidan mavjud emas, bu kompaniya umumiy marketingining faqat bir qismi. Internet-marketing - bu kompaniya marketing masalalarining bir qismini echadigan vositadir, va undan ortiq emas*".

Bunday talqinni to'g'ridan-to'g'ri qabul qilish mutlaqo mumkin emas. Bunday talqin Internet an'anaviy sanoat iqtisodiyotida ahamiyatsiz

kommunikatsiyalar kanali bo'lgan davrda mavjud bo'lishi mumkin edi. Ammo, bozorning o'zi, uning ishtirokchilari va mahsulotlarni harakatlantirish usullari virtual makonga joylashgach vaziyat tubdan o'zgardi. Internet-marketing virtual makonning virtual ishtirokchilar tomonidan amalga oshiriladigan to'la qonli marketingga aylandi.

Dastlab, marketing nazariyasida to'laqonli marketing faoliyatini Internetning virtual muhitiga o'tkazishning mumkin emasligini ko'zda tutadigan hech qanday cheklovlar mavjud bo'lmagan. Marketing nazariyasi marketingni standart vositalar to'plami sifatida emas, balki *“iste'molchi muammolaridan xabardor bo'lish va bozor faoliyatini tartibga solishning maqsadli yo'naltirilgan tartibga solish jarayoni”* sifatida tushunadi. Menejment nazariyasi ham marketingga aynan shunga o'xshash talqinni beradi: *“Marketing biznesning o'ziga xos funksiyasi, ajralib turuvchi xususiyatidir.... Marketing mavjud bo'lmagan yoki tasodifiy hisoblanadigan har qanday tashkilot biznes hisoblanmaydi”*.

Tarmoq iqtisodiyoti va virtual biznes yuritish shakllari sharoitida internet-marketing aynan marketing faoliyatini ifoda etadi, ammo, yangi institutsional sharoitda va o'zini-o'zi tashkil etishning yangi tizimi darajasida amalga oshiradi. Bir tomondan, internet-marketing internet tarmog'ida iqtisodiy faoliyat yuritishning odat, qoida va an'analarini o'z ichiga olgan tarmoq iqtisodiyotining norasmiy instituti sifatida namoyon bo'ladi. Boshqa tomondan, internet-marketing kompaniya va tashqi muhit o'rtasidagi barcha o'zaro hamkorlik jarayonlarini o'z zimmasiga olgan holda elektron tijoratning ajralmas funksiyasi hisoblanadi.

Shuning uchun, agar avval internet-marketing internet-kommunikatsiya bilan bog'liq bo'lgan bo'lsa, bugungi kunda asta-sekin mustaqil ilmiy nazariya xususiyatlariga ega bo'lib bormoqda. Masalan, amerikalik marketing nazariyotchisi B. Doyl bu holatni marketing evolyutsiyasining to'rtinchi bosqichiga (klassifikatsiyaga ko'ra) kiritadi va internet-marketingni *“xaridorlar bilan individual munosabatlarni boshqarish”* deb tariflaydi. Bu talqin P.Doylning *“marketing savdo markasini boshqarish sifatida”* deb atagan oldingi bosqichdan tubdan farq qiladi. Bu elektron tijorat ta'siri ostida yuzaga keladigan iqtisodiy o'zaro munosabatlardagi institutsional o'zgarishlarni aks ettiradi. Marketing

nazariyasining klassigi F. Kotler bu o'zgarishlarni "*inqilobiy*" deb atashi ham tasodif emas.

B. Doylning fikricha, elektron tijorat paydo bo'lmasdan avval savdo markasini boshqarish iste'mol bozorining maqsadli segmentlarini ajratib olish, so'ngra, har bir segment uchun alohida savdo brendini ishlab chiqish va targ'ib qilishni ko'zda tutadi. Bu yondashuv iste'molchiga emas, balki mahsulotga yo'naltirilgan. 1990- yillarning o'rtalarida elektron tijoratni rivojlanish bilan "*xaridorlar bilan individual munosabatni o'rnatish va ularning aniq ehtiyojlarini buyurtmali mahsulotlar hamda ixtisoslashtirilgan xizmatlar orqali qondirish*" imkoniyati paydo bo'ldi. B. Doyl aynan shu imkoniyatni internet-marketingning ajralib turuvchi xususiyati deb hisoblaydi.

Biroq, P.Doylning talqini ham tahlilga muhtoj. Internet-marketingning jadal rivojlanishi, P.Doyl bu to'g'rida yozganidek, marketing siyosatiga alohida urg'u berilishi yangi texnologik imkoniyatlar ta'siri ostida ro'y bergani yo'q. Buning uchun tarmoq iqtisodiyoti tarkibidagi o'zgarishlar va tranzaksiya xarajatlarini keskin kamayishi bilan bog'liq bo'lgan makroiqtisodiy va institutsional sabablar mavjud bo'ldi.

Elektron savdo sotuvchining ham va xaridorning ham xarajatlarini minimallashtirishga asoslangan. Aynan shu internet-marketingning samaradorlik va o'zini-o'zi ta'minlash siri hisoblanadi. Shuning uchun, internet-marketingda mahsulot siyosati (an'anaviy marketingda bo'lgani kabi) emas, marketing tadqiqotlari muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Birinchi navbatda, maksimal sondagi potentsial xaridorlarga mahsulotni mavjud bo'lish imkoniyatini beradigan savdo siyosati birinchi o'ringa chiqadi. (3-jadval).

Tarmoq iqtisodiyotida internet-marketing birinchi navbatda savdo funktsiyalarini bajaradi. Tarmoq iqtisodiyoti sub'ektlari kommunikatsiya yoki marketing tadqiqotlari uchun Internetga kelmaydi. Ular Internetni kirishga qarshilik qiluvchi to'siqlar kam bo'lgan va teng raqobatdosh imkoniyatlarga ega bo'lgan alohida katta bozor sifatida ko'rishadi. Qolgan barcha vaziyatlar ikkinchi darajali hisoblanadi. Elektron tijoratni F. Kotler tomonidan "*turli elektron vositalar yordamida amalga oshiriladigan sotib olish va sotish jarayoni*" deb ta'riflanishi bejiz emas.

3-jadval.

Internet tarmog'ida marketing majmuasining transformatsiyasi

An'anaviy marketing-miks ⁶	Internet-marketing majmuasi
1. Mahsulot siyosati	1. Savdo siyosati
2. Narh-navo siyosati	2. Narh-navo siyosati
3. Savdo siyosati	3. Mahsulot siyosati
4. Kommunikativ siyosat	5. Kommunikativ siyosat

Internet-marketing vositalari umum ma'lum bo'lgan marketing majmuasining "4P"⁷ konsepsiyasi darajasiga to'liq mos keladi. Tarmoq iqtisodiyoti sharoitida internet-marketingning asosiy yo'nalishlari, vosita va usullarini ochib berish uchun to'rtta element etarli bo'ladi. Transformatsiya marketingning faqat joylashuvi tartibiga (ahamiyatiga ko'ra) va mazmuniga ta'sir ko'rsatadi.

8.2. Internet marketingida savdo siyosati

Savdo siyosati an'anaviy marketingning uchta asosiy - ayirboshlash va transaksiyalar, hamkorlar o'rtasidagi munosabatlar va xaridorlar bilan o'zaro hamkorlik tarkibiy qismlarni o'z ichiga oladi. Biroq, virtual o'ziga xoslik ularni yanada yangi tarkib bilan to'ldiradi:

1. Ayirboshlash va transaksiyalar. Marketingning klassik nazariyasiga ko'ra, har qanday tijorat faoliyatining asosida ayirboshlash yotadi. *"Insonlar o'z talab va ehtiyojlarini qondirishni ayirboshlash vositalari orqali hal qilishi lahzasida marketing paydo bo'ladi"* deb ta'kidlaydi F.Kotler.

Marketing nazariyasida transaksiya deganda *"ikki yoki undan ortiq tomonlar o'rtasidagi qiymatlar almashinuvi"* tushuniladi.

⁶ Marketing-miks (marketing mix model) – kompaniyaning o'z mahsulotlarini harakatlantirish uchun tadbirlarda foydalanidigan marketing vositalari to'plami, marketing majmuasi deb atash ham mumkin. Bu tushuncha birinchi marta 1964 yilda Nel Borden tomonidan nashr etilgan "Marketing-miks kontsepsiyasi" nomli maqolasida paydo bo'lgan.

⁷ Dastlab marketing majmuasi faqat 4 asosiy elementni o'z ichiga olgan: mahsulot, narh, savdo joyi va mahsulotni harakatlantirish. Bunday marketing miks 4P bazviy model deb ataladi: product, price, place, promotion. Raqobatni murakkablashuvi bilan 4P modelga ham dastlab 5P model, so'ngra 7P model deb o'zgartirish kiritilgan.

Demak, marketing transaksiyasi, agar bitimda ishtrok etayotgan tomonlarning qadriyat, talab va manfaatlari bir-biriga mos kelsagina amalga oshishi mumkin bo'ladi. internet-marketingda yakuniy mahsulot mahsulot hisoblanmaydi, balki, yakuniy mahsulot to'g'risidagi axborot ko'rinishidagi virtual tasviri (obrazi) yakuniy mahsulot hisoblanadi. Moddiy mahsulotlardan farqli o'laroq, bu obraz cheksiz nusxalanishi va har bir salohiyatli iste'molchiga manzilli etkazilgan bo'lishi mumkin. aynan shu obraz xaridga to'lovni amalga oshirgandan so'ng moddiylashgan holda sotish-sotib olish ob'ekti hisoblanadi.

An'anaviy marketingda savdo infratuzilmasi yetkazib berish bo'yicha qarzdorlik, mahsulot zaxiralari, savdo bozori xususiyati va yetkazib beruvchilarning muqarrar muammolari to'plamini ifoda etadi. Agar mahsulotlar vositachilarga oldindan to'lov bo'yicha yetkazib berilsa, vositachilar cheklangan miqdordagi mahsulotga buyurtma beradi, chegirmalarni ko'paytirishni talab qiladi va raqobatchi tomon bilan oson muloqatga kirishadi. Agar mahsulotlar konsignatsiya bo'yicha berilgan bo'lsa, unda vositachilarda mahsulot ortiqchaligi yuzaga keladi, mahsulot aylanmasi sekinlashadi va yetkazib berishga to'lovni amalga oshirish bilan bog'liq muammolar boshlanadi. Shu bilan birga, savdo kanalining har bir darajasi yetkazib berishning masofasi va geografik bozorning monopollashtirilganlik darajasiga bog'liq holda rentabellikni minimaldan cheksizgacha bo'lgan savdo qo'shimchasini qo'shib boradi.

Masofa elektron tijorat muhitida o'z ahamiyatini yo'qotadi va savdo infratuzilmasi (ulgurji va chakana bo'g'in) savdo tarmog'idan chiqib ketadi. Qachonki vositachi aynan mahsulot bilan emas, balki bu mahsulot to'g'risidagi axborotlar bilan ish olib borganda P.Doyle ta'kidlagan "mahsulotdan axborotlarni ajratib olinishi" amalga oshadi. Natijada, savdo kanalidagi mahsulotlar oqimi o'z o'rnini axborot oqimlariga bo'shatib berdi, mahsulotlarni harakatlantirish esa mahsulot to'g'risidagi ahborotlarni harakatlantirishga o'z o'rnini bo'shatib berdi.

Shuning uchun, *internet-marketingdagi savdo siyosatining asosiy funksiyasi mahsulotlarni an'anaviy kanallar orqali sotishni tashkil etish emas, balki, virtual savdoni tashkil etish uchun tarmoqning kommunikatsiya imkoniyatlaridan foydalanishni ko'zda tutadi.*

Agar internet-marketingda ombor va transport infratuzilmasining ahamiyati avvalgidek qolsa, savdo infratuzilmasi (peshtaxtalar, ko'rgazma zallari, sotuvchilar va boshqalar) elektron kataloglar va prays-sahifalar bilan muvaffaqiyatli almashtiriladi. Agar etarli darajada logistika ta'minoti mavjud bo'lsa, bu sotuvchilarga savdo zanjirining boshqa uchidagi xaridorlarga maksimal assortimentda va minimal xarajatlar bilan mahsulot taklif qilish imkoniyatini beradi.

2. Hamkorlar o'rtasidagi munosabatlar. Elektron tijoratning rivojlanishi internet-marketingda nafaqat savdo siyosatining o'zgarishiga, balki, savdo tizimi ishtirokchilarining o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni o'zgarishiga ham olib keladi. Bu *“salohiyatli yetkazib beruvchilarni aniqlash va ular bilan eng kam xarajatlarga olib keluvchi shartlarni kelishib olish imkoniyatini beradigan vositalar”* deb tushuniladiga. E-sorsing tufayli savdo funktsiyalari va buyurtmalarni taqsimlashni amalga oshirish oxir-oqibat menejment sohasidan marketing sohasiga o'tadi.

Transformatsiyaning bu qadar chuqurlashib ketishi o'z navbatida marketingning ba'zi asosiy vositalarining mazmuni va funktsiyalarini tubdan qayta ko'rib chiqishni talab qiladi. Avvalo, bu transformatsiya reklamaga ta'sir ko'rsatdi. Elektron tijorat tarmoqdagi reklama faoliyati mohiyatini kommunikativ mazmundan marketingning savdo funktsiyasiga aylantiradi.

Ananaviy marketingda reklama vositachisi - mahsulot to'g'risidagi axborotlarni potentsial iste'molchilarga yetkazib berishda haq evaziga vositachilik xizmatlarini taqdim etuvchi shaxs. Shu bilan birga, reklama vositachilari reklama kampaniyalarining samaradorligidan manfaatdor bo'lmaydi. Bugungi kunga qadar, an'anaviy reklamaning samaradorligi olib borilgan chora-tadbirlar natijasida savdoning o'zgarishini aks ettiruvchi ko'rsatkichlar bilan emas, balki, asosan har qanday ko'rib chiqishlar soni, auditoriyani qamrab olinishi, taqdimotlar chastotasi va shu kabilar bilan baholanib kelingan.

Internetning kommunikatsiya kanalidan mahsulotlar savdosi kanaliga transformatsiya qilinishi bilan vaziyat tubdan o'zgardi. Elektron tijoratda yetkazib beruvchilarga reklama yoki savdo vositalari bilan shug'ullanishning zaruriyati yo'q. Yetkazib beruvchilar uchun savdo muhim. Bu bir vaqtning o'zida yangi gibridda ko'rinishdagi reklama va marketing funktsiyalarini

bajaradigan vositachilarning paydo bo'lishiga olib keldi. Ammo reklama faoliyati savdoga nisbatan ikkinchi darajali bo'lganligi sababli, keyinchalik marketin tarkibiga shunchaki qo'shilib ketdi.

Yangi vositachilar o'z xizmatlari evaziga savdo chegirmasini olish bilan bir qatorda, o'zida mahsulot mavjud bo'lmagan holda Internetda yetkazib beruvchilarning mahsulotlarini sotishning institutsional huquqiga ega bo'ldi. Ular endi mahsulot zaxiralari va yetkazib beruvchilar bilan bog'liq aylanma xarajatlarni yaratmaydi, yetkazib beruvchilar kafolati ostida mahsulotlarning virtual tasvirlarini targ'ib qilish (reklama qilish) asosida o'zaro raqobatlashadi. Ularning auditoriyasiga geografik jihatdan cheklov mavjud emas, takliflar maqsadli auditoriyaga yo'naltirilgan bo'ladi. Aynan ular bugungi kunda o'zida internet-marketingning elektron savdo kanallarini aks ettiradi.

O'z navbatida, yetkazib beruvchilar internet-vositachilar vositasida nafaqat bepul savdo infratuzilmasi, aylanmani tezlashtirish va bozor konyunkturasi to'g'risidagi axborotlar manbaasiga, balki, bir vaqtning o'zida mahsulotlarni harakatlantirish (reklama) imkoniyatiga ham ega bo'ladi. Bunday harakatlantirishga savdo chegirmalari bilan haq to'laydi. Biroq, an'anaviy reklamadan farqli o'laroq, bunday to'lov savdo ko'rsatkichlariga qat'iy bog'liq va savdo ko'rsatkichlari o'z-o'zidan vositachilarning tadbirkorligiga bog'liq bo'ladi.

Bu internet-marketingda tomoyil jihatdan muhim tendentsiya hisoblanadi. Elektron tijorat savdo hamkorlari o'rtasidagi integratsiyani kuchayishiga olib keladi, bu nafaqat mahsulotlarni kontragentlarga sotish vakolatini berishda, balki bu savdo uchun javobgarlik vakolatida ham namoyon bo'ladi. An'anaviy marketingda esa bu mumkin bo'lmagan.

3. Xaridorlar bilan o'zaro hamkorlik. Sotuvchi va xaridorlar munosabatlaridagi internet-marketing bilan bog'liq o'zgarishlar internet-texnologiyalarning mahsulotlarni harakatlantirish kanali ishtirokchilari va xaridorlar o'rtasidagi o'zaro interfaol hamkorlikka imkon berishiga asoslanadi. Kompyuter texnologiyalari bozor to'g'risidagi axborotlarni yig'ish, qayta ishlash va tahlil qilishni avtomatlashtirish, mahsulotlarni yetkazib berish bo'yicha tezkor teskari aloqani o'rnatish imkonini beradi.

Marketingning an'anaviy nazariyasi marketing faoliyatini tashkil etishda marketingni mutlaqo qarama-qarshi bo'lgan yondoshuvlar bilan

farqlanadigan ikki ko'rinishini ajratadi. Bu yondashuvlar potentsial xaridor bilan o'zaro hamkorlik tamoyil va mexanizmlarini aniqlab beradi.

Birinchi ko'rinish, *iste'molchilarga mo'ljallangan marketing*, xaridorlarda mahsulotlarning haqiqiy sifati to'g'risidagi zarur axborotlarning mavjud emasligi bilan tavsiflanadi. Iste'molchilar mahsulotlarga emas, balki mahsulotlarni o'z tajribalariga asoslangan holda qabul qilarlik tasavvuriga amal qiladi. Bundan reklama va RR⁸ targ'ibiga o'xshash bo'lgan usul va shakllarning ustuvorligi kelib chiqadi.

Ikkinchi ko'rinish, *sanoat marketingi*, xaridorlarning aynan mahsulot to'g'risida bo'lmasa, u holda undan foydalanish xususiyatlari to'g'risidagi batafsil bilimga ega bo'lishi bilan tavsiflanadi. Bu yerda sotuvchining raqobatdoshlik ustunligi mahsulotning texnologik jihatdan takomillashganlik darajasi bilan belgilanadi va to'g'ridan-to'g'ri sotish mahsulotlarni harakatlantirishning asosiy usuli hisoblanadi.

An'anaviy marketingda marketing kommunikatsiyalari ikki holatda ham marketingning asosiy vositasi bo'lgan. Ammo, internet-marketingda kommunikatsiyalar quyidagi sabablarga ko'ra o'z ahamiyatini yo'qotadi:

a) individual iste'molchilar mahsulot va undan foydalanish (shu jumladan salbiy) to'g'risidagi batafsil axborotlarni barchani kirishi mumkin bo'lgan maxsuslashgan internet-forumlardan olishi mumkin va mahsulotlarni reklama qilish o'z dolzarbligini yo'qotdi;

b) sanoat iste'molchilariga aniq raqobatdosh takliflar va mavjud barcha bozorlardagi qo'shimcha axborotlarni tezda olish imkoniyati paydo bo'ldi, bu esa savdo vakillarining yuzma-yuz tashrifiga zaruriyat qoldirmaydi.

An'anaviy savdo zanjirida nafaqat haridorlar, balki ishlab chiqaruvchilar (yetkazib beruvchilar) ham iste'molchi talablarining holati to'g'risidagi marketing axborotlarini to'plash uchun cheklangan imkoniyatga ega bo'lgan. Chakana sotuvchilar aniq bir ishlab chiqaruvchi uchun bunday keng ko'lamli axborotlarni to'plashdan manfaatdor bo'lmagan. Ularning assortimentida minglab buyumlar bo'lganligidan ular har bir yetkazib beruvchi uchun bozor va raqobatchilar to'g'risidagi marketing axborotlarini to'plashga jismonan qodir bo'lmagan.

⁸ PR (public relations) mahsulot to'g'risida ijobiy ta'surot qoldirish va qadrini oshirish maqsadida olib boriladigan tadbirlar majmuasi.

Ko'rsatilgan muammolarni vakolatli dilerlar tizimi, maxsus chegirma va boshqa imtiyozlar evaziga qisman hal qilish mumkin. Bunday holda, eng namunaviy sotuvchilar yetkazib berishning maxsus shartlari evaziga yetkazib beruvchiga iste'molchilar va raqobatchilar to'g'risidagi axborotlarni taqdim etishi mumkin. Biroq, yetkazib beruvchilarni kontragentlardan olgan bozor to'g'risidagi axborotlarning ishonchlilik va tezkorlik darajasi savdo kanallarining uzunligi bilan teskari bog'liqlikka ega bo'ladi.

Elektron tijorat vaziyatni ishlab chiqaruvchi va yetkazib beruvchilar foydasiga keskin ravishda o'zgartirdi. Mahsulotlar vositachilar orqali oxirgi iste'molchiga sotilayotganiga qaramay, savdo kanallari masofasi sezilarli darajada qisqartirildi va ishlab chiqaruvchi uni to'liq nazorat qilish imkoniga ega bo'ldi. Mahsulotlar savdo vositachisi tomonidan sotilgan va logistik vositachi tomonidan yetkazib berilgan holatda ham yetkazib beruvchi savdo jarayonini tashkil qiladi va savdo to'g'risidagi barcha axborotlarni o'zi oladi.

8.3. Internet-marketingda baholash va mahsulot siyosati

Internet-marketingda mahsulot narxini shakllantirish sharoitlari mukammal raqobat sharoitlariga asoslanadi. Biroq, xech bir yetkazib beruvchi xaridorlarning narxlar va raqobatdoshlar taklifi to'g'risidagi boshqa axborotlarga kirishini cheklay olmaydi. Biron-bir vositachi bozorni monopollashtirish va yetkazib beruvchiga o'z fikrini o'tkazishga qodir emas. Bundan tashqari, xaridorlar ixtisoslashgan forumlarda va ijtimoiy tarmoqlarda mahsulotlar to'g'risida o'zaro axborot almashishlari mumkin.

Shu bilan birga, tansaktsiya xarajatlarining tabiiy holda tejalishi an'anaviy savdoga nisbatan solishtirganda internet-sotuvchilarga narx belgilashda sezilarli ustunliklarni beradi. Bunday ustunlikka asoslanadigan chegirmalar pirovardida internet-xaridlarni amalga oshirishda xaridorlar uchun asosiy rag'batlantiruvchi omil bo'lib xizmat qiladi. Elektron tijoratga ishlab chiqaruvchilarni jalb qilinganligi ularning narxlashga bo'lgan yondashuvini tubdan o'zgartiradi. Virtuallashtirgan kompaniyalarining harakat yo'nalishi ta'sir ko'rsatish murakkab savdo sohasidan tranzaksiya xarajatlarini yanada kamaytirish va buning natijasida yangi narx afzalliklarini olish sohasiga yo'naltiriladi.

Natijada raqobatlashish bozor uchun kurash sohasidan raqobatni bozor shartlariga moslashish sohasiga ko'chadi. Bu holat "*iqtisodiy*

tizimlarning yashab ketish xususiyati ko'p jihatdan ularni atrof-muhit va uning o'zgarishlariga qanchalik moslasha olish holatida bog'liqligi" ni tasdiqlaydi.

Internet-marketingda ham narx siyosatining an'anaviy vositalari (chegirmalar, bonuslar, xarid uchun kredit, narxlarni tushirish va boshqalar) mavjud bo'ladi. Biroq, savdoning an'anaviy shakllari bilan internet-marketingni raqobatlashadigan asosiy vositasi bu tranzaksiya xarajatlarini kamaytirish hisobiga mahsulot narxini sezilarli kamaytirilishidir. Xulosa qilib aytganda, marketingni Internetga o'tishi bilan mahsulot va brendlarning narx raqobati transaksion xarajatlar raqobatiga aylandi deb ta'kidlash mumkin.

Hozircha an'anaviy kompaniyalar o'z xarajatlari bilan mahsulotlar narxining yuqori chegarasini belgilayotgan bo'lsalarda, virtual sotuvchilar tranzaksiya xarajatlarining pastligi tufayli arzon narxlar taklif qilish ustunligidan foydalanadi. Bu internet-marketingda narxni shakllantirish jarayonini tubdan o'zgartirib yuboradi.

An'anaviy marketingda narxni shakllantirish sotuvchining mahsulotga belgilangandan past sotishni xohlamaydigan bazaviy narx va xaridor tasavvuridagi sotib olishi uchun adolatli hisoblangan narx doirasida amalga oshiriladi. Bazaviy narx ishlab chiqarish va tranzaksiya xarajatlari yig'indisiga sotuvchi uchun zarur bo'lgan minimal foydani qo'shilishidan tashkil topadi.

Internet-marketingda narxni shakllantirish yetkazib beruvchining (ishlab chiqaruvchi) standart sotish narxi va an'anaviy chakana savdo narxlari doirasida amalga oshiriladi. Bu yerda Internetdagi mahsulotlar haqiqatan ham arzonligini xaridorlarga aniq namoyish qiladigan reklama funktsiyalarini an'anaviy savdo orqali amalga oshiriladi. Bu esa narx siyosatini ishlab chiqish jarayonini sezilarli darajada osonlashtiradi. Agar an'anaviy marketingda adolatli narx sinov o'tkazish va xatolar usuli bilan aniqlangan bo'lsa, bu yerda mahsulotga qo'yilgan baland narxni eng yaqin do'kondan aniqlash mumkin. Shu tufayli Internetdagi reklama kampaniyalarining aksariyati taklif etilayotgan mahsulotlarni an'anaviy savdodagi narxlar bilan taqqoslashga asoslanganligi tasodif emas (4- jadval).

Tranzaksiya xarajatlarining tushirilishi natijasida internet-marketingda narxlarni belgilash strategiyasi an'anaviy marketingda bo'lgani kabi muhim ahamiyatga ega bo'lmaydi. Bu yerda narxlarni faqat

monopolistlar ko'tarishi mumkin bo'lgan umumiyqisodiy qonuniyat ishlaydi. Elektron vositachilar kooperatsiyalarni yanada chuqurlashtirish yoki qamrab olish ko'lamini kengaytirish va savdo hajmini ko'paytirish hisobiga raqobatlashishi xususiyatiga ega bo'ladi.

4-jadval.

Internet-marketingda narxni shakllantirish xususiyatlari

An'anaviy marketing	Internet-marketing
Xaridorlar hayolidagi adolatli narx	An'anaviy sotuvchilarning qo'ygan narxi
Narxni shakllantirish imkoniyati sohasi	Narxni shakllantirish imkoniyati sohasi
Sotuvchi xarajatlari to'plami	Yetkazib beruvchilarning qo'ygan narxi

Internet-marketingda narxlarni shakllantirishdagi yana bir ustunlikni F. Kotler "*talab va taklif hajmiga bog'liq holda... narxlarni yanada tez o'zgartirish imkoniyati*" deb ataydi. Haqiqatdan ham, savdoning elektron vositalari faqat narxlarni tez o'zgartirishgagina imkon berib qolmasdan, narxlarni iste'molchilarning individual parametrlariga (xaridlar hajmi va soni, muntazamligi va shu kabilar) bog'liq holda taqqoslashga ham imkon beradi. Printsip jihatdan, sotuvchi bir vaqtning o'zida turli toifadagi iste'molchilar uchun avtomat tarzda turli ko'rinishdagi narxlarni qo'llashga hech qanday to'sqinlik mavjud bo'lmaydi.

Elektron sotuvchilar nomoddiy (axborotli) resurslar bilan ish olib boradi va "*etkazib berish zanjirining barcha bo'g'inlarida tezkor yechim va to'lovlarni taklif qila olishi mumkin*". Oxir-oqibat real mahsulotlarni sotilishiga olib kelsada, ammo narxlar bo'yicha qaror qabul qilish sohasi hech qanday cheklovlar bo'lmagan virtual makonda joylashadi.

III. Internet-marketingda mahsulot siyosati. Marketing nazariyasiga ko'ra, mahsulot "*inson ehtiyojlari yoki talablarini qondirish uchun taklif etish mumkin bo'lgan barcha narsalar bo'lishi mumkin... Moddiy mahsulotlarning qiymati ularda egalik qilishda emas, balki muayyan ehtiyojlarni qondirish xususiyatida bo'ladi*". Shuning uchun, mahsulot siyosatining ahamiyati marketingda mahsulot oxirgi xaridorining talablarini qonoatlantirish prizmasi orqali ko'rib chiqiladi. Xaridorlarning

talabi mahsulot sifati, assortimenti, yetkazib berish tezligi va marketing majmuasi elementining boshqa komponentlari bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Shu bilan birga, internet-marketing xaridorlarga tranzaksion xarajatlarni tejash bilan bog'liq bo'lgan qo'shimcha imtiyozlarni taklif etadi. Bu xarajatlar mahsulot yoki bu mahsulot to'g'risidagi axborotlarni izlash va tanlashga sarflanadigan vaqtinchalik xarajatlar yoki mahsulotni yanada qulay takliflar mavjudligi sharoitida yuqori narxlarda shoshilinch qimmatroq sotib olish natijasida yo'qotiladigan moliyaviy mablag'lar bilan bog'liq bo'ladi. Transaksiya xarajatlarning pasayishi tufayli, bir tomondan, xaridorlarga katta tanlov erkinligi ta'minlanadi, boshqa tomondan, mahsulot taklifining jozibadorligi oshadi.

Internet-marketingning tranzaksion xarajatlarni kamaytirishdagi ustunligi asosida "*individual marketing konsepsiyasi*" deb nomlangan yangi konsepsiya shakllantirildi. Bu konsepsiyaga binoan, savdoda katta samaradorlikka yuqori darajadagi individuallashtirilgan mahsulotlar va xizmatlarni interfaol kommunikatsiya orqali taklif qilish bilan erishiladi. Nafaqat har bir xaridor kompaniya uchun qadr-qimmatga ega, balki uning ehtiyojlarini namunali tarzda qondira oladigan kompaniyaning ham qadr-qimmatini baland bo'ladi. Bunday kompaniyaning mahsulot va xizmatlaridan voz kechilishi xaridorning yangi sotuvchi bilan munosabatlarni o'rnatish uchun vaqt yo'qotishi va otiqcha harakatlar (bitim xarajatlari) qilishiga olib keladi.

An'anaviy marketingda xaridorning tranzaksiya xarajatlarni kamaytirishni marketing asosi sifatida taklif etish imkoniyati mavjud bo'lmagan. Xaridorlar marketing axborotlarini to'plash va raqobatbardosh takliflarni taqqoslash uchun vaqt va imkoniyatga ega bo'lmagan.

Internet orqali esa bunday axborotlarni qiyinchiliksiz bir necha daqiqada ichida topish mumkin. Buning natijasida elektron tijoratda mahsulot taklifining individual parametrlari asta-sekin "boshqa holatlarga teng" toifasiga o'tadi, savdo sharoitlari esa takomillashgan raqobat sharoitlariga yaqinlashadi. Mahsulot bozorda bor yoki yo'q bo'lishi mumkin. Bundan xulosa qilib, mahsulot siyosati asta-sekin o'zining birinchi darajali marketing ahamiyatini yo'qotib bormoqda. B. Doyl ta'kidlaganidek: "*Zamonaviy iqtisodiyotda xizmat ko'rsatish sohasi ishlab chiqarishdan ikki baravar ko'p va nisbatan tez o'smoqda*".

Internet-marketingda mahsulot siyosati mazmun-mohiyatining transformatsiyasi amalga oshadi. Internet-marketingda mahsulot siyosatining asosiy instrumenti bo'lgan assortimentni boshqarish o'rniga “*kommunikatsiyani individuallashtirish va kostomizatsiya*”⁹ kirib keldi. Raqobatlashish mahsulot ishlab chiqarish va taklif sohasidan savdoni axborotli va logistik qo'llab-quvvatlash sohasiga o'tib boradi.

Bu erda xizmatlar marketingi o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'ladi. Undagi avvaldan mavjud bo'lgan “ichki marketing” tushunchasining maqsadi F.Kotler ta'kidlaganidek: “mijozlarga aynan ular mamnun bo'ladigan mahsulot va xizmatlarni taklif etishda xizmatchilarga yordam berishdan iborat”. Boshqacha aytganda, ichki marketing kompaniyaning bozor talablariga adekvatlik darajasini oshirish maqsadida kompaniya ichiga yo'naltirilgan bo'ladi.

Elektron tijorat o'z mazmuniga ko'ra internet-marketingda marketing vakolatlarini taqsimlash xususiyatlarini belgilab beradigan xizmatlar sohasiga taalluqli. Agarda, mahsulot marketingida marketing bo'limi mahsulotni sotishda marketing funksiyalarining katta qismini bajarsa, xizmatlar sohasida, aksincha, bu ulush ahamiyatsiz qismiga to'g'ri keladi. Asosiy marketing funksiyalari mijozlar bilan bevosita o'zaro hamkorlikda bo'ladigan xodimlar zimmasiga yuklatiladi. Internet-marketingning xizmat ko'rsatish marketingidan asosiy farqi kompaniya ichki xodimlari funksiyalarini tashqi savdo vositachilari tomonidan bajarilishi hisoblanadi. Ular mutlaq mustaqillikka ega va har biri o'z faoliyati sohasida iste'molchilarga individuallashtirgan xizmatlarni taqdim etadi.

Internet-marketingda mahsulot siyosati xaridorga virtual bozor taklif etadigan katta assortimentdagi mahsulotlarga ehtiyoj yo'qligiga asoslanadi. Xaridor o'zining ehtiyojlarini maksimal darajada qondira oladigan aniq parametrlarga ega aniq mahsulotni izlaydi. Sotuvchining vazifasi - nafaqat maksimal assortimentdagi mahsulotlarni taklif qilish, balki, har bir xaridorning individual ehtiyojlarini hisobga olishdan iborat, ya'ni, boshlang'ich nuqta taklif emas, talab hisoblanadi. Demak, vositachilar yetkazib beruvchilar emas, balki, xaridorlarning manfaatlariga muvofiq faoliyat olib borishi zarur.

⁹ Kostomizatsiya – inglizcha customer –mijoz, iste'molchi) umumqabul qilingan ma'noda – bu ommaviy mahsulotni qo'shimcha elementlar yoki aksessuarlar qo'shish yo'li bilan iste'molchining aniq buyurmasi asosida tayyorlash

Shu sababli, ommaviy talabdagi oddiy mahsulotlarni Internetda sotish murakkab kechishi bejiz emas. Mahsulot aniq bir xaridorning ehtiyojlariga qarab individuallashtirilishi kerak. Boshqacha aytganda, an'anaviy savdoda qandaydir parametrdagi mahsulotni taklif qilish xaridor talabini qondirmasligi mumkin. Shu sababli, internet-marketing ko'p bo'lgan mahsulotlarni emas, balki, aynan xaridorgir bo'lgan mahsulotlarni eng samarali targ'ib qiladi. Xaridor Internetga o'ziga zarur bo'lgan mahsulotini tez va minimal transaksiya xarajatlari bilan topish uchun kiradi. Elektron savdoda ko'p mahsulot taklif qiladigan emas, balki, aynan xaridorlar tomonidan talab qilinayotgan mahsulotni taklif qila oladigan shaxs peshqadam sotuvchi hisoblanadi.

Mahsulot taklifini individuallashtirilishi natijasida marketing faoliyatining umumiy yo'nalishini o'zgartirilishiga olib keladi. Mahsulotlarni taklif qilayotgan logistik vositachilar yetkazib beruvchi bilan xaridor nomidan munosabatga kirishgan holda bozor talabining holati to'g'risidagi axborotlar egasiga aylanadi. Mahsulotlarni yetkazib beruvchi nomidan sotish bilan birga, maqsadli auditoriyadagi iste'molchi talablarini imtiyoz va chegirmalarga ayirboshlaydi.

8.4. Internet-marketingda kommunikativ siyosat institusionallashuvi

Tarmoq tijoratining rivojlanishi marketing kommunikatsiyalari xususiyatlarini sezilarli darajada o'zgartirdi. Auditoriyaga axborotli ta'sir etish vositasidan mijozlar va kentragentlar bilan muloqotga kirishish vositasiga, shuningdek, internet-marketingda jamoaviy qarorlarni qabul qilish instrumentiga aylandi. Bugungi kunda kommunikatsiyaga kompaniya va uning iste'molchilari o'rtasidagi interfaol muloqot sifatida qaraladi. Xarid qilishdan oldin, xaridni amalga oshirishda, iste'mol qilishda va iste'mol qilishdan keyingi bosqichlarida amalga oshiriladi.

Natijada, yetkazib beruvchi va vositachilar, nafaqat har bir mahsulot to'g'risidagi, balki uning har bir xaridori va sotilishi to'g'risidagi marketing axborotlarni tahlil qilish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bu marketing kommunikatsiyalarini qurishda ikkita o'ziga xos bitimlar marketingi va o'zaro munosabatlar marketingi yondashuvni birlashtirishga imkon berdi.

Internet-kommunikatsiya savdo bozorlarini cheksiz hududli bo'lishiga va ko'p sonli mijozlarga xizmat ko'rsatishni individuallashtirishga imkon beradi. Bir tomondan, Internetda maqsadli auditoriya va alohida individual mijozlar bilan to'g'ridan-to'g'ri kommunikatsiya paydo bo'lsa, boshqa tomondan, marketing ma'lumot bazasini yuritish, hamkor va mijozlar bilan individual aloqa o'rnatishni avtomatlashtirish imkoniyatini yaratadi. Natijada marketing kommunikatsiyalari bir vaqtning o'zida individuallashtiriladi, tabaqalashtiriladi va avtomatlashtiriladi.

Mazkur holat virtual muhitda axborotli o'zaro hamkorlikni ta'minlash uchun mas'ul bo'lgan logistika vositachilarining maxsus turini shakllanishiga olib keldi. Bu yerda xaridor va kontragentlar bilan o'zaro hamkorlikni avtomatlashtirishning "CRM-tizimlar" (Customer Relationship Management) deb nomlanuvchi dasturiy vositalar majmuasidan kommunikatsiyada foydalanish to'g'risida gap bormoqda. CRM-tizimlar marketing axborotlarini to'plash va qayta ishlash, shuningdek, tijorat axborotlari almashinuvini tezlashtirish uchun foydalaniladi.

CRM-tizim mijozni marketing tahlilining asosiy ob'ekti sifatida ko'radi. Bu logistik oqimlarning ichki parametri tahlil ob'ekti hisoblanadigan avtomatlashtirilgan logistika tizimlari va CRM o'rtasidagi asosiy farq hisoblanadi. CRM-tizimlarining asosiy funktsiyasi kontragentlar, yetkazib beruvchilar va iste'molchilar to'g'risidagi axborotlarni to'plash, qayta ishlash va tahlil qilish, shuningdek, ichki axborot oqimlarini o'z ichiga olgan holda Internet tarmog'idagi mijozlarga elektron savdo va xizmatlari ko'rsatishni avtomatlashtirishdan iborat bo'ladi.

Misol sifatida Germaniya "SAP AG" kompaniyasining CRM-tizimini keltirish mumkin. Mijozlar ma'lumotlar bazasi bu tizimning yadrosini tashkil etadi, foydalanuvchilar bu ma'lumotlar bazasi asosida mijozlar bilan aloqa, mijozlar bilan munosabat, xaridlar tarixi va shartnomalar samaradorligi va boshqalarni tahlil qiladi. Dasturiy mahsulotdan foydalanish qo'llanmasida ko'rsatilgandek, CRM tizimi *"shuningdek, ular bilan ishlash tarixi bazasida ham mijozlarni turli kesimlarda tahlil qilish va ular hulqi modellarini qurib olishga imkon beradi"*.

CRM tizimlarining imkoniyatlaridan foydalanib sotuvchi maqsadli auditoriya, potentsial savdo, taklif parametrlari va marketing kommunikatsiyaning boshqa xususiyatlarini oldindan aniqlaydi. Natijada tijorat

takliflarini haqiqatdan ehtiyoj sezilgan maqsadli bozor xaridorlariga etkazishligiga imkon yaratadi. Xar ikkala Internet texnologiyasi ham avtomat tarzda, ba'zi hollarda inson aralashuvisiz ham amalga oshirilishi mumkin. Internet-marketingni avtomatlashtirish holda virtual kommunikatsiyaning barcha komponentlariga ta'sir qiladi va mahsulotlarni harakatlantirish bo'yicha sof texnik funktsiyalarga aylantiradi. Elektron tijorat internet-marketingda reklama mohiyatini *“ishontirishdan ko'ra ko'proq axborot berish”* tavsifiga o'zgartiradi.

Internet tarmog'ida marketing kommunikatsiyalarining muhim xususiyati shundaki, savdolarni individuallashtirish tufayli xaridorlar internet-marketingning teng huquqli ishtirokchilariga aylanadi. Ular virtual mahsulotlarni yetkazib beruvchilar bilan to'g'ridan-to'g'ri o'zaro hamkorlikni o'rnatib mustaqil ravishda virtual hamjamiyatlarni tuzishi mumkin. Masalan, yosh onalar ijtimoiy tarmoqda bolalar kiyimini ulgurji partiyasini sotib olish uchun birlashishi mumkin. Bu ularga mahsulotlarni ulgurji narxlarda sotib olishga sharoit yaratadi.

Natijada tashqi va ichki marketing o'rtasidagi chegara yo'qolib boradi. Doimiy xaridorlar savdoning virtual infratuzilmasining bir qismiga, transformatsiyalayotgan kommunikatsiyaning manbaa va maqsadiga aylanadi. Ularning o'zi qabul qilinayotgan marketing qarorlariga faol ta'sir ko'rsatgan holda, vositachi va sotuvchilarga yo'naltirilgan internet-marketing bilan faol shug'ullanishni boshlaydi. Natijada, elektron tijoratda ichki marketing sohasi buzilib, marketing kommunikatsiyalari sohasiga qo'shilib ketadi. Amerika marketing nazariyasi klassigi F. Kotler xizmat ko'rsatish sohasi ichki marketingini to'rt yo'nalishga ajratadi. Internet-marketingda bu yo'nalishlar ko'rinish jihatdan o'zgardi va yangi mazmun bilan to'ldirildi, ammo o'z dolzarbligini yo'qotmadi:

1. Mijozlarga xizmat ko'rsatish madaniyatini shakllantirish - marketing kommunikatsiyalarini amalga oshirish me'yor va qoidalarini shakllantirishga transformatsiya qilinadi. Misol uchun, “eBay” internet-auksionida sotuvchi tomonidan savdo qoidalari bajarilmagan taqdirda xaridor “PayPal” to'lov tizimida muhokamaviy munozara ochishi va amalga oshirilgan to'lovni avtomat tarzda qaytarib olish xuquqiga ega. Barchasi avtomat tarzda amalga oshiriladi va kommunikatsiya ichki texnik jarayonga aylanib boradi.

2. *Xodimlarni boshqarishga marketing yondashuv* – hamkorlar, haridorlar va savdo vositachilari bilan o'zaro hamkorlikni ta'minlash va izlash bo'yicha marketing yondashuvlarga transformatsiya qilinadi. Virtual kompaniyalar virtual tuzilishga ega bo'lib, unda loyiha va buyurtmalar uchun alyanslar tuziladi, munosabatlarning har bir ishtirokchisi esa mutlaqo mustaqil bo'ladi. Bunday vaziyatda kommunikatsiya virtual tashkilotning birligini ta'minlash va umumiy maqsadlarga erishish uchun harakatlarni muvofiqlashtirishga yo'naltirilgan bo'ladi.

3. *Axborotning ichki oqimlarini tashkil qilish* - marketing axborotlari tarmoq ichki oqimlarini tashkil etishga transformatsiya qilinadi. Elektron tijoratda ichki va tashqi axborot oqimlari o'rtasidagi farq olib tashlanadi. Xaridor sotuvchining marketing kommunikatsiyasiga kirib axborot oqimlari bir vaqtning o'zida ikki yo'nalishda ketadigan kommunikativ tarmoqning bir qismiga aylanadi.

4. *Xodimlarni mukofotlash va tan olish* - daromadlarni virtual hamkorlar o'rtasida taqsimlash tizimiga va virtual maqomidagi tizimga transformatsiya qilinadi. Bir tomondan, xodimlarni yollash virtual professional jamoalarda amalga oshiriladi, bu yerda har bir ishtirokchining professional mahorati muvaffaqiyat va yutuqlar garovi hisoblanadi¹⁰. Boshqa tomondan, masalan, har qanday savdo maydonchasi foydalanuvchilarni maqomi va ishonch darajasini aniqlovchi individual reyting tizimini ko'zda tutadi. Natijada, marketing kommunikatsiyalari maqsadli auditoriya bilan interfaol hamkorlikning institutsionallashgan vositasiga aylanib, boshlang'ich iste'molchilar talabini rag'batlantiruvchanlik ahamiyatini yo'qotadi. Bunda xaridorlar foyda ko'rishadi, chunki, endi reklama kampaniyalariga qilingan xarajatlarni mahsulotlarni sotib olishda kompensatsiya qilishi shart bo'lmaydi, ya'ni, sotib olinayotgan mahsulot tannarxida bu xarajatlar o'z aksini topmaydi, sotuvchilar tomonidan olinayotgan marketing axborotlarining adekvatligi esa ortib boradi.

Internet-marketingning institutsionallashuvi. Elektron tijoratdagi institutsional siklning hozirgi (ikkinchi) bosqichida bozor munosabatlarning sub'ektlari internet-marketingini institutsionallashuvi jarayonining asosiy ishtirokchilari hisoblanadi. Bu jarayonda davlat institutsional

¹⁰ Masalan, "Professional.Ru" ijtimoiy tarmoq saytiga qarang - <http://professional.ru>.

munosabatlarni tartibga soluvchi sifatida hozircha amaliy jihatdan ishtirok etmaydi.

Institutsional rivojlanish xizmatlarni arzonlashuvi yo'nalishida, shuningdek, xarid va savdo texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlarini oshirgan holda elektron tijorat texnologiyalarining rivojlanishi bilan birga bormoqda. "Yangi iqtisodiyotdan" farqli o'laroq, elektron tijoratda ishtirok etishdagi asosiy dividendlarni savdo vositachilari, bank va investorlar emas, ishlab chiqaruvchi va xaridor oladi.

Amerikalik marketologlar M. Kristofer va X. Pek elektron tijoratda internet-marketingning yo'nalishi o'zgarishini to'liq aks ettiruvchi "sezgir tashkilot"ning uchta asosiy belgisini ajratib ko'rsatadi:

- 1) funktsiyalardan jarayonlarga o'tish;
- 2) mahsulotlardan xaridorlarga o'tish;
- 3) foydadan samaradorlikka o'tish.

Internet-marketing allaqachon institutsional asosga ega bo'ldi, ammo, hozircha institutsional shaklga ega emas. Internet-marketing o'zining rivojlanishida marketing nazariyasi va amaliyotini tashkil etishning sifat jihatidan yangi (tizimli) shakli sifatiga ega bo'lib umumiy marketing yo'lini takrorlaydi. An'anaviy marketing nazariyasining 1930-1940 yillarda shakllangan uchta konsepsiyasi bu yo'lning bosqichlarini tavsiflab beradi:

1. *Marketingni taqsimlovchi konsepsiyasi* - marketing tadbirlari samaradorligini bozorda mahsulotlarning optimal mavjud bo'lishini ta'minlash bilan bog'laydi. Raqobatni etishmasligi sharoitida (an'anaviy marketingdagi kabi) yoki yangi xaridorlarning doimiy kirib kelishi sharoitida (internet-marketindagi kabi) savdoni tashkil etishda taqsimlash xal qiluvchi ahamiyatga ega hisoblanadi.

2. *Marketingni institutsional konsepsiyasi* - marketing tadbirlari samaradorligini bitimda ishtirok etayotgan barcha tomonlarning o'zaro hamkorlik samaradorligi bilan bog'laydi. Internetda yetakchilik qilayotgan kompaniyalar alohida misol sifatida keltirish mumkinligiga qaramay, institutsional hulqlarning bu konsepsiyani umum qabul qilish darajasiga olib chiqadigan yagona qoidalari hali ishlab chiqilmagan.

3. *Marketingni funktsional konsepsiyasi* - marketing tadbirlari samaradorligini umum e'tirof etilgan marketing funktsiyalari, strategiyal-

ari va vositalarining standart to'plamini amalga oshirish bilan bog'laydi. Bu tushuncha internet-marketingni institutsional rasmiylashtirish davri tugaganidan so'ng, uning barcha asosiy instrument va usullari tavsiflanganidan keyin dolzarb bo'lib qoladi, elektron tijorat bozori esa barqaror tuzilishga ega bo'ladi.

Uchta tushuncha ham, marketing munosabatlari va bozor talablarining tobora ortib borayotgan murakkabligini aks ettirgan holda bir-birini to'ldiradi. Bugungi kunda internet-marketingda rivojlanish salohiyati hali tugamagan taqsimlash konsepsiyasi ustunlik qiladi. Deyarli har yili Internetda mahsulotlarni harakatlantirishning yangi usullari (ijtimoiy tarmoqlar, bloglar, savdo platformalari va boshqalar), shuningdek, ular bilan bog'liq tegishli maqsadli bozorlar paydo bo'lib bormoqda. Ulardan marketing vositasi sifatida foydalanish tajribasi umumlashtiriladi, ammo, qarama-qarshi ma'nodagi axborotlarning ko'pligi sababli shu vaqtgacha miqdor ko'rsatkichidan sifat ko'rsatkichga o'tilmadi.

Taqsimlash konsepsiyasi savdoni tashkil etishning yangi shakl va usullarini shakllantirish bilan uzviy bog'liq bo'ladi. Bu konsepsiyaning asosiy g'oyasi shundan iboratki, savdo samaradorligi bozor xududida mahsulotni to'g'ridan-to'g'ri optimal tarqatilishiga bog'liq bo'ladi. Taqsimlash konsepsiyasi internet-marketingda salohiyatli xaridorlar uchun mahsulotlarni virtual taklif qilishni maksimallashtirishni ifodalaydi.

Marketingning institutsional konsepsiyasi ustuvorligiga o'tilishi internet-marketingning shakllanayotgan nazariyasi to'plangan tajribani umumlashtirgan va tasniflagan vaqtdan boshlanadi. Amaliyot shuni ko'rsatadiki, internet-marketingda marketing konsepsiyalarining ustuvorlik qilishi elektron tijorat institutsional siklining bosqichlari bilan bevosita bog'liqdir. An'anaviy va internet-marketing o'rtasida farqlar mavjud bo'lishiga qaramay, bu yerda marketingni amaliyot va nazariyasini rivojlantirishning umumiy qonunlarini ko'rib chiqmoqdamiz.

Elektron tijoratda transaksion xarajatlarni kamaytirish sohasidagi inqilob marketingni Butun jahon tarmog'iga transformatsiya qilinishiga katta ta'sir ko'rsatdi. Marketing yutuqlarining o'tkinchi tabiatga egaligi an'anaviy marketingning har doim zaif tomoni bo'lib kelgan. Bu har qanday marketing yechimi raqobatchilar uni o'z faoliyatiga qabul qilgunga qadar samarali bo'lishi bilan bog'liq.

An'anaviy marketingda har qanday marketing novatsiyadan tez nusxa ko'chirish va qayta ishlab chiqilishi poyoniga etmayotgan marketing poygasi natijasi hisoblanadi, bu esa shunday ham yuqori bo'lmagan samaradorlikni yanada tushib ketishiga olib keladi. Oxirgi o'n yilliklarda muvaffaqiyatga erishgan raqobatchilardan marketing novatsiyalarini zudlikda nusxalashga asoslangan marketing siyosati - benchmarking katta ahamiyatiga ega bo'lganligi tasodif emas. Boshqa tomondan, an'anaviy iqtisodiy subektlarga hali ham mavjud savdo va mahsulotni harakatlantirish infratuzilmasini qo'llab-quvvatlash zaruriyati bor. Bu bilan ular nafaqat elektron tijorat sub'ektlaridan o'z strategik qoloqligini saqlab qolmasdan, elektron tijoratni jadal rivojlanishi uchun qulay marketing sharoitini ham yaratadi.

Elektron tijoratda olib borilayotgan marketing tadbirlari ko'lamidan qat'i nazar, savdo samaradorligi oxir-oqibat amalga oshirilgan xaridlarning samaradorligi bilan belgilanadi. Boshqacha qilib aytganda, xaridor uchun bitim qanchalik foydali bo'lsa, sotuvchilar tomonidan ko'rsatiladigan marketing hiylalar shunchalik kam ahamiyatga ega bo'ladi. Elektron tijoratdagi virtual bozor sharoitlari imkon qadar mukammal raqobat sharoitlariga yaqin hisoblanadi. An'anaviy iqtisodiyotda bo'lgani kabibu yerda ham xaridorni mahsulotning haqiqiy sifati yoki uning narxi to'g'risida adashishiga olib kelish mumkin. Ammo taktik muvaffaqiyat xaridorlar ishonchini yo'qotishi sababli muqarrar ravishda strategik mag'lubiyatga aylanadi.

Elektron tijoratning o'ziga xos xususiyati Internetning globalligidir: bir vaqtning o'zida ko'plab sotuvchilar xususiyatlari bo'yicha o'xshash bo'lgan mahsulotlarni taklif qiladi. Bundan tashqari, sotuvchi va xaridorlar o'rtasidagi transaksion xarajatlar hajmi an'anaviy iqtisodiyotga nisbatan taqqoslash mumkin bo'lmaydigan darajada past bo'lib, bu an'anaviy harakatlantirish shakllarining marketing ahamiyatini yo'qqa chiqaradi.

Internetning virtual makonida axborotlarni nazoratsiz tarqatish tezligi va iste'molchilar o'rtasidagi kommunikatsiyalar soni bir necha marta ortib ketadi. Biron bir sotuvchi Internet tarmog'idagi kommunikatsiyani nazorat qila olishi mumkin emas, shuning uchun noto'g'ri yo'naltirilgan reklama, oshirilgan narx va marketingning boshqa an'anaviy instrumentlari asta-sekin o'z dolzarbligini yo'qotib boradi. Har qanday xaridor bir necha

daqiqada Internetda taklif etilayotgan mahsulot, narxlar va raqobatdosh mahsulotlar to'g'risida maksimal axborotga ega bo'la oladi.

Bu holda, an'anaviy kompaniya ichki funksiyalarini (logistika, kommunikatsiya, va boshqalar) tashqi mustaqil vositachilarga berilganligi internet-marketingni butun e'tiborni transaksiya xarajatlarini tejash muammolariga qaratishga olib keldi. Shu bilan bog'liq holda, tarmoq iqtisodiyotida marketingni yangi turli ko'rinishi - virtual savdo tarmog'i ichidagi mustaqil hamkor va xaridorlar bilan to'g'ridan-to'g'ri transaksional samaradorligini oshirishga qaratilgan *tranzaksiya marketingi* to'g'risida gapirish mumkin.

Transaksiya marketingda logistika va savdoni avtomatlashtirishdagi raqobatchilariga nisbatan eng yaxshilar hisobiga raqobat ustunligiga erishiladi. Aynan shu mexanizm elektron tijoratning ko'plab shakl va usullarining jadal rivojlanishi asosini tashkil etadi. Elektron tijoratda transaksion xarajatlarni kamaytirishga qaratilgan marketing faoliyati eng muhim raqobatbardosh vositaga aylanmoqda. Bu kurashda xarajatlarni tushirish va internet-kommunikatsiyalarning imkoniyatlaridan keng foydalanishyo'li bilan o'z marketing imkoniyatlarini maksimallashtiradigan bozor ishtirokchilari muvaffaqiyatga erishadi.

Nazorat uchun savollar:

1. Elektron tijorat ishlab chiqaruvchi va yetkazib beruvchilar olib boradigan jarayonlarda vaziyatni qanday o'zgartirdi?
2. Internet-marketingda mahsulot narxini shakllantirish siyosati qanday amalga oshiriladi?
3. Internet-marketingda mahsulot siyosati qanday amalga oshiriladi?
4. "Individual marketing konsepsiyasi"ni qanday izohlash mumkin?
5. Elektron tijoratda sotuvchining vazifasi nimadan iborat?
6. Internet-marketingda kommunikativ siyosat institusionallashtirishini qanday izohlash mumkin?
7. CRM-tizimlar marketing faoliyatida qanday foydalaniladi?
8. Xizmat ko'rsatish sohasi ichki marketingining qanday yo'nalishlari bor?
9. "Sezgir tashkilot"ning qanday asosiy belgilarini ajratib ko'rsatish mumkin?

9-BOB. ELEKTRON TIJORATDA DROPSHIPPING FAOLIYATI

9.1. Dropshipping tizimini institutsionallashtirilishi

Elektron tijoratda savdo texnologiyalarining rivojlanishi savdo vositachilarini iste'molchilarning maqsadli auditoriyasiga e'tibor qaratib, hududiy bozor chegaralaridan chiqib ketgan holda maksimal virtuallashtirish yo'nalishida rivojlanib bormoqda. Tarmoq iqtisodiyotida paydo bo'lgan va virtual bozorlarni tezda qamrab olgan unitilgan savdo usuli - dropshipping yuqori darajada virtuallashtirilgan hisoblanadi. Shu ma'noda, marketing imkoniyatlari va institutsional afzalliklarini to'liq ochib bergan dropshippingni elektron tijoratning e'taloni deb hisoblash mumkin.

Dropshipping marketing nazariyasining deyarli butun tarixi davomida savdoni tashkil qilishning usuli sifatida ma'lum bo'lgan¹¹. 1927 yildayoq, Amerika marketolog olimlari G. Meynard, V. Veydler va T. Bekman tomonidan dropshipping batafsil tavsirlab berilgan: *“Dropshipper... ofisga ega, ammo unda moddiy mahsulotlar mavjud emasligidan omborga ega emas ... u mahsulotlarga mulkchilik huquqi va jo'natish uchun javobgarlikni o'ziga oladi.”* Bundan tashqari, allaqachon *“dropshipper xizmat ko'rsatishda funktsiyalari cheklangan eng muhim ulgurji sotuvchi”*.

Dropshipperlarni katta qismi (90%) asosan ko'mir va kokos savdosi bilan shug'ullangan. Mahsulot tannarxini oshirib yuboradigan funktsiyalardan voz kechish (omborga joylashtirish, yuklash va tushirish va h.k.) hisobiga dropshipperlar transaksiya harajatlarning o'rta statik ulushi umumiy savdo hajmining o'sha vaqtlardayoq 6,4 foyizini tashkil etgan, aynan shu ko'rsatkich to'liq funktsionalli ulgurji savdoda 21,0 foyiz bo'lgan.

Dropshipperlarning asosiy ustunligi ularda savdo shartlari va yetkazib beruvchilarning sotish narxi to'g'risidagi axborotlarga ega bo'lishidir¹². Kommunikatsiyani rivojlanmaganligi sharoiti ularga B2B sohasida to'g'ridan-to'g'ri mahsulot yetkazib berishni tashkil qilish bilan

¹¹ Dropshipping (ingl. Dropshipping) – to'g'ridan-to'g'ri etkazib berish (so'zma-so'z tarjimasi - jo'natish)

¹² Dropshippingning ingliz tilidagi jarangdor nomi *“desk jobber”* - o'z stolini tark etmaydigan vositachi.

foйда chiqarib olish imkonini bergan. Biroq, elektron kommunikatsiyalarining rivojlanishi bilan dropshipperlar raqobatdagi ustunliklarini yo'qota boshladi.

Shuning uchun, 1960 yillarning oxiridan boshlab dropshipping asta-sekin mustaqil ulgurji savdo ko'rinishidan iqtisodiy maqsadga muvofiqligidan kelib chiqqan holda uni bozorning barcha ishtirokchilari qo'llaydigan vositaga transformatsiya qilindi. Amerikalik dropshipping tadqiqotchisi N.Shil o'zining monografiyasini "Dropshipping marketing funksiyasi sifatida" deb nomlaganligi tasodif emas.

1990-yillar oxirida tarmoq iqtisodiyotining shiddat bilan rivojlanishi endi B2C sohasiga qayta qo'llanishida dropshippingni yangi tizim darajasiga olib chiqdi. Uni qayta tiklanishi uchun elektron tijorat va turli bozorlarda mahsulotlar narxidagi sezilarli farqlar intutional sharoit bo'lib xizmat qildi. Dropshipperlar interfaol ravishda chet el bozorlarida chakana mahsulotlarni sotib olish va shu vaqtgacha eksportyor hamda an'anaviy ulgurji sotuvchilar qo'lida bo'lib kelgan tegishli foydani olish imkoniga ega bo'ladi.

Dropshipping elektron tijorat institut va vositalari orasida o'ziga xos o'rinni egallab olganidan an'anaviy sotuvchilar dropshipperlarga hech qanday qarshilik ko'rsata olmadi. Davlat ham dropshipperlarga hech bir chora ko'rolmaydi, chunki dropshippingda savdo moddiy mahsulot va unga bo'lgan mulkiy huquqlarni vositachilarga berilmasdan va ba'zan munosabatlarni qonuniy rasmiylashtirmasdan ham virtual holatda amalga oshiriladi.

Dropshipping mutlaqo virtualdir, chunki, dropshipperlar bir vaqtning o'zida yetkazib beruvchi bilan munosabatlarda xaridorning rolini va iste'molchi bilan munosabatlarda yetkazib beruvchining rolini o'ynaydi, aslida esa unisi ham, bunisi ham emas. Elektron tijoratda dropshippingni tashkillashtirish mexanizmini beshta asosiy bosqichdan tashkil topgan harakatlar ketma-ketligi sifatida tasavvur qilish mumkin:

1-bosqich. Vositachi, mahsulotni chakana narxdan ancha past bo'lgan narxda taklif etayotgan yetkazib beruvchi saytini mustaqil ravishda topadi. Yetkazib beruvchini tanlashda dropshipperga logistik xizmat ko'rsatish: axborot almashinuvi, buyurtmalar ijrosi, to'lovlarni

qabul qilish va reklama, mahsulotlar ta'minotning tashkil etish darajasi katta ahamiyatga ega bo'ladi.

2-bosqich. Dropshipper sinov xaridlarini amalga oshiradi va yetkazib beruvchi bilan hamkorlik shartlarini (kafolat, yetkazib berish shartlari va boshqalar) muhokama qiladi. Sinovli xarid mahsulotning sifatini tekshirish va yetkazib beruvchi bilan o'zaro munosabatlarni rivojlantirish uchun o'ta muhim jarayon hisoblanadi. Bu, xususan, tomonlarning huquqiy munosabatlari rasmiylashtirilmaydigan va dropshipper yetkazib beruvchi uchun yakuniy xaridor bo'lib xizmat qiladigan holatda yanada dolzarb bo'ladi.

3-bosqich. Dropshipper yetkazib beruvchining veb-saytiga kirib mahsulot to'g'risidagi ma'lumot hamda rasmlaridan nusxa ko'chiradi yoki uni mustaqil ravishda amalga oshiradi va so'ngra o'z nomidan mahsulotni savdoga qo'yadi. Odatda, dropshipper maqsadli auditoriyaning iste'mol talablarining xususiyatlarini sotuvchidan kura yaxshiroq biladi. Mustaqil ravishda elektron savdo joyini va xaridorlar bilan internet-kommunikatsiya parametrlarini belgilaydi.

4-bosqich. Xaridor mahsulotlarni dropshipperdan sotib oladi. Dropshippingning vazifasi buyurtmalarni qabul qilish va yetkazib beruvchiga uzatish, shuningdek, mahsulotlar uchun o'z ulushini chegirib qolgan holda to'lovni o'z vaqtida o'tkazib berishdan iborat. Bu bosqichda dropshippingning ish samaradorligining mezonlari quyidagilar: buyurtmalarni uzatish va mahsulotlar uchun to'lovlar, tezligi, buyurtmalar to'g'risidagi axborotlarning to'liqligi va ishonchliligi.

5-bosqich. Yetkazib beruvchi to'lovi amalga oshirilgan mahsulotlarni dropshipper nomidan u taqdim etgan manzilga jo'natadi. Bu yerda dropshippingning xaridor va yetkazib beruvchilar bilan sotuvdan keyingi aloqalari katta ahamiyatga ega hisoblanadi. Dropshipper mahsulotlar harakatini kuzatadi, shikoyatlarni qabul qilib oladi va yetkazib beruvchiga iste'mol talabining holati to'g'risida axborot beradi. Aynan dropshipperlar mahsulotlar sifati va tegishli logistika xizmatlarining sotilishi uchun javobgarlikni o'z zimmasiga olgan holda xaridorlar ko'z o'ngida mahsulot egasiga aylanadi

Bu bozorga kirish to'siqlari juda kam va dropshippingni ixtiyoriy internet foydalanuvchilari amalga oshirishi mumkin. Internetning har

qanday foydalanuvchisi taniqli chakana sotuvchilar bilan teng sharoitlarda raqobatlashib jiddiy moliyaviy sarmoyalar kiritmasdan dropshippingni amalga oshirishi mumkin. Dropshipping katta boshlang'ich mablag'ni talab qilmagani uchun tadbirkorlik riski eng minimal darajada bo'ladi.

Dropshipper tomonidan mahsulotlar uchun to'lov faqat xaridorlar tomonidan to'liq to'langandan so'ng amalga oshiriladi. Agar yetkazib beruvchi mahsulotni o'z vaqtida yetkazib bermasa yoki mahsulotlar aniqlab berilgan parametrlarga mos kelmagan holatda dropshipper muam-molarga duch kelishi mumkin. Dropshippingni vositachilik faoliyatida institutsional afzalliklari orasidan quyidagilarni ajratib ko'rsatish mumkin:

1. Dropshipperga mahsulotni saqlash binolari talab qilinmaydi. Savdoni tashkil qilish uchun asosan Internetga bog'lanib ishlashga imkon beradigan kompyuter va mahsulotlarni to'g'ridan-to'g'ri oxirgi xaridor manziliga jo'natish to'g'risida yetkazib beruvchi bilan shartnomaning mavjudligi talab qilinadi.

2. Xaridor manziliga mahsulotni jo'natish bilan bog'liq barcha jarayonlarni yetkazib beruvchi o'z zimmasiga oladi. Shuningdek, pochta jarayonlarini kuzatib borish raqamini taqdim etadi, kafolat va kafolatdan keyingi xizmatni tashkil qiladi, nuqsonli mahsulotlarni almashtiradi va mahsulot to'g'risida kerakli axborotlarni beradi.

3. Dropshipper bir vaqtning o'zida bir nechta yetkazib beruvchi bilan hamkorlik qilish imkoniyatiga ega. Faoliyat yuritishida taklif qilinadigan mahsulotlar assortimenti va savdo geografiyasi bo'yicha hech qanday cheklovlar qo'yilmaydi.

4. Yetkazib beruvchining dropshipper nomidan mahsulotlarni yuborishi hisobiga, o'zining taniqli brendni yaratishi va mahsulotlarni Internetda mustaqil ravishda reklama qilish imkoniyatiga ega.

Elektron tijoratning bir shakli sifatida dropshipping to'g'ridan-to'g'ri sotishni tashkil qilishda marketing texnologiyalarining ba'zi elementlaridan foydalanadi. Qaysidir ma'noda, dropshippinglarning ishi hatto savdo vakillarining ishiga o'xshaydi. Biroq, aniq o'xshashliklarga qaramay, dropshipping va savdo vakillari o'rtasida aniq farqlar mavjud.

Birinchiidan, ikkisi ham savdodan tushadigan daromad uchun ishlaydi. Shu bilan birga, savdo vakilidan farqli ravishda, dropshipping oladigan mukofotni o'zi belgilaydi. Yetkazib beruvchi nafaqat bu to'lov

miqdoriga ta'sir qila olmasligi, xatto bu to'g'risida xabardor bo'lmaydi ham. Faqat oldindan to'lovni olgandan keyin mahsulotlarni dropshipping aniqlab bergan manzilga yuboradi.

Ikkinchidan, to'g'ridan-to'g'ri savdoda bo'lgani kabi, yetkazib beruvchi dropshippinglarni axborotli qo'llab-quvvatlaydi va ta'minot kafolatini taqdim etadi. Ammo, bu qo'llab-quvvatlash faqat yetkazib beruvchining veb-saytida "axborot materiallari olish imkoniyati va alohida holatlarda, dropshippinglar uchun ishlaydigan "qaynoq aloqa" bilan cheklangan. Ta'minotchilar tomonidan dropshippingda sinov mahsulotlarini berish va bosma materiallar taqdim etish, treninglar va barcha materiallarni berish ko'zda tutilmaydi.

Uchinchidan, ta'minotchi, savdo vakillarining faoliyatidan farqli ravishda dropshippinglar faoliyati uchun xaridorlarga javobgar emas. Bir vaqtning o'zida, dropshippingni ham yetkazib beruvchi oldida xech qanday majburiyatlari yo'q. Ular mahsulotlarga to'lovni amalga oshirishi va xaridorga mahsulotlarni jo'natish lahzasida iqtisodiy munosabatlarga kirishadi.

Dropshipping mahsulot ishlab chiqaruvchilar uchun an'anaviy mahsulot harakatlantirish tizimida mavjud bo'lmagan institutsional afzalliklarni taqdim etadi. Shuning uchun, mahsulot ishlab chiqaruvchilar uchun dropshipping ko'p hollarda "qo'shimcha emas, balki bozorga kirishning muqobil usuli"ga aylanadi. Ishlab, chiqaruvchilar dropshippingga murojaat qilib, quyidagi sabablarga ko'ra transaksion xarajatlarni tejab qolish hisobiga quyidagi marketing imkoniyatlariga ega bo'ladi:

1. Ishlab chiqaruvchilar, kontragentlarga kreditga mahsulotlar berishdan saqlanadi, shuningdek, ortiqcha ishlab chiqarish va moliyaviy institutlarga qaramlik muammolarini hal qilgan holda yetkazib berilayotgan mahsulotlar uchun avans to'lovlarini o'z vaqtida oladi.

2. Ishlab chiqaruvchilar marketing tadqiqotlari bo'yicha qo'shimcha xarajatlarni tejashdan tashqari, iste'molchilar talabi va bozor konyunkturasining o'zgarishlariga o'z vaqtida e'tibor jalb qilgan holda ishlab chiqarish dasturlarini real bozor talablariga moslashtiradi.

3. Dropshipperlar yetkazib beruvchilar nomidan tez va samarali teskari aloqa mavjudligi sharoitida kerakli parametrlarga ega mahsulotlarni

taklif etgan holda iste'molchilarning maqsadli auditoriyasiga to'g'ridan-to'g'ri savdo takliflari bilan chiqadi.

4. Ishlab chiqaruvchilar iste'molchilar tomonidan buyurtma qilingan aniq miqdordagi mahsulotlarning yetkazib beradi, saqlab turilishi lozim bo'lgan mahsulot zahiralari minimallashtiriladi, savdo sikli qisqaradi va ishlab chiqarishni o'z vaqtida tartibga solish imkoniyatiga ega bo'ladi.

5. Ishlab chiqaruvchilar oldindan to'langan mahsulot daromadlaridan servis xizmatlarga to'lash orqali tuzilgan shartnomalarni amalga oshirish uchun provayderlarni jalb qiladi, natijada transaksiya xarajatlari tushirilgan holda tadbirkorlik risklari keskin kamayadi.

6. Ishlab chiqaruvchi xodimlarni ushlab turish uchun olingan foydaning sezilarli qismi ketadigan savdo bo'limlari tarkibini qayta tashkil etish (qisqartirish) hisobiga ahamiyatli tejamkorlikka erishadi.

7. Dropshipper xizmatlari uchun to'lovning komission shakliga o'tilishi bir vaqtning o'zida oxirgi ijrochilarning savdo natijalariga manfaatdorligini oshirgan holda, ishlab chiqaruvchilarga savdo bo'linmasi xodimlarini ushlab turish zaruriyati qolmaydi.

8. Ishlab chiqaruvchilarga aylanma mablag'larini kontragentlarga kredit asosida mahsulotlarni berishga yo'naltirishga hojat qolmaydi, bu resurslarni ishlab chiqarish egiluvchanligini oshirish uchun jalb qilishga va assortimentni yangilashga imkon beradi.

Dropshipping xaridor uchun ham ko'plab yangi imkoniyatlarni ochib beradi. Nafaqat arzon narxlarda, balki, dunyoning turli burchaklaridan juda katta assortimentdagi mahsulotlarni ham olish imkoniyati mavjud bo'ladi, bu ayniqsa chekka hududlarda yashovchi aholi uchun muhimdir. Bundan tashqari, xaridorlarning ma'lum bir qismi kerakli tajribaga ega bo'la borib, dropshipperlik faoliyati bilan shug'ullanishi mumkin, bu esa keyinchalik dropshipping faoliyatini keng tarqatilishida katta ahamiyatga ega bo'ladi.

Kommunikativ va to'lov xizmatlarini taqdim etadigan logistika provayderlari ham, boshqalar kabi dropshippingdan ahamiyatli foyda ko'rishadi, chunki dropshippinglar doimiy mijozlarning ma'lum bir qismini tashkil qiladi. Logistika provayderlari tarmoq iqtisodiyotining dropshipping sektorini rivojlantirishdan ko'proq manfaatdor. Shu tufayli ularning aksariyati (AliPay, Molotok va boshqalar) dropshipperlarga biznes yuritish uchun virtual vositalar va logistik qo'llab-quvvatlashni taqdim etishlari tasodif emas.

Faqat mahsulotni harakatlantirishning an'anaviy kanallari vakillari-gina dropshippingni rivojlanishidan zarar ko'radi. Aynan ular tranzaksion xarajatlarning yuqoriligi sababli, dropshippingdagi narx-navoning jalb qiluvchi jozibadorligi oshirilishiga beihitoyor shart-sharoitlarni shakllantirib beradi. Ularning aksariyati keyingi yillarda mahsulot harakatlantirish an'anaviy kanallari va Internet orqali parallel savdoni tashkil etishga harakat qilmoqda. Biroq, logistika infratuzilmasining rivojlanishi bilan elektron tijorat bozoriga kirish to'siqlarning juda kamligi sababli hanuzgacha saqlanib turgan yetakchilik o'rni tushib bormoqda.

Dropshippingni institutsional afzalligi savdo kanallarida mahsulot emas, axborot oqimlarini tashkil qilish bilan ham bog'liq. Tegishli axborotlarni olish qiyinligi monopoliyani yaratilishiga olib keladi. Bu mubolag'ani elektron tijoratda dropshippinglar faoliyatiga qo'llagan holda: axborotlarga ega bo'lish raqobat ustunligini olib keladi deb qayta mubolag'alash mumkin. Dropshipping mahsulotlar bilan emas, balki, mahsulot to'g'risidagi axborotlar bilan ish yuritadi. Mahsulotlarning haqiqiy harakatlanishi faqat oldi-sotdi bitimidan keyin boshlanadi. Bu yerda savdoning to'liq virtuallashuvi amalga oshadi, ya'ni, mahsulot harakatlanishi mahsulot to'g'risidagi axborotlarning harakatlanishi bilan almashinadi. Shuning uchun dropshipping marketing ichki (endogen) funktsiyasini tashqi (ekzogen) funktsiyaga o'zgartirgan holda savdo faoliyatini transformatsiya qiladi.

Virtual muhit qulay marketing sharoitida o'z-o'zidan paydo bo'ladigan dropshippingni elektron tijoratning ajralmas elementiga aylantiradi. Mahsulotlarni to'g'ridan-to'g'ri xaridorlarga arzon narxlarda yetkazib berishga tayyor bo'lgan yetkazib beruvchilarni (ishlab chiqaruvchilar) paydo bo'lishi bilan darhol bozorda bu mahsulotlarni o'z nomidan taklif qiluvchi vositachilar paydo bo'ldi. Elektron tijoratda foyda chiqarish imkoniyati mavjud bo'lar ekan, dropshippingda ham har doim mavjud bo'ladi.

9.2. Dropshippingning marketing xususiyatlari

Dropshipping o'zida institutsional nazariya marketing bilan juda yaqin hamkorlik qiladigan iqtisodiy faoliyat sohasini ifoda qiladi. Buning sababi marketing boshqaruv subektidan mustaqil ravishda mavjud bo'lgan

tashqi muhit bilan ish olib boradi. Dropshipping bu klassik institutsional bo'lmagan uslubiy, ya'ni, tashqi muhitda me'yoriy-xuquqiy tartibga solish bilan mustaxkamlanmagan umumiy qabul qilingan xatti-harakatlar modelini ifoda etadi.

Undagi shartnomalar odatdagi majburiyatlar yoki provayderlar tomonidan o'rnatilgan qoidalar bilan almashtiriladi. Yetkazib beruvchi xaridorlarga mahsulotlarni spesifikasiya va savdo shartlariga muvofiq holda yetkazib berishni o'z zimmasiga oladi. Shu bilan birga, xaridorlar mahsulot to'g'risidagi axborotga asoslangan holda to'lov yoki savdo provayderlari kafolati ostida avans to'lovlarini amalga oshiradi.

Dropshipping faoliyati tarmoq iqtisodiyoti va elektron tijoratning bir shakli sifatida, mahsulotlarni harakatlantirishning ananviy shakllari oldida bir qancha marketing ustunliklariga ega bo'ladi. Bu ustunliklar virtual muhitning institutsional xususiyatlari bilan bog'liq:

1. Bitimlarni yuqori tezlikda amalga oshirish, Internet va kompyuter texnologiyalarning uzatish va axborotlarga ishlov berish texnik imkoniyatlariga asoslanadi. Dropshipping operatsiyalari logistika provayderlari tomonidan birlashtiriladi (savdo maydonchalari, to'lov tizimlari va boshqalar bilan). Shu sababli, dropshippingni amalga oshirish uchun uzoq muzokaralar olibborish yoki rasmiy kelishuvlarni tuzish talab qilinmaydi.

2. Bozorga kirish uchun kam to'siqlar, dropshipping savdoga to'siqlarsiz keng kirishni mavjudligiga asoslanadi. Dropshipperga ishongan omavviy iste'mol mahsuloti ishlab chiqaruvchilari uchun bu holat vositachilarning daromadlari uchun tabiiy cheklov bo'lib xizmat qiladi. Hech bir dropshipper mahsulotning yangiligi yoki o'ziga xosligidan foydalanib yuqori foyda chiqara olmaydi. Dropshippingning mavjudligi sababli bozor darhol to'ldiriladi va deyarli mukammal raqobat sharoitida mahsulotlar xaridorlarga past narxlarda taklif etiladi.

3. Bitimlarni hududsizligi, Internetning trans xududliliga asoslanadi. Bu nafaqat dropshipping, umuman butun elektron tijoratning o'ziga xos xususiyati hisoblanadi. Biroq, hududiy bo'lmagan bitimlar tufayli dropshipping ishlab chiqaruvchilarga alohida ustunliklarni beradi. Bu bozorlarni geografik joylashuvidan qat'iy nazar mahsulot taqsimlash tarmoqlarini tez va minimal xarajatlar bilan shakllantirishga imkon beradi.

4. *Bitimlarni avtomatlashtirilishi*, sotuvchi va xaridorlarga bitimlarni bayram va dam olish kunlarisiz savdo xodimlaridan foydalanmasdan kunu-tun tartibida amalga oshirilishiga asoslanadi. Dropshippingdagi savdo shartlari tartiblashtirilgan va barcha xaridorlar uchun bir xil sharoit yaratiladi. Yetkazib beruvchi dropshipperdan buyurtma va to'lovni olgandan so'ng bitimni tugatish uchun guruhlangan mahsulotlar partiyasini manzilli tarqatishni amalga oshiradigan logistika provayderiga jo'natishni tashkil qilish talab qilinadi.

5. *Cheklanmagan axborot imkoniyatlari*, Internetning ma'lumotlarni saqlash va uzatish xususiyatlariga asoslanadi. Ishlab chiqaruvchi buyurtmachini taklif etilayotgan mahsulotlarning xususiyatlari va qo'llash to'g'risida axborotlashtirish bo'yicha cheklovga ega emas. Internet tarmoqda mahsulot to'g'risidagi har qanday miqdordagi marketing axborotlarini (matnlar, videolar va hk) joylashtirishga imkon beradi.

6. *Kommunikatsiyaning interfaolliigi*, elektron kommunikatsiya xususiyatlariga asoslanadi. Bir tomondan, xodimlarga kommunikativ yuklanishini kamaytirgan holda mijozlar bilan muloqotni avtomatlashtirishga imkon beradi. Eng ko'p tarqalgan savollar bo'yicha javoblarni mijozlarga va shaxsiy aloqadan bo'lmasdan etkazilishi mumkin. Boshqa tomondan, kommunikativ servislar (forumlar va bloglar) orqali xaridorlar o'rtasidagi shaxslararo muloqotni marketing axborotlari manbasiga aylantirish mumkin.

7. *To'lovlar yuqori tezligi*, Internetda elektron to'lovlar hususiyatlariga asoslanadi. Zamonaviy to'lov tizimlari bankka tashrif buyurmasdan, to'lov hujjatlarini ro'yxatdan o'tkazmasdan va h.k. orqali deyarli butun dunyo bo'ylab pul o'tkazmalarini amalga oshirishga imkon beradi. Dropshipper xaridordan olingan buyurtmani mahsulolarnit haqiqiy sotuvchi qayta joylashtirishi uchun bir necha daqiqa kifoya qiladi.

Tijorat faoliyatining hech bir an'anaviy shakli bozor sub'ektlari va iste'molchilarga shunga o'xshash qulayliklapni taklif qila olish xususiyatiga ega emas. Shuning uchun, Internet elektron tijorat uchun shunchaki aloqa vositasi bo'lib qolmaydi. Boshqa iqtisodiy qonunlar tatbiq etiladigan fizik o'lchovga ega bo'lgan o'ziga xos marketing muhiti hisoblanadi.

Dropshippingning institutsional afzalliklari ortiqcha mahsulotlar ishlab chiqarish sharoitida “*ommaviy iste'mol mahsulotlari bozoriga yirik ishlab chiqaruvchilar tomonidan emas, balki chakana sotuvchilar eng katta ta'sir ko'rsatish xususiyatiga ega bo'lishi*” bilan bog'liq. Elektron tijoratning rivojlanishi natijasida raqobatbardoshlik xulqi usullari o'zgardi. An'anaviy sotuvchilarning hududiy monopoliyasi o'tmishda qoldi. Endi qidiruv tizimiga kerakli mahsulot nomini kiritishi etarli va xaridor darhol butun dunyo bo'yicha o'nlab, hatto yuzlab raqobatdosh takliflarga ega bo'ladi. Mos holda, raqobat xizmat ko'rsatish, axborot va assortiment sohasiga qo'shilish ketdi.

Bugungi kunda dropshippingning marketing salohiyati foydalanilgan marketing usullari bilan emas, balki, ularning soni va ular tomonidan amalga oshirilgan bitimlar soni bilan belgilanadi. Bu elektron tijoratning o'ziga xos xususiyati natijasidir, bu haqda F. Kotler shunday fikr bildiradi: “*An'anaviy marketingdan farqli ravishda, interfaol marketing asosan qaysi Web-saytga tashrif buyurishni, aynan qaysi mahsulotlar va qanday sharoitlarda qabul qilishi to'g'risidagi marketing axborotlarini o'zlari tanlaydigan odamlarga yo'naltiriladi. Interfaol marketing yangi dunyo, yangi marketing yondashuvlarni talab qiladi*”.

Yangi yondashuvlar elektron tijorat usullariga o'tishda yuzaga kelgan institutsional o'zgarishlarga asoslanadi. Dropshipping elektron tijorat shakllaridan biri sifatida internet-marketing majmuasining standart vositalaridan foydalanadi:

1. Internet-marketing majmuasining birinchi elementiga taaluqli tadbirlarni “**Place**” amalga oshirish - bu dropshipperlarni ajralmas huquqi hisoblanadi. Bu yerda yetkazib beruvchining imkoniyatlari juda cheklangan va buyurtmalarni qabul qilish va ishlov berish yagona logistik sxemasini qurishga keltiriladi.

Savdoni tashkil etish bo'yicha asosiy yuklanish dropshipper zimmasiga tushadi. Aynan dropshipperlar mahsulot harakati tizimining faol elementi sifatida ishlaydi. O'zlarining xavf-xatarlari ostida yangi maqsad bozorlarini, savdo maydonchalari, to'lov tizimlari va boshqalarni o'zlashtiradi. Maqsadli auditoriyaning tarmoq resurslariga kirishi eng kichkina dropshippingdagi ham savdoning bosh cheklovchisi bo'lib xizmat

qiladi. Shuning uchun, hatto eng mayda savdo dropshipperlar ham omadli vaziyatlarda ajoyib natijalarga erishishi mumkin.

Iste'molchilarga mahsulotlarni yetkazib berishni tashkillashtirishda dropshipperlarning ahamiyati juda kam. Ularning maksimal darajada bajara oladigan ishi xaridorlarga turli transport provayderlarning (masalan, pochta yoki transport kompaniyasi) xizmatlari tanlovini taklif qilishdir. Elektron tijoratda mahsulotlarni taqsimlash muammosini hal qilish logistika provayderlari bilan o'zaro hamkorlikda bo'lgan yetkazib beruvchilarning zimmasiga tushadi va yetkazib berishni tashkil etadi. Shu bilan birga, xaridorlar oldida aynan dropshipperlar virtual yetkazib beruvchi rolini o'ynab, o'z vaqtida xaridorga yetkazib berilishi uchun javobgar bo'ladi.

Dropshippingda mahsulotlarning taqsimlanishi o'rnini bosadigan axborotlarning taqsimlanishi bozor raqobatining asosiy instrumenti sifatida ahamiyatga ega hisoblanadi. Gap reklama to'g'risida borayotgani yo'q. Xaridorlarning asosiy qismi aniq bir mahsulotni qidiradi va bunday vaziyatda mahsulotni kerakli joyda hamda kerakli vaqtda taklif etilgan sotuvchi yutib chiqadi. Demak, dropshippingda savdo siyosatining bosh masalasi mahsulotlarni sotish to'g'risidagi takliflarni maksimal sondagi salohiyatli iste'molchilari etkazishdan iborat.

2. Dropshippingda internet- marketing majmuasining ikkinchi elementi "*Price*" raqobatbardoshlikni ta'minlashning muhim omili hisoblanadi. Xaridorlarning asosiy qismi arzonroq narxdagi mahsulotlarni topish maqsadida elektron tijoratga murojaat qiladi. Bundan tashqari dropshippingning narx birinchi o'rindagi marketing vositasi hisoblanadi, chunki, yetkazib beruvchi mahsulotlarni yagona chiqish narxlarida yetkazib beradi. Yetkazib beruvchining vazifasi taklif qilinayotgan mahsulot potentsial salohiyatli dropshipperlar uchun jozibador bo'lishi uchun iste'molchilar fikridagi narx va o'zining sotish narxi o'rtasidagi adolatli farqni ta'minlashdir. Keyinchalik narx bo'yicha talabning egiluvchanligi qonuni kuchga kiradi va xarid (sotish) hajmi bozorda faqat iste'molchilar talablari bilan tartibga solinadi.

Dropshippingda iste'molchilarga chegirma va narxlar diskriminatsiyasi juda kam uchraydigan hol. Bu dropshipping savdosibozorining mukammal raqobat shartlariga yaqinligi bilan

asoslanadi: bu yerda sotuvchilar ko'p va foyda mahsulotlar birligidagi narxlarni oshirishdan emas, balki, savdo hajmidan olinadi. Dropshippingda narxlarni o'ynatishni deyarli imkoniyatlari amaliy jihatdan mavjud emas. Agar dropshippingning raqobatchilari ko'p bo'lsa, unda ustama qo'shiladigan narx minimal darajada bo'ladi. Raqobatchilar kam bo'lsa biron-bir sababga ko'ra dropshippingning sotish narxi yetkazib beruvchining qo'ygan chiqish narxiga juda yaqin bo'ladi.

3. Dropshippingda internet-marketing majmuasining uchinchi elementi "**Product**" ikkinchi darajali ahamiyatga ega hisoblanadi. Buning sababi, dropshippinglar real mahsulotlarga ega emas va uning parametrlarini mustaqil ravishda belgilay olmaydi. Uning marketing imkoniyatlari savdo taklifini shakllantirish bilan cheklangan.

Nazariy jihatdan dropshipper mahsulotni aksessuarlar (masalan, xotira kartalari yoki batareyalar) bilan to'ldirish orqali o'zining taklif parametrlarini o'zgartirishi mumkin. Biroq, uning marketing ta'siri bozordagi boshqa ishtirokchilarning raqobatdosh xatti-harakati bilan tezda yo'qqa chiqariladi. Bir tomondan, ularning barchasi yetkazib beruvchilarning mahsulotlariga teng imkoniyatda qira oladi. Boshqa tomondan, xaridorlar mahsulot, uning xususiyatlari va raqobatdosh afzalliklari to'g'risida axborot olish uchun teng imkoniyatlarga ega (shu jumladan tematik forumlarda).

Yetkazib beruvchi mahsulotlar raqobati sohasida dropshippingga qo'shimcha imkoniyat bermaydi. Shu sababli, dropshippingda dropshipper emas, mahsulot xususiyatlari yetkazib beruvchining (ishlab chiqaruvchining) marketing vositasini hisoblanadi. Bozor mahsulot taklifining o'ziga xosligiga tayanadigan dropshippingning raqobatdosh ustunliklarini tezda yo'qqa chiqaradi.

4. Internet- marketing majmuasini to'rtinchi elementi "**Promotion**" bilan bog'liq chora-tadbirlarni amalga oshirish asosan mahsulot yetkazib beruvchi va kommunikatsiya provayderlarining (ishlab chiqaruvchilarning) huquqidir. Odatda, dropshipperlar ularning savdo hajmi juda ham ahamiyatsiz bo'lganligidan mustaqil reklama kampaniyalarini o'tkazish uchun moliyaviy imkoniyatga ega bo'lmaydi. Dropshippingda harakatlantirish funktsiyalarini manfaatlaridan kelib chiqib ishlab chiqaruvchilar va kommunikativ xizmatlar provayderlari amalga oshiradi:

-*etkazib beruvchilar (ishlab chiqaruvchilar)* – internet-auditoriyasda mahsulotning jozibali imidjini yaratish maqsadida;

-*kommunikativ xizmatlari provayderlari* – savdo umumiy ko'rsatkichi va internet-resurslarga tashrif buyuruvchilar sonini ko'paytirish maqsadida.

Har ikkala holatda ham reklama kampaniyalari olib borilishida dropshipperlar faqat bilvosita manfaat oluvchi hisoblanadi. Ular marketing kommunikatsiyalarining tayyor vositalaridan foydalanib va mahsulotlarning allaqachon shakllantirilgan tasvirlaridan foydalangan holda savdoni amalga oshiradi.

Shu bilan birga, asosiy reklama funksiyalari savdo maydonchalari, ijtimoiy tarmoqlar, forumlar va internet-aloqalarning boshqa shakllari ishlashini ta'minlovchi kommunikativ xizmatlar provayderi tomonidan amalga oshiriladi. Ular xaridorlarni jalb qilish uchun mustaqil ravishda keng ko'lamli kampaniyalar o'tkazadi, shuningdek, dropshipperlarga mahsulotni harakatlantirishi uchun pullik marketing vositalarini taqdim etadi. An'anaviy reklamadan farqi shundaki, dropshipper reklama xizmatiga emas, balki, bu instrument parametrlarini provayder tomonidan belgilanadigan reklama vositasidan foydalanilganligi uchun, to'lov to'laydi.

Dropshipperlar ko'p hollarda PR-tadbirlar ijtimoiy tarmoqlar, kupon xizmatlari va ko'rgazma zallarida ustun darajada qo'llaniladigan "Virusli marketing"dan foydalanadi. Biroq, virusli marketing dropshippingda ta'minlash etarlicha murakkab bo'lgan o'ziga xos savdo taklifini ko'zda tutadi. Shuning uchun, virusli marketingni dropshipping bilan bog'lashni noto'g'ri deb hisoblash mumkin.

Erkin raqobat va teng imkoniyatlar sharoitida birlamchi ma'nodagi marketing emas, balki, dropshippingning individual kompetenlik darajasi, amaliy bilim va malakasi dropshipping samaradorligining muhim omili hisoblanadi. Internet-marketing haridorga o'ni qiziqtirayotgan mahsulotlarni tezda topish va dropshipperga kerakli darajadagi ishonchni ta'minlashga imkon beradigan yordamchi ahamiyatga ega bo'ladi. Bu tarmoq iqtisodiyoti institutsional siklining joriy bosqichida bevosita marketing taqsimlash konsepsiyasi ustunligining natijasidir.

Dropshippingni bozorning tor maqsadli segmentlarida mahsulotlar savdosi bo'yicha xizmatlar provayderlari deb atash mumkin. Ularning raqobat ustunligining sababi juda ham samarali axborotlashganligi va to'g'ridan-to'g'ri savdoni tashkillashtirishda yirik vositachilarda mumkin bo'lmagan tajribaning mavjudligidir.

Iqtisodiy inqiroz va yalpi iste'mol talabining tushib ketishiga qaramay, virtual muhitda, aksincha holat, bozorning tor ixtisoslashgan segmentlarida mahsulot takliflari defitsiti mavjud bo'ladi.

Internet foydalanuvchilari turli katta tanlovdagi mahsulotlardan emas, balki juda aniq individual parametrli mahsulotlardan manfaatdor bo'ladi.

Dropshipperlar foydaga erishish yo'lida individuallashtirish talab va individuallashtirilgan taklifni birlashtirib, bozorning eng tor segmentini topadi va o'z mahsulotlari bilan to'ldiradi. An'anaviy savdoda buni amalga oshirish bir qancha noqulayliklarni keltirib chiqaradi. Biroq, dropshippingning mahsulot zahirasida cheklanish bo'lmaydi. Virtual savdo-sotiqning afzalliklaridan foydalangan holda, dropshipper bozorga shunchaki har qanday mahsulotni emas, balki, real talab mavjud bo'lgan mahsulotlarni taklif qiladi. Aynan shu dropshippingning iste'molchi talabi indikatorining institutsional ko'rsatkichi bo'lib xizmat qiladigan asosiy marketing funksiyasi hisoblanadi.

Dropshipping ishlab chiqaruvchilarga bozor talablariga haqiqiy ma'noda optimal moslashib borishiga imkon beradi. Dropshipping muhitida axborotlarning ochiqligi tranzaksiya xarajatlarini minimallashtirish orqali mahsulotlarning raqobatbardoshlikni oshirishga olib keladi. Dropshipperlar o'zini qiziqtirayotgan yetkazib beruvchini o'zi izlab topadi, ularning oldidagi majburiyatlari esa faqat mahsulotlar uchun to'lovni o'z vaqtida amalga oshirish. Bu shuni anglatadiki, dropshipperlar soni, amalga oshirilgan savdosining tarkibi va hajmi orqali bozordagi talab parametrlari va hajmini aniqlash mumkin.

Marketing nuqtai nazaridan, dropshipping yetkazib beruvchilarga, yoki qanday davlat yoki boshqa farqlaridan qat'i nazar har qanday bozorga alohida xarajatlarsiz tezda kirib borishiga imkon yaratadi. Ulgurji savdo vaqt davomida o'z ma'nosini yo'qotib bormoqda. Katta shtatdagi savdo xodimlari, oraliq omborlar, ta'minot logistikasi, murakkab shartnoma

munosabatlari ham talab qilinmaydi. Agarda mahsulot ishlab chiqaruvchisi iste'mol bozorida ob'ektiv talab mavjud bo'lgan mahsulotni taklif qilsa, bu mahsulot darhol dropshipperlar tomonidan tarqatib yuboriladi.

Dropshipperlar, shuningdek, marketing axborotlari tashuvchisi sifatida ham katta ahamiyatga ega bo'ladi. Elektron tijoratda mahsulot ishlab chiqaruvchi va xaridorlar aynan ular bilan bevosita bog'lanishidan aynan dropshipperlar marketing axborotlarining optimal manbaasi hisoblanadi. Shu sababli, ishlab chiqaruvchilar bilan, dropshipperlar bir vaqtning o'zida mahsulot ishlab chiqaruvchilar bilan ikkita shaxs sifatida munosabatga kirishadi: xaridorlarning vakili va maqsadli bozorlarning eksperti sifatida.

Dropshipperlar yetkazib beruvchilarga xaridor buyurtmalarini shunchaki qayta yo'naltirib qolmasdan, ishlab chiqarish va marketing dasturlarini ishlab chiqishni tabiiy ravishda engillashtirgan holda yetkazib beruvchilarni real vaqt tartibda iste'mol talablari konyunkturasi shakllari to'g'risidagi axborotlar bilan ta'minlaydi. Dropshipping axborotlari iste'molchi talablarini tahlil qilishda (sotuvchilar reytingi), raqobatni tahlil qilishda (savdo parametrlari) va narx toifalarini tahlil qilishda (takliflar tahlili) muvaffaqiyatli qo'llaniladi, shuningdek, iste'mol bozoridagi mahsulot tanqisligi bo'shliqlarini o'z vaqtida aniqlashga imkon beradi.

Dropshipperlar tufayli mahsulot ishlab chiqaruvchilar o'zlari uchun iste'molchilar talabi konyunkturasi to'g'risidagi marketing axborotlarini olishda yangi imkoniyatlarga ega bo'ladi. Savdo zanjiridagi an'anaviy ishtirokchilar ko'rinishidagi vositachilarning yo'qligi bunday axborotlarning dolzarbligi va adekvatligini kafolatlaydi. Axborotlar dropshipperda to'planmaydi, balki, yetkazib beruvchilarga buyurtmalar bilan birga kelib tushadi.

Dropshippingni iqtisodiy ahamiyatini baholash murakkab masala hisoblanadi. Bugungi kunda dropshipping bitimlari hajmi elektron tijorat operatsiyalari umumiy hajmining ahamiyati qismini tashkil qiladi. Bu ulushni doimiy ravishda ortib borayotganligini elektron savdo maydonlari va ijtimoiy tarmoqlardagi internet-do'konlarning egalari dropshipperlar ekanligi yaqqol dalolat beradi. Aynan shuning o'zi dropshippingning marketing imkoniyatlaridan foydalanish nafaqat xaridor va vositachilar, balki, ishlab chiqaruvchilar uchun ham dolzarbligini aniqlab beradi.

Ro'yxat - maxsus vakolatli davlat organi tomonidan terrorizmga, ommaviy qirg'in qurolini tarqatishga qarshi kurashishni amalga oshiruvchi davlat organlari va O'zbekiston Respublikasining boshqa vakolatli organlaridan taqdim etilayotgan ma'lumotlar, shuningdek chet davlatlarning vakolatli organlari va xalqaro tashkilotlaridan rasmiy kanallar orqali taqdim etilayotgan ma'lumotlar asosida tuzilgan terrorchilik faoliyatida yoki ommaviy qirg'in qurolini tarqatishda ishtirok etayotgan yoki ishtirok etishda gumon qilinayotgan shaxslar ro'yxati.

Savdo ishtirokchilari - banklararo pul bozorida savdo tizimi orqali operatsiyalarni amalga oshirishda ishtirok etuvchi tijorat banklari hamda O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki.

Sotuvchi - axborot tizimlaridan foydalangan holda tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) sotuvchi tadbirkorlik faoliyati sub'ekti.

Soliq hisobotlarini elektron shaklda taqdim etish formati - elektron shaklda taqdim etiladigan soliq hisobotlari tarkibi va ko'rsatkichlar tuzilmasining formaga keltirilgan tavsifi, shuningdek ularning shakllantirilishiga qo'yilgan talablar.

So'rov — ariza beruvchining davlat xizmati ko'rsatilishi to'g'risida davlat organlariga yuboriladigan talabi.

Tashabbuskor - to'lovni amalga oshirish uchun farmoyish bergan shaxs.

Tashabbuskor (inisiator) bank - bu ETHni shakllantirish va benefisiar bankka jo'natish yo'li bilan elektron to'lovni boshlovchi bankdir.

Transchegaraviy elektron tijorat - turli yurisdiksiyalardagi va biri O'zbekiston Respublikasidagi ishtirokchilar o'rtasidagi elektron tijorat turi.

Texnik xizmat ko'rsatish markazi — (keyingi o'rinlarda TXKM deb ataladi) — onlayn-NKM va (yoki) virtual kassalarga uzluksiz servis xizmati ko'rsatuvchi, qonun hujjatlarida belgilangan tartibda Davlat reestriga kiritilgan yuridik shaxslar.

Tovar kodi — tovarlarning xalqaro «GS1» va boshqa global ma'lumotnomalar tizimlaridagi mantiqiy birliklar asosida yuritiladigan takrorlanmaydigan raqami.

To'lov - pul majburiyatini naqd pul mablag'lari bilan bajarish yoxud pul mablag'larini to'lov vositalaridan foydalangan holda o'tkazish.

To'lov agenti - bank yoki to'lov tashkiloti bilan to'lov xizmatlari ko'rsatish uchun agentlik shartnomasini tuzgan, bank hisoblanmaydigan yuridik shaxs.

To'lov vositasi - to'lovni amalga oshirish uchun asos bo'ladigan yoki foydalaniladigan to'lov hujjati yoki elektron to'lov vositasi.

To'lov subagenti - to'lov agenti bilan to'lov xizmatlarini ko'rsatish bo'yicha subagentlik shartnomasini tuzgan, bank hisoblanmaydigan yuridik shaxs yoki yakka tartibdagi tadbirkor.

To'lov tashkiloti - bank hisoblanmaydigan, to'lov xizmatlarini ko'rsatish bo'yicha faoliyatni amalga oshirishga vakolatli bo'lgan yuridik shaxs.

To'lovchi - to'lov kimning hisobidan amalga oshirilayotgan bo'lsa, o'sha shaxs.

To'lov tizimlari operatorlari - O'zbekiston Respublikasi hududida to'lov tizimining ishlashini ta'minlash bo'yicha faoliyatni amalga oshiruvchi yuridik shaxs.

To'lov xizmatlarini etkazib beruvchilar - O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki, banklar, to'lov tashkilotlari, to'lov agentlari, to'lov subagentlari.

To'lov xizmati - to'lov xizmatini etkazib beruvchining to'lov xizmatlaridan foydalanuvchiga ko'rsatadigan xizmati.

To'lov xizmatlari bozori - to'lov xizmatlarini ko'rsatish va ulardan foydalanish, shuningdek to'lov vositalarini chiqarish va ulardan foydalanish bilan bog'liq munosabatlar majmui.

To'lov xizmatlaridan foydalanuvchi - to'lov xizmatlarini etkazib beruvchining to'lov xizmatlaridan foydalanadigan jismoniy va yuridik shaxs.

To'lov tashkiloti — bank hisoblanmaydigan, to'lov xizmatlarini ko'rsatish bo'yicha faoliyatni amalga oshirishga vakolatli bo'lgan yuridik shaxs.

Xaridor - pirovard iste'mol, tijorat maqsadlarida foydalanish, o'zining ishlab chiqarish-xo'jalik ehtiyojlari uchun axborot tizimlaridan foydalangan holda tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) sotib oluvchi jismoniy shaxs yoki tadbirkorlik faoliyati sub'ektlari (O'zbekiston Respublikasining rezidentlari va norezidentlari).

Xavfsizlik rejimi - normativ-huquqiy hujjatlar bilan belgilangan, ma'muriy-huquqiy, tashkiliy, injener-texnik va boshqa chora-tadbirlarni o'z ichiga oladigan, tashkilotning konfidensial ma'lumotlaridan noqonuniy foydalanishning oldini olishni ta'minlovchi tartib.

Shaxsiy varaqcha - tadbirkorlik faoliyati sub'ektlari uchun imzolar namunalari qo'yilgan, boshqa yuridik shaxslar uchun imzolar namunalari va muhr izi qo'yilgan varaqcha.

Farmoyish - to'lov tashabbuskorining to'lov xizmatlarini etkazib beruvchiga to'lovni amalga oshirish to'g'risidagi ko'rsatmasi bo'lib, u elektron to'lov vositasidan yoki masofaviy xizmat ko'rsatish tizimidan foydalanilganda to'lov hujjatlari shaklida yoki to'lov xizmatlaridan foydalanuvchining roziligi ko'rinishida ifodalanadi.

Elektron to'lov vositalari - axborotni o'z ichiga olgan va to'lovchiga to'lovni amalga oshirish, shuningdek to'lovchi bilan elektron to'lov vositalarining emitenti o'rtasida tuzilgan shartnomada nazarda tutilgan boshqa operatsiyalarni amalga oshirish imkonini beradigan bank kartasi yoki boshqa elektron jism.

Elektron pullar - elektron pullar emitentining elektron shaklda saqlanadigan hamda elektron pullar tizimida to'lov vositasi sifatida qabul qilinadigan shartsiz va chaqirib olinmaydigan pul majburiyatlari.

Elektron savdo platformasi – xaridorlarga mahsulotlarni (ish, xizmatlar) masofadan turib xarid qilish imkoniyatini beruvchi hamda tovarlarni taqqoslash va tanlash infratuzilmasi, to'lov hamda tovarlar (ishlar, xizmatlar) olish usulini tanlash infratuzilmasi, har ikki tomonning

sifat nazorati va qayta aloqa infratuzilmasini ifoda etuvchi Butunjahon Internet axborot tarmog'idagi axborot tizimi.

Elektron savdo maydonchasi – chakana yoki ulgurchi sotuvchilarning (etkazib beruvchilar, ijrochilar) chakana hamda korporativ xaridorlar bilan o'zaro hamkorlik infratuzilmasini, shu jumladan tovarlar (ishlar, xizmatlar) va sotuvchi to'g'risidagi axborotni joylashtirish infratuzilmasini ifoda etuvchi, shuningdek, tanlovlar yoki kimoshdi savdolarini tashkil qilish hamda o'tkazish imkonini beradigan butunjahon Internet axborot tarmog'idagi axborot tizimi. Elektron savdo maydonchasi tovarlarni taqqoslash va tanlash infratuzilmasi, tovarlarga (ishlar, xizmatlar) haq to'lash va ularni sotish usulini tanlash infratuzilmasi, har ikki tomonning sifat nazorati va qayta aloqa infratuzilmasini ham o'z ichiga olishi mumkin.

Elektron to'lovlar tizimi operatori – elektron bitim tomonlariga va elektron tijoratning boshqa ishtirokchilariga elektron to'lovlarni amalga oshirish xizmatlarini ko'rsatuvchi hamda unda xizmat ko'rsatish qoidalarini belgilovchi va elektron to'lovlar tizimining to'g'ri ishlashi uchun mas'ul bo'lgan yuridik shaxs.

Elektron to'lov hujjati (keyingi o'rinlarda - ETH) - to'lov tizimining qoidalari bilan belgilangan tarkib va formatdagi rekvizitlariga ega bo'lgan hamda elektron to'lovni amalga oshirish uchun zarur axborotni o'z ichiga olgan elektron hujjatdir. ETH to'lovga doir qog'oz hujjat asosida yoki elektron to'lov vositasidan foydalangan holda tuziladi va elektron raqamli imzo bilan tasdiqlanadi. ETH bilan ishlashda uni elektron to'lovni amalga oshirish uchun zarur rekvizitlarni saqlagan holda qog'ozda takrorlash imkoniyati ta'minlanishi kerak.

Elektron to'lovni boshlash - ETHni shakllantirish va elektron raqamli imzo bilan tasdiqlash.

Elektron savdo platformasi operatori - elektron tijorat ishtirokchilariga elektron savdo platformasi xizmatlarini ko'rsatuvchi hamda unda xizmatlarni ko'rsatish qoidalarini belgilovchi va elektron savdo platformasining to'g'ri ishlashi uchun mas'ul bo'lgan yuridik shaxs.

Elektron savdo maydonchasi operatori - xaridorni identifikatsiyalash, to'lovni qabul qilish, ommaviy ofertalar va bitimlar to'g'risidagi ma'lumotlarni saqlashni hisobga olgan holda, elektron savdo maydonchasi yordamida tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) sotish va sotib

olish imkoniyatini taqdim etish bo'yicha elektron bitim tomonlariga xizmat ko'rsatuvchi yuridik shaxs yoki yakka tartibdagi tadbirkor,

Elektron savdolari (tanlovlar, auksionlar) tashkil etuvchi – savdolar, tanlovlar, auksionlar va elektron tijorat ishtirokchilari o'zaro hamkorligining boshqa shakllari interfaol o'tkazilishini ta'minlovchi elektron maydoncha xizmatlarini ko'rsatuvchi yuridik shaxs yoki yakka tartibdagi tadbirkor.

Elektron to'lovlar tizimi – elektron bitim tomoniga o'zining hisobini va/yoki boshqa to'lov vositalarini mustaqil boshqarish imkonini beradigan va naqdsiz elektron hisob-kitoblarni, jumladan, butunjahon Internet axborot tarmog'ida tashkil etish tizimi.

Elektron tijorat - elektron tijorat ishtirokchilari tomonidan axborot tizimlaridan foydalangan holda masofadan tuziladigan shartnomaga muvofiq tovarlarni (ishlar, xizmatlar) sotib olish-sotish (etkazib berish) bo'yicha bitimlarni tuzish va bajarish uchun harakatlar va operatsiyalarni amalga oshirish.

Elektron bitim - tomonlar elektron operatsiyalar o'tkazish yo'li bilan rasmiylashtirgan va amalga oshirgan bitim.

Elektron chek – elektron tijorat sohasida bitimlar tuzilganligini tasdiqlovchi va sotilgan tovarlar (ishlar, xizmatlar) va ularning sotuvchisi (etkazib beruvchisi, ijrochisi), shuningdek to'lov shakli (usuli) to'g'risidagi axborotni aks ettiruvchi elektron hujjat (xabar).

Elektron xabar - jo'natuvchi tomonidan oluvchining elektron pochta manziliga yuborilgan yoki adresatning axborot tizimi (ma'lumotlar bazasi)dan olingan, uni qayta ishlash, olish va qabul qilish uchun mumkin bo'lgan axborot tizimlari va tarmoqlaridagi matnli axborot yozuvlarini taqdim etish shakli.

Elektron tijorat sohasidagi elektron hujjat (keyingi o'rinlarda elektron hujjat deb ataladi) – axborot tizimlaridagi har qanday identifikatsiyalanadigan matnli yoki boshqa hujjatlashtirilgan axborotni yozish, ishlatish va qayta ishlashni elektron shaklda taqdim etishning qabul qilingan yoki standart bilan belgilangan foydalanish qulay bo'lgan shakli (formati).

Elektron tijorat ishtirokchisi - elektron tijoratda tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) sotuvchi yoki ularning xaridori bo'lgan yuridik yoki jismoniy shaxs.

Elektron tijorat - axborot tizimlaridan foydalangan holda tuziladigan shartnomaga muvofiq amalga oshiriladigan tovarlar (ishlar, xizmatlar) oldi-sotdisi.

Elektron savdo maydonchasi - tashkiliy, axborot va texnik qarorlarning dasturiy-apparat majmui, shu jumladan tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) sotish uchun axborot tizimi orqali sotuvchi va xaridorning (buyurtmachining) o'zaro hamkorligini ta'minlaydigan internet-do'kon.

Elektron xabar - axborotni jo'natuvchini identifikatsiyalash imkonini beruvchi elektron shaklda qayd etilgan axborot.

Elektron vosita - elektron shaklda axborotni qayta ishlash, saqlash va uni ayirboshlashga mo'ljallangan kompyuter va (yoki) boshqa texnik asbob, shuningdek telekommunikatsiyalar tarmog'i.

Elektron tijorat sohasidagi biznes-operator (keyingi o'rinlarda biznes-operator deb ataladi) – elektron bitimlarni amalga oshirishda bilvosita ishtirok etadigan, ko'maklashadigan, shuningdek, elektron tijoratda elektron operatsiyalarni amalga oshirish bilan bog'liq bo'lgan xizmatlarni ko'rsatuvchi va ko'rsatilayotgan xizmatlar uchun mas'ul bo'lgan yuridik shaxs.

Elektron tijoratdagi shartnoma (keyingi o'rinlarda shartnoma deb ataladi) – elektron tijorat sohasidagi elektron hujjat (xabar) yoki elektron tijoratda bitim tuzilganligi holatini tasdiklovchi ma'lumotlar bazasidagi yozuv.

Elektron manba - hisoblash texnikasi vositalari yordamida qayta ishlanadigan axborotni yozish, saqlash va qayta tiklash uchun foydalaniladigan moddiy manba.

Elektron shartnoma (keyingi o'rinlarda shartnoma deb ataladi) - tovarlar (ishlar, xizmatlar) oldi-sotdisi uchun axborot tizimlaridan foydalangan holda sotuvchi va xaridor o'rtasida tuziladigan shartnoma.**Elektron hujjat** - elektron shaklda qayd etilgan, elektron raqamli imzo bilan tasdiqlangan va elektron hujjatning uni identifikatsiyalash imkonini beradigan boshqa rekvizitlarga ega bo'lgan axborot.

Elektron hamyon - elektron pullar saqlanadigan va ulardan foydalanish imkonini beradigan elektron pullar tizimining dasturiy ta'minoti, mikroprosessor (chip) va dasturiy-texnik vositalar.

Elektron hamyonni bloklash - elektron hamyonga kirish va elektron pullarni ishlatishni taqiqlash, elektron hamyonga kelib tushgan elektron pullarni hisobga kiritib qo'yish operatsiyalari bundan mustasno.

Elektron to'lov - texnik vositalar, axborot texnologiyalari va axborot tizimlari xizmatlaridan foydalangan holda elektron to'lov hujjatlari orqali naqdsiz pul to'lovlarini amalga oshirish.

Elektron raqamli imzo - yopiq kalitini qo'llagan holda axborotning kriptografik o'zgarishi natijasida olingan va imzoning shakllanish vaqtidan boshlab elektron hujjatdagi axborotda xatolik yo'qligini aniqlovchi hamda imzo kaliti sertifikatini imzo egasiga taalluqligini tekshiruvchi elektron hujjatning rekviziti hisoblanadi.

Elektron raqamli imzo - elektron hujjatdagi mazkur elektron hujjat axborotini elektron raqamli imzoning yopiq kalitidan foydalangan holda maxsus o'zgartirish natijasida hosil qilingan hamda elektron raqamli imzo ochiq kaliti yordamida elektron hujjatdagi axborotda xatolik yo'qligini aniqlash va elektron raqamli imzo yopiq kalitining egasini identifikatsiya qilish imkoniyatini beradigan imzo.

Elektron raqamli imzoning yopiq kaliti - elektron raqamli imzo kalit vositalaridan foydalangan holda hosil qilingan, faqat imzo qo'yuvchi shaxsning o'ziga ma'lum bo'lgan va elektron hujjatda elektron raqamli imzo yaratish uchun mo'ljallangan belgilar ketma-ketligi.

Elektron raqamli imzoning ochiq kaliti - elektron raqamli imzo kalit vositalaridan foydalangan holda hosil qilingan, elektron raqamli imzo yopiq kalitiga mos keluvchi, axborot tizimining har qanday foydalanuvchisi foydalana oladigan va elektron hujjatdagi elektron raqamli imzo kalit haqiqiylikini tasdiqlash uchun mo'ljallangan belgilar ketma-ketligi.

Elektron raqamli imzo kalitining sertifikati - elektron raqamli imzoning ochiq kaliti elektron raqamli imzoning yopiq kalitiga mosligini tasdiqlaydigan va elektron raqamli imzo yopiq kalitining egasiga vakolatli organ tomonidan berilgan elektron yoki qog'oz shaklidagi hujjat.

Elektron raqamli imzo yopiq kalitining paroli - elektron raqamli imzoning yopiq kalitidan ruxsatsiz tarzda foydalanishdan himoya qilish uchun mo'ljallangan shartli belgilar ketma-ketligi.

Elektron raqamli imzoning yopiq kaliti egasi - elektron raqamli imzo kalitini yaratgan (elektron hujjatga imzo qo'ygan) va vakolatli organ tomonidan uning nomiga elektron raqamli imzo kaliti sertifikatini berilgan jismoniy shaxs.

Elektron raqamli imzo kalit sertifikatini boshqarish - elektron raqamli imzo kalitining sertifikatini amal qilishini to'xtatib turish yoki qayta tiklash yoxud uni bekor qilish.

Elektron savdo platformasi (bundan buyon matnda savdo tizimi deb yuritiladi) - banklararo pul bozorida elektron shaklda birja savdolarini o'tkazish imkonini beruvchi hamda qabul qilingan buyurtmalarni ro'yxatga olish, birja bitimlarini tuzish, joriy ma'lumotlarni savdo ishtirokchilari ish o'rinlarida aks ettirish, savdo jarayonini bayonlashtirish va yakuniy birja hujjatlarini shakllantirishni ta'minlovchi valyuta birjasining avtomatlashtirilgan tizimi.

Elektron raqamli imzo kalit sertifikatining amal qilish muddati - elektron raqamli imzo kaliti ro'yxatga olingan vaqtdan boshlab 24 oydan oshmasligi kerak. Elektron raqamli imzo kaliti sertifikatini <https://e-imzo.uz> internet manzilidagi shaxsiy kabinet orqali elektron raqamli imzo kaliti sertifikatining amal qilish muddati tugagunga qadar uzaytirib olish mumkin.

Elektron hukumat — davlat organlarining jismoniy va yuridik shaxslarga axborot-kommunikasiya texnologiyalarini qo'llash yo'li bilan davlat xizmatlari ko'rsatishga doir faoliyatini, shuningdek idoralararo elektron hamkorlik qilishni ta'minlashga qaratilgan tashkiliy-huquqiy chora-tadbirlar va texnik vositalar tizimi.

Elektron hukumatning axborot tizimlari va resurslari yagona reestri (keyingi o'rinlarda — yagona reestr) — idoralararo va idoraviy axborot tizimlari hamda axborot resurslari ro'yxati hamda ular haqidagi axborotni o'z ichiga olgan, internet jahon axborot tarmog'idagi ochiq va umumiy foydalanilishi mumkin bo'lgan axborot resursi.

Elektron hukumatning yagona identifikatorlari — har bir jismoniy va yuridik shaxsga, kadastr va ko'chmas mulk ob'ektlariga,

geografik va boshqa ob'ektlarga beriladigan, ularni elektron hukumatda identifikatsiyalash imkonini beruvchi noyob kodlar.

Elektron davlat xizmatining reglamenti — elektron davlat xizmati ko'rsatishga doir tartibni va talablarni belgilovchi normativ-huquqiy hujjat.

Elektron davlat xizmati — axborot-kommunikasiya texnologiyalari qo'llanilgan holda ko'rsatiladigan davlat xizmati.

ERI kalitining komprometatsiyasi (obro'sizlanishi) - foydalanilayotgan kalitlar, axborot xavfsizligini ta'minlayotganligiga ishonchning yo'qolishi. ERI kalitining obro'sizlanishi bilan bog'liq hodisalarga quyida keltirilganlar kiradi:

- kalitli tashuvchilarning yo'qolishi;
- kalitli tashuvchilarning yo'qolishi va keyinchalik ularning topilishi;
- kalitli axborotdan foydalanishga ruxsati bo'lgan xodimlarning ishdan bo'shishi;
- mahfiy kalitni saqlash va yo'q qilish (amal qilish muddati tugagandan keyin) qoidalarining buzilishi;
- axborotning chetga chiqib ketishiga shubha paydo bo'lishi yoki mahfiy aloqa tizimida uning noto'g'ri talqin etilishi;
- kalitli tashuvchilar bo'lgan seyf muhrining buzilishi;
- kalitli tashuvchilarning qanday holatga uchraganligi haqida aniq ma'lumot olish imkoni bo'lmagan holatlar (shu jumladan, kalit bilan bog'liq ma'lumotlar buzilgan hamda undan qoidabuzarning ruxsatsiz foydalanishi asosli ravishda rad etilmagan).

ERI ochiq kaliti - ERI vositalaridan foydalangan holda hosil qilingan, ERIning yopiq kalitiga mos keluvchi, axborot tizimining har qanday foydalanuvchisi foydalana oladigan va elektron hujjatdagi ERIning haqiqiylikini tasdiqlash uchun mo'ljallangan belgilar ketma-ketligi.

ERIning haqiqiylikini tasdiqlash - ERIning ERI yopiq kalitining egasiga tegishliligi va elektron hujjatdagi axborotda xatolik yo'qligi tekshirilgandagi ijobiy natija.

ERI kalitining sertifikati (imzo kaliti sertifikati) - elektron raqamli imzoning ochiq kaliti elektron raqamli imzoning yopiq kalitiga mosligini tasdiqlaydigan va elektron raqamli imzo yopiq kalitining egasiga ro'yxatga olish markazi tomonidan berilgan hujjat.

ERI vositalari - elektron hujjatda ERI yaratilishini, ERIning haqiqiyliги tasdiqlanishini, ERIning yopiq va ochiq kalitlari yaratilishini ta'minlaydigan barcha texnikaviy va dasturiy vositalar majmui.

ERI kalitlarini ro'yxatga olish markazi (Ro'yxatga olish markazi) - maxsus vakolatli organda davlat ro'yxatidan o'tgan va Qonunda nazarda tutilgan vazifalarni bajaradigan yuridik shaxsdir.

Hujjatlarni bir xillashtirish – elektron tijorat sohasida standartlashtirilgan elektron hujjatlar (xabarlar) bilan almashish uchun zarur bo'lgan va axborot tizimlari bunday hujjatlarni yoki xabarlarini qabul qilishi, jo'natishi, saqlashi va qayta ishlashi mumkin bo'lgan muhitni shakllantirishga qaratilgan choralar.

Hisob-kitob — sotilgan tovarlar (bajarilgan ishlar va ko'rsatilgan xizmatlar) uchun naqd pul va (yoki) elektron to'lov vositalaridan foydalangan holda mablag'larni qabul qilish yoki to'lash haqidagi ma'lumot.

Yozuv – axborotni belgilangan formatda biror elektron tashuvchida, shuningdek, ushbu axborotni qayta ishlash, olish va qabul qilish uchun qulay bo'lgan ma'lumotlar bazasida taqdim etish shakli.

Fiskal ma'lumotlar operatori (keyingi o'rinlarda operator deb ataladi) — onlayn rejimida fiskal ma'lumotlarni mustaqil va doimiy ravishda qabul qilish, qayta ishlash va saqlash ishlarini bajaruvchi O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi huzuridagi «YAngi texnologiyalar» ilmiy-axborot markazi DUK.

Fiskal modul — operator tomonidan ishlab chiqilgan, maxsus himoyalangan dasturiy ta'minotga ega bo'lgan, o'zi ulangan qurilmaning hisoblash quvvati va dasturiy mahsulotini ishlatmagan holda fiskal ma'lumotlarning qonun xujjatlarida belgilangan tartibda milliy standartlar asosida kriptografik himoyasini ta'minlovchi fiskal xotira vazifasini bajaruvchi ixtisoslashtirilgan fizik qurilma.

Fiskal ma'lumotlar — hisob-kitoblar to'g'risidagi ma'lumotlar, hisob-kitoblarni amalga oshiruvchi tadbirkorlik sub'ekti to'g'risida ma'lumot, hisob-kitobda foydalaniladigan onlayn-NKM, virtual kassalar yoki operator tomonidan yaratilgan boshqa ma'lumotlar.

Fiskal belgi — fiskal ma'lumotlarni milliy standartlar asosida kriptografik o'zgartirilishi natijasida fiskal modul yordamida hosil qilinuvchi takrorlanmas belgilar to'plami.

Fiskal modul reestri — soliq xizmati organlarida ro'yxatdan o'tgan fiskal modul to'g'risidagi ma'lumotlar to'plami.

Foydalanuvchi — sotilgan tovarlar (bajarilgan ishlar va ko'rsatilgan xizmatlar) uchun aholi bilan pulli hisob kitoblarni amalga oshirishda onlayn-NKM va (yoki) virtual kassadan foydalanadigan tadbirkorlik sub'ekti.

Sheriklik asosidagi hamkor — TXKM sifatida ro'yxatdan o'tmasdan, TXKM bilan sheriklik asosida shartnomaga muvofiq, TXKM filiali sifatida faoliyat yurituvchi yuridik shaxs.

Uchinchi tomon - O'zbekiston Respublikasi hududida ro'yxatdan o'tgan pul mablag'lari yoki boshqa mol-mulk bilan bog'liq operatsiyalarni amalga oshiruvchi O'zbekiston Respublikasining "Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg'in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish to'g'risida"gi Qonunining 12-moddasida ko'rsatilgan tashkilotlar.

Yuqori mansabdor shaxslar - davlat organlarida doimiy, vaqtincha yoki maxsus vakolat bo'yicha tayinlanadigan yoki saylanadigan, tashkiliy-boshqaruv vazifalarini bajaruvchi va yuridik ahamiyatga ega bo'lgan harakatlarni sodir etishga vakolatli shaxslar, shuningdek, ko'rsatilgan funksiyalarni xalqaro tashkilotda yoxud chet davlatning qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi, ma'muriy yoki sud organida bajaruvchi shaxslar.

Yagona reestr operatori (keyingi o'rinlarda — operator) — yagona reestrda foydalanishni va uning faoliyatini nazorat qiluvchi, shu jumladan, ma'lumotlar bazalarida joylashgan axborotni qayta ishlovchi yuridik shaxs.

Yagona identifikatorlar — har bir jismoniy va yuridik shaxsga, kadastr va ko'chmas mulk ob'ektlariga, geografik va boshqa ob'ektlarga beriladigan, ularni elektron hukumatda identifikatsiyalash imkonini beruvchi noyob kodlar.

Qarshi buyurtmalar - qarama-qarshi yo'nalishga ega bo'lgan buyurtmalar, ya'ni pul mablag'larini joylashtirish uchun taklifga pul mablag'larini jalb etish uchun qo'yilgan buyurtma yoxud pul mablag'larini jalb etish uchun qo'yilgan buyurtmaga pul mablag'larini joylashtirish uchun taklif.

Fan yuzasidan test savollari	
1.	<p>O'zbekistonda "Elektron tijorat to'g'risida"gi qonun qachon qabul qilingan</p> <p>a) 27 mart 2005 yil. b) 13 oktyabr 2007 yil. c) 25 may 2007 yil. d) 29 aprel 2004 yil.</p>
2.	<p>Elektron tijoratda qanday turdagi xizmatlarni ko'rsatish mumkin</p> <p>a) Maxsulotni manzilga etkazib berish b) Bank xizmatidan foydalanish c) Savdo va savdoga tegishli barcha jarayonlarni d) Tulov jarayoni xavfsizligini ta'minlash</p>
3.	<p>Elektron tijorat tizmining yo'lga qo'yilishi qachondan boshlandi</p> <p>a) Mustakillikka erishish bilan bog'liq b) Internet tarmogining yaratilishi bilan bog'liq c) Mobil aloqa tizimining yaratilishi bilan bog'liq d) Tarmoq texnologiyalarini yaratilishi bilan</p>
4.	<p>Soliq tizimidagi elektron tijoratni murakkablashtiruvchi omilni ko'rasating.</p> <p>a) Soliq tizimidagi meyoriy xukukiy hujjatlarni takomillashmashganligi b) Soliq tizimining amalda joriy etilmaganligi c) Har bir davlatda mahsulotlarga soliq belgilanishi d) Soliqning elektron tijoratda mavjud emasligi</p>
5.	<p>Bojxona tizimidagi elektron tijoratni murakkablashtiruvchi omilni ko'rasating.</p> <p>a) Barcha turdagi mahsulotlar uchun bojxona to'lovlarining bir xilligi b) Elektron tijoratda bojxona to'lovlarini yukligi c) Elektron tijoratda bojxona to'lovlari kamayishi d) Har bir davlatda mahsulot turlari ga bojxona to'lovlari ning turtiligi</p>

ELEKTRON TIJORAT

6.	<p>Bank sohasida elektron tijorat faoliyatiga salbiy ta'sir etuvchi omilni ko'rasating.</p> <ul style="list-style-type: none">a) Bank tizimidagi uzaro kelishuvlarning bog'liq emasligib) Banklar orasida axborot almashinuvi tizimining mavjud emasligic) Bank tizimi davlat qonun qoidalarining turlichaligid) Bankda foydalanuvchi valyutalar turining xar xilligi
7.	<p>Elektron tijoratda B2B sektor nimani ifodalaydi.</p> <ul style="list-style-type: none">a) Yuridik shaxs, yuridik shaxsb) Tashkilotlar o'rtasidagi munosabatlarnic) Davlat tashkiloti, jismoniy shaxsd) Jismoniy shaxs, jismoniy shaxs
8.	<p>Elektron tijoratda B2C sektor nimani ifodalaydi.</p> <ul style="list-style-type: none">a) Yuridik shaxs va tashkilotb) Jismoniy shaxs va davlat tashkilotic) Davlat tashkiloti va yuridik shaxsd) Yuridik va jismoniy shaxslar o'rtasidagi munosabatlarni
9.	<p>Elektron tijoratda B2G sektor nimani ifodalaydi.</p> <ul style="list-style-type: none">a) Davlat tashkiloti va xususiy korxonalarb) Yuridik shaxs va davlat o'rtasidagi munosabatlarnic) Jismoniy shaxs va davlat tashkilotid) Yuridik shaxs va jismoniy shaxs
10.	<p>Elektron tijoratda C2C sektor nimani ifodalaydi.</p> <ul style="list-style-type: none">a) Davlat va davlatb) Yuridik shaxs va yuridik shaxsc) Jismoniy shaxslar o'rtasidagi munosabatlarnid) Tashkilot va tashkilot
11.	<p>Elektron tijoratda G2C sektor nimani ifodalaydi.</p> <ul style="list-style-type: none">a) Yuridik shaxs va tashkilotb) Jismoniy shaxs va xususiy korxonalarc) Davlat tashkiloti va xususiy korxonalard) Davlat tashkiloti va jismoniy shaxs o'rtasidagi munosabatlarni

ELEKTRON TIJORAT

12.	<p>Elektron tijoratda mahsulot sotib olish va xizmat ko'rsatishda xarajat nima tufayli kamayadi?</p> <p>a) Kompyuterlarning o'zaro bog'liqligi hisobiga b) Reklama ma'lumotlarini elektron usulda tashkil qilish hisobiga c) Oraliq bo'g'inlarning kamayishi hisobiga d) Bank xizmatining takomillashuvi hisobiga</p>
13.	<p>Elektron tijoratni rivojlanishi jaxon iqtisodiyoti rivojlanishiga qanday ta'sir ko'rsatadi?</p> <p>a) Pul vositalarini almashinuvini tezlashtirish mexanizmini yaratish b) Rivojlantirilishiga qarab salbiy yoki ijobiy c) Yangi turdagi servis va xizmatni yaratish d) Bozorda raqobatdosh mahsulotlarni va xizmatlarni yaratish</p>
14.	<p>Elektron tijoratda mahsulot etkazib beruvchiga asosiy afzalligi nima?</p> <p>a) Arzon bahoda o'z mahsulotlarini elektron magazin orqali sotadi b) Mahsulotni saqlash uchun omborxonalar kerak bo'lmaydi c) Kelishuv hujjatlari elektron tarzda amalga oshiriladi d) To'g'ridan-to'g'ri bozor holati va mijoz talablari to'g'risidagi ma'lumotlar</p>
15.	<p>Elektron tijoratda xaridor qanday turdagi afzalliklarga ega bo'ladi?</p> <p>a) Mahsulot to'g'risida batafsil ma'lumotga ega bo'ladi va ixtiyoriy masofadan xarid qiladi b) Xaridor mahsulot xarid qilganda iqtisodiy samara ko'radi c) O'zining talabidagi mahsulot va narxni tanlashi d) Xaridor sifatli mahsulot xarid qilishga erishadi va sarf xarajat kamayadi.</p>
16.	<p>Xozirgi kungacha amaldagi tijoratda va elektron tijoratda foydalanuvchi vosita va usullarning farqi nimada?</p> <p>a) To'lovlarni elektron tarzda amalga oshirilishi b) Savdo-sotiq kelishuv hujjatlarini elektron tarzda rasmiylashtirish c) Mahsulot etkazib beruvchi va xaridorning bir-birlarini ko'rmasligi d) Barcha savdo jarayonlarini elektron tarzda amalga oshirilishi</p>

ELEKTRON TIJORAT

17.	<p>Elektron tijorat tizimida iqtisodiyotning globallasuvi deganda nimani tushuniladi?</p> <ul style="list-style-type: none">a) Jahon bozorlarini infrastrukturasini yaratishb) Mamlakatlar aro elektron savdo-sotiqni amalga oshirishc) Geografik joylashuviga bog'liq bo'lmagan holda amalga oshirilishid) Jahon bozorining elektron ko'rinishga o'tishi jarayonlari
18.	<p>Elektron tijoratning rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar</p> <ul style="list-style-type: none">a) Aholining kompyuter bilan to'liq ta'minlanmaganligib) Internet foydalanuvchilar, bank va to'lov tizimi, institutsional rivojlanganlikc) To'lov tizimining takomillashmaganligid) Elektron tijorat yuritishning meyoriy huquqiy normalarini yaratilmaganligi
19.	<p>Elektron tijoratda mahsulot etkazib beruvchi qanday afzalliklarga ega bo'ladi?</p> <ul style="list-style-type: none">a) Mahsulot uchun o'z vaqtida haq oladi, mahsulotiga buyurtma oladib) Xoridorning talabiga qarab buyurtma asosida mahsulot ishlab chiqaradic) Mahsulot etkazib beruvchi to'g'ridan to'g'ri mijozga sifatli mahsulot etkazib beradid) O'zga raqobatchilar holatidan voqif bo'ladi va mahsulot sifatini oshirishga harakat qiladi
20.	<p>Elektron tijoratda mijoz, ya'ni xaridor fanday imkoniyatlarga ega bo'ladi?</p> <ul style="list-style-type: none">a) Xaridor ortiqcha sarf xarajatsiz zarur mahsulotini elektron tarzda xarid etadib) Xaridor o'ziga zarur mahsulotni tanlov asosida xarid etadic) Xoridor o'ziga zarur mahsulotni istalgan joyda turib xarid qilish imkoniyatid) Xaridor vaqt va sarf xarajatni tejaydi moddiy samara ko'radi
21.	<p>Mijoz va mahsulot etkazib beruvchi orasidagi munozarali baxslar qanday xal qilinadi?</p> <ul style="list-style-type: none">a) Kelishuvda imzolangan bitim asosida

ELEKTRON TIJORAT

	<p>b) Tuzilgan bitim shartlari va meyoriy huquqiy hujjatlar asosida</p> <p>c) Ichki ishlar idoralari xodimlari ishtirokida</p> <p>d) Amaldagi meyoriy-huquqiy normativ hujjatlar asosida</p>
22.	<p>Elektron tijoratda xaridorlarga qanday xizmatlarni ko'rsatish mumkin?</p> <p>a) Mahsulot va xizmatlar bo'yicha axborot berish</p> <p>b) Xaridor xarid qilgan mahsulotni manzilga etkazib berish</p> <p>c) Xarid va xariddan keyingi barcha jarayonlarni</p> <p>d) To'lovni amalga oshirish va mahsulotni tanlov asosida xarid qilish</p>
23.	<p>Elektron tijorat magazinlarga qanday xizmat ko'rsatadi?</p> <p>a) Reklama qilish va mijozlarni jalb qilish</p> <p>b) Magazindagi mahsulot turiga mijozlarni jalb qiladi</p> <p>c) Magazindan xarid etilgan mahsulotni manzilga etkazib beradi</p> <p>d) Magazin mahsulotlari sifatini oshirish ga undaydi va raqobatni kuchaytiradi</p>
24.	<p>Elektron raqamli imzo to'g'risidagi qonun qachon qabul qilingan?</p> <p>a) 1 avgust 2005 yil.</p> <p>b) 11 dekabr 2003 yil.</p> <p>c) 10 may 2006 yil.</p> <p>d) 11 dekabr 2005 yil.</p>
25.	<p>Elektron hujjat almashinuvi to'g'risidagi qonun qachon qabul qilingan?</p> <p>a) 15 sentyabr 2005 yil</p> <p>b) 21 sentyabr 2006 yil</p> <p>c) 30 aprel 2004 yil.</p> <p>d) 10 aprel 2005 yil.</p>
26.	<p>Axborotlashtirish to'g'risidagi qonun qachon qabul qilingan?</p> <p>a) 24 sentyabr 2006 yil.</p> <p>b) 5 may 2005 yil.</p> <p>c) 11 fevral 2004 yil.</p> <p>d) 03 mart 2006 yil.</p>
27.	<p>Internet-banking bu?</p> <p>a) Investitsion portfelni yaratish va aktivlarni boshqariish</p> <p>b) Valyuta va fond bozorlarida faoliyat bo'yicha xizmatlar</p>

ELEKTRON TIJORAT

	<p>c) Mijoz o'z hisob raqamlari ustidan Elektron boshqaruvga ega bo'lgan paytda internet orqali bank xizmatlarini taqdim etish</p> <p>d) Yer yuzining istalgan nuqtasida kerakli axborotni(koterovkalar, analiz, prognozlar) operativ qabul qilish</p>
28.	<p>Tovar va xizmatlarni sotish va ularning buyurtmasi va to'lovini amalga oshirish uchun vositalarini taqdim etuvchi Web server bu _?</p> <p>a) galareya</p> <p>b) tashkilotlar</p> <p>c) Sayt</p> <p>d) Internet-do'kon</p>
29.	<p>1990-yillardan beri internetda mavjud bo'lgan ilovalar qatlamiga ega bo'lgan obyektga yo'naltirilgan protokol</p> <p>a) HTML</p> <p>b) HTTP</p> <p>c) TCP</p> <p>d) PHP</p>
30.	<p>Qaysi web serverlar orqali foydalanuvchilar kirishga ruxsat olishi mumkin</p> <p>a) RISC, CISC, MMX</p> <p>b) CASE, BASE</p> <p>c) Elektronpochta FTP, WWW</p> <p>d) Elektronpochta, ISO, OSI</p>
31.	<p>Mavjud yoki potensial xaridorlar va sotuvchilarning virtual yoki real holda mahsulot va xizmatlarni taqdim etishi bu-</p> <p>a) raqobat</p> <p>b) bozor</p> <p>c) byudjet</p> <p>d) monopoliya</p>
32.	<p>Alohida kataloglarni birlashtiruvchi ko'pgina etkazib beruvchilar va ularga mos maqsadli xaridorlarni birlashtiruvchi kataloglar sayti bu</p> <p>a) translyatorlar</p> <p>b) auksionlar</p> <p>c) agregatorlar</p> <p>d) birjalar</p>

ELEKTRON TIJORAT

33.	<p>Bir tashkilot tomonidan taqdim etilgan ma'lum xizmat turlarini taqdim etuvchi birlashgan iqtisodiy sub'ektlar guruxi</p> <p>a) mikroiqtisodiyot b) yalpi qo'yilma c) fiskal siyosat d) virtual tashkilot</p>
34.	<p>Internet magazinlar ularni an'anaviy turlari bilan solishtirganda iste'molchilarni nima bilan ta'minlab beradi?</p> <p>a) konsalting xizmatlari b) zaruriy axborot ta'minoti c) amaliy dasturiy ta'minot d) elektron mahsulotlar bilan</p>
35.	<p>Biznes jarayonlarni loyixalashtirish, jarayonlarni ularni qo'llab quvvatlovchi resurslarga bog'lash, jarayonlar monitoringi – virtual ... qurishning asosiy bosqichlaridan xisoblanadi</p> <p>a) Xususiy tarmoq b) Tashkilot c) Serverlar d) Makon</p>
36.	<p>.....- elektron tarmoq orqali amalga oshiriladigan xo'jalik faoliyati</p> <p>a) Resurs almashish b) Texnologik tarmoq iqtisodiyoti c) Axborot tarmoq iqtisodiyoti d) Tarmoq iqtisodiyoti</p>
37.	<p>Bu portalda foydalanuvchilar katalogdan tovar izlashlari, on-line suhbat o'tkazishlari, bitim imzolashlari va to'lovni amalga oshirishlari mumkin</p> <p>a) Internet-auksionlar b) Birja c) Savdo maydonchasi (B2B modeli – electron maydoncha) d) Reklama biznes</p>
38.	<p>Elektron tijoratni ... shakli – elektron savdoni nazarda tutib, tovar va xizmatlarni etkazib beruvchilar buyurtmachiga ma'lum mablag' evaziga amalga oshirib beradilar</p> <p>a) Ikkinchi</p>

ELEKTRON TIJORAT

	<p>b) Birinchi c) Aloxida xususiyatga ega d) Maxsus</p>
39.	<p>E biznesni tarkibiy qismi bu e ... a) arxitektura b) kompleks c) tijorat d) konsorsium</p>
40.	<p>Tijorat modellarining farqi nimada a) ishlab chiqarishga yo'naltirilgan b) bozorga yo'naltirilgan c) kim oki nimaga yo'naltirilganligida d) vositachiga yo'naltirilgan</p>
41.	<p>Elektron tijorat rivojlanishiga ta'sir ko'rsatuvchi umumiy iqtisodiy omilni ko'rsating a) korporativ boshqarish samaradorligi b) iqtisodni modernizatsiyalash darajasi c) internet auditoriyasining kengayib va o'sib borishi d) elektron savdoni huquqiy tartiblash darajasi</p>
42.	<p>Elektron tijorat rivojlanishiga ta'sir ko'rsatuvchi umumiy iqtisodiy omilni ko'rsating a) internet auditoriyasining kengayib va o'sib borishi b) korporativ boshqarish samaradorligi c) elektron savdoni huquqiy tartiblash darajasi d) sarmoya muhiti</p>
43.	<p>Elektron tijorat rivojlanishiga ta'sir ko'rsatuvchi umumiy iqtisodiy omilni ko'rsating a) iqtisodiyotning monopollashuv darajasi b) internet auditoriyasining kengayib va o'sib borishi c) korporativ boshqarish samaradorligi d) elektron savdoni huquqiy tartiblash darajasi</p>
44.	<p>Elektron tijorat rivojlanishiga ta'sir ko'rsatuvchi umumiy iqtisodiy omilni ko'rsating a) iqtisodiy holatning mo'tadilligi</p>

ELEKTRON TIJORAT

	<p>b)internet auditoriyasining kengayib va o'sib borishi c)korporativ boshqarish samaradorligi d)elektron savdoni huquqiy tartiblash darajasi</p>
45.	<p>Elektron tijorat rivojlanishiga ta'sir ko'rsatuvchi umumiy iqtisodiy omilni ko'rsating a)internet auditoriyasining kengayib va o'sib borishi b)korporativ boshqarish samaradorligi c)elektron savdoni huquqiy tartiblash darajasi d)milliy iqtisodiyotning kompleks o'lchami</p>
46.	<p>Elektron tijorat rivojlanishiga ta'sir ko'rsatuvchi infratuzilma omilni ko'rsating a)milliy iqtisodiyotning kompleks o'lchami b)korporativ boshqarish samaradorligi c)internet auditoriyasining kengayib va o'sib borishi d)elektron savdoni huquqiy tartiblash darajasi</p>
47.	<p>Elektron tijorat rivojlanishiga ta'sir ko'rsatuvchi infratuzilma omilni ko'rsating a)korrupsiya darajasi b)xaridorga mahsulotlarni qulay va arzon usulda yetkazib berishning mavjudligi c)kompyuter texnologiyasi rivojlanish doirasining intellektual salohiyati doirasi</p>
48.	<p>Elektron tijorat rivojlanishiga ta'sir ko'rsatuvchi infratuzilma omilni ko'rsating a)rahbarlar tomonidan yangiliklarni o'zlashtirish dinamikasi b)xaridorga mahsulotlarni qulay va arzon usulda yetkazib berishning mavjudligi c)bir turdagi mahsulot bahosining differensiallik darajasi d)korrupsiya darajasi</p>
49.	<p>Elektron tijorat rivojlanishiga ta'sir ko'rsatuvchi infratuzilma omilni ko'rsating a)bir turdagi mahsulot bahosining differensiallik darajasi b)axborot texnologiyalarini, birinchi navbatda telekommunikatsiyani rivojlantirish c)xaridorga mahsulotlarni qulay va arzon usulda yetkazib</p>

ELEKTRON TIJORAT

	berishning mavjudligi d) korrupsiya darajasi
50.- bu, yangi paydo bo'lgan biznes-model bo'lib, unda biznesga oid ma'lumotlarni almashish hamda tijoratga oid tranzaksiyalar axborot tizimlari yordamida avtomatlashtiriladi a) Elektron tijorat b) 1-molel c) Elektron biznes d) 2-model
51. o'zida elektron biznes yuritishning savdo-sotiqqa oid sohasini aks ettiradi a) Elektron biznes b) 1-molel c) Elektron tijorat d) 2-model
52.	elektron tijoratda taklif etiladigan savdo ob'ektlarini korsating a) nomoddiy mahsulotlar b) moddiy mahsulotlar c) moddiy va nomoddiy mahsulotlar, xizmatlar d) xizmatlar
53.	Elektron tijorat qanday davlatlar hududida faoliyat yuritadi a) Xitoy, Aqsh, Yevropa, markaziyosiyo b) Evroosiyo + AqSh c) Xitoy, Aqsh, Yevropa d) cheklanmagan hududda
54.	Elektron biznesni yo'lga qo'yish, yuritish va uni yanada rivojlantirish buyicha qabul qilingan asosiy qonunlar a) Elektron tijorat to'g'risida b) Elektron to'lovlar to'g'risida c) Elektron tijorat to'g'risidagi, Axborotlashtirish to'g'risida, Elektron raqamli imzo, Elektron hujjat aylanishi, Elektron to'lovlar d) Elektron raqamli imzo to'g'risida

ELEKTRON TIJORAT

55.- axborot tizimi tarkibidagi elektron shakldagi axborot, ma'lumotlar banki, ma'lumotlar bazasi a) axborot b) ma'lumot c) axborot resursi d) ma'lumotlar bazasi
56.	Davlat buyurtmalarini taqsimlash tizimi, elektron tenderlar elektron tijoratning qaysi modeliga taalluqli a) B2B b) G2G c) B2G d) G2B
57.	Jamoat tarkibi fikrini bilishda ishtirok etish elektron tijoratning qaysi modeliga taalluqli a) B2C b) G2C c) C2G d) C2B
58.	P2P xizmati elektron tijoratning qaysi modeliga taalluqli a) B2C b) C2C c) G2C d) B2B
59.	Internet treydinglar elektron tijoratning qaysi modeliga taalluqli a) B2C b) C2G c) G2C d) C2B
60.	Elektron vitrina va kataloglar elektron tijoratning qaysi modeliga taalluqli a) C2G b) B2C c) G2C d) C2B

ELEKTRON TIJORAT

61.	Davlat ehtiyoji uchun zarur bo'lgan mahsulotlarni elektron savdoda sotib olishda ishtirok etish elektron tijoratning qaysi modeliga taalluqli a)C2G b)G2C c)C2B d)B2G
62.	Autsorsing elektron to'lov tizimi elektron tijoratning qaysi modeliga taalluqli a)B2C b)B2G c)G2C d)B2B
63.	Sohaviy elektron savdo maydoni elektron tijoratning qaysi modeliga taalluqli a)B2C b)G2C c)B2B d)B2G
64.	Elektron birjalar elektron tijoratning qaysi modeliga taalluqli a)G2C b)B2B c)B2C d)B2G
65.	Ko'p darajadagi marketing tizimi elektron tijoratning qaysi modeliga taalluqli a)G2C b)B2C c)C2C d)B2B
66.	Elektron tenderlar elektron tijoratning qaysi modeliga taalluqli a)G2G b)B2G c)B2B d)G2B

ELEKTRON TIJORAT

67.	<p>Ijtimoiy xizmat tizimi elektron tijoratning qaysi modeliga taalluqli</p> <p>a)G2B b)B2G c)G2C d)B2B</p>
68.	<p>Ma'lumotlarning yagona standarti - EDIdanelektron tijoratning qaysi modeli foydalanadi</p> <p>a)B2C b)B2G c)G2C d)B2B</p>
69.	<p>.....-xaridor tomonidan tashkil etiladigan savdo maydonchasi</p> <p>a)thirdparty-driven b)supplier-driven yoki seller driven c)buyer-driven d)vuer-driven</p>
70.	<p>.....-sotuvchi tomonidan tashkil etiladigan savdo maydonchasi</p> <p>a)thirdparty-driven b)vuer-driven c)buyer-driven d)supplier-driven yoki seller driven</p>
71.	<p>.....-uchinchi shaxs tomonidan tashkil etiladigan savdo maydonchasi</p> <p>a)buyer-driven b)supplier-driven yoki seller driven c)thirdparty-driven d)vuer-driven</p>
72.	<p>.....-yirik kompaniyalar tomonidan tashkil etiladigan savdo maydonchasi</p> <p>a)buyer-driven b)thirdparty-driven c)supplier-driven yoki seller driven d)vuer-driven</p>

ELEKTRON TIJORAT

73.	Internet-do'konda tushgan so'rovlarni taqsimlaydi, foydalanishni chegaralaydi a) Ilovalar serveri b) Web-server c) MBBT ilovalar d) Internet-do'konning virtual ta'minoti
74.	Internet-do'konda barcha tizim ishlashini, xususan Internet-magazin biznes mantiqini boshqaradi a) MBBT ilovalar b) Web-server c) Ilovalar serveri d) Internet-do'konning virtual ta'minoti
75.	Internet-do'konda mijozlar, schyotlar va hokozo hususidagi axborotni saqlashni va ishlashni amalgam oshiradi a) Web-server b) Ilovalar serveri c) MBBT ilovalar d) Internet-do'konning virtual ta'minoti
76. narxlar qayd etilmagan, balki oldi-sotdi jarayonida o'rnatilgandagi savdo tashkiloti maydonchasi modeli a) internet-do'kon b) internet-birja c) internet-auksion d) savdo birjasi

D.X.SUYUNOV, A.T.KENJABAYEV, A.O.RO'ZIYEV

ELEKTRON TIJORAT

Darslik

Toshkent-2023

Muharrir: Begzod Keldiyorov
Sahifalovchi: Otabek Fayzullaev
Dizayner: Vasiliy Bursev

Bosishga ruxsat etildi 17.04.2023. Formati 84x60 1/32.
«Times New Roman» garniturasida ofset usulida bosildi.
Nashr bosma tabog'i 18,7.
Shartli bosma tabog'i 18,7. Tiraji 150.
Buyurtma № 17/04

«BROK CLASS SERVIS» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Toshkent shahri, Segizbaeva ko'chasi, 28-uy.

Бизнес ва тадбиркорлик олий мактаби,
100060, Тошкент, Миробод кўчаси, 25.